



**A.A. YADGAROV**

# **SIFATNI BOSHQARISH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**A.A. YADGAROV**

# **SIFATNI BOSHQARISH**

**(Kredit-modul bo‘yicha)**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

**TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 338.24(075)**

**KBK 30.607s**

**S 86**

**A.A.Yadgarov. Sifatni boshqarish. (Darslik). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022, 224 bet.**

**ISBN 978-9943-8531-2-6**

Ushbu darslik “Sifatni boshqarish” fani bo‘yicha tayyorlangan bo‘lib, unda sanoat korxonalarida sifat tizimini boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini yoritib berishga harakat qilingan. Shuningdek, sifatni boshqarishning zamonaviy tizimi, sifatni boshqarishda xorijiy tajribalar, sifatni boshqarishda standartlashtirish va uning talablari, metrologik faoliyatni tashkil etish, mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari, korxonalarining ishlab chiqarish tizimi boshqaruvida xalqaro ISO standartlari asosida sifat menejmentini joriy etishning afzalliklari, sifatni boshqarishda standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologik faoliyatni keng joriy etishning me‘yoriy-huquqiy asoslari keltirib o‘tilgan.

Ushbu darslik sanoat korxonalarida sifatni boshqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar faoliyatida hamda sifatni boshqarish faoliyatiga qiziquvchilar hamda 5A230102 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi talabalarining bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlanishida o‘zining ijobiy samarasini beradi.

**UO‘K: 338.24(075)**

**KBK 30.607s**

**Taqrizchilar:**

**S. Umarov** – TIQXMII “Agroiqtisodiyot” kafedrası professori i.f.d.;

**B. Salimov** – TDIU “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrası professori, i.f.d.

**ISBN 978-9943-8531-2-6**

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish faoliyatini tubdan isloh qilish borasida quyidagi fikrlari, ya’ni “Kelgusi yilda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralarni qayta boshlaymiz. Eksportni yanada rag‘batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish lozim. Asosiy maqsadlarimizdan biri – tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni “O‘zbek brendi” nomi bilan olib chiqishdan iborat”, deya ta’kidlab o‘tilgan<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2935-sonli qaroriga asosan 2017–2020-yillarda hududlar kesimida 9158 ta (2017-yilda 2096 ta, 2018-yilda 2216 ta, 2019-yilda 2387 ta va 2020-yil 2459 ta), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi komplekslari tarkibiga kiruvchi 446 ta (2017-yilda 96 ta, 2018-yilda 105 ta, 2019-yilda 121 ta va 2020-yil 124 ta) korxonalarda menejment tizimlarini joriy etish belgilangan.

2017–2020-yillarda poliz-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 80 ta eksportyor korxonalarda ISO 22000 standartini joriy etish (2017 yilda 25 ta, 2018-yilda 16 ta, 2019-yilda 18 ta va 2020-yil 21 ta), energiya sarfi yuqori bo‘lgan 67 ta korxonalarda ISO 50001 standartini joriy etish (2017-yilda 23 ta, 2018 yilda 22 ta, 2019-yilda 12 ta va 2020-yil 10 ta) rejalashtirilgan.

Oldinga qo‘yilgan bunday vazifalarni amalga oshirish natijasida mahalliy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish, ularning xorijiy bozorlardagi raqobatbardoshligini ta’minlash mahalliy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilishda qulayliklarga erishish kabi yutuqlarga erishilishi begumon. Mahsulot va xizmatlar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so‘zi, 23-dekabr, 2017-yil.

sifatini yaxshilash strategik muammo bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi bu muammolarning hal etishiga bog'liqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki xizmatlar ko'rsatishda faqatgina ko'proq foyda olish uchungina emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun ham zarurdir.

2017–2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada, keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro standart talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya agentligi amalga oshiradi. Respublikada standartlashtirish tartibi bir xil turdagi mahsulotning har bir turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan qayd etiladigan standartlashtirish qoidalariga muvofiq keluvchi tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu darslikda bevosita sanoat korxonalarida mahsulot sifatini oshirish, sifatni boshqarish tizimi, sifatni oshirishda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy masalalari bevosita yoritib berilgan.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. ["Xalq so'zi"](#) G.FF 08.02.2017-y. №28. (6722).

# **I BOB. SIFATNI BOSHQARISH VA MAHSULOT SIFATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

## **1.1. Sifatni boshqarish fani o'quv kursi sifatida**

## **1.2. Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar**

## **1.3. Sifatni boshqarish rivojlantirish to'g'risidagi qonunlar**

**Tayanch iboralar:** sifat, raqobat, sifat tizimi, sifatni boshqarish, sifat ko'rsatkichlari.

Sanoat korxonalari o'rtasida keskin raqobat muhitining shakllanganligi, aynan ishlab chiqarish korxonalari oldida turgan asosiy vazifa sifatida sifatni boshqarish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish dolzarbligini belgilab berdi. Mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, real sektor tarmoqlari korxonalari oldidagi muhim masalalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi va strategik muammolaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarida mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilashdagi muammolarni tubdan hal etishiga bog'liqdir. Real sektor korxonalari ishlab chiqarishida sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni ishlab chiqarishdan tortib, sotish yoki xizmatlar ko'rsatish hamda iste'molchiga sifatli tarzda yetkazib berish, sifatli servis xizmatlarini ko'rsatish orqali faqatgina foyda olish uchungina emas, balki aholining ehtiyojlarini imkon qadar qondirish, shuningdek, jamiyat va uning ravnaqi uchun ham zarur masalalardan biridir.

Xaridor biror-bir mahsulotni xarid qilishda uning aynan o'zi uchun naf keltirishi bilan birga doimiy foydalikka ega bo'lishini ham hisobga olgan holda mahsulotni sotish bahosiga qiziqishi tabiiy. Biroq xaridor mahsulotni sotib olar ekan, uni faqatgina zarur bo'lgani uchungina emas, balki o'ziga yoqqani uchun ham sotib oladi va kelishilgan holda haqini to'laydi.

Xaridor mahsulotlarning tashqi ko‘rinishi, undan foydalanishning qulayligi, xizmat ko‘rsatish muddati, mahsulotning texnikaviy tavsifi, kafolatli xizmat ko‘rsatish shartlari kabilar tovarning bahosini belgilashda muhim omil hisoblanib, xaridor tovarni “o‘zining ma’lum ehtiyojlarini qondiradi”, degan yaxshi bir niyat bilan xarid qiladi. Bozor iqtisodiyotining muhim talablaridan biri – ishlab chiqarilgan tovar sotilishining muhim shartlari sifatida xaridorga ishonchli va kafolatlangan sifatli mahsulotni taqdim etishdir.

Dunyoning taraqqiy etgan ko‘pgina mamlakatlari rivojlanishga to‘rtki bo‘layotgan omil asosan raqobatdir. Rivojlangan davlatlar, xususan, AQSH, Yevropa davlatlari, Yaponiya, Koreya, Xitoy va Rossiya davlatlarida raqobatning kuchliligi evaziga ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida yuqori natijaga erishilmoqda. Bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos qonuniyati aynan, raqobatbardosh tovarlar va xizmatlarni iste‘molchiga taklif qilish orqali yuqori foyda olishga intilish hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini oshirish asosiy muammodir. Ushbu masalani hal etish bugungi kunda ichki va tashqi bozorda O‘zbekiston tovarlarining mavqeini yanada oshiradi va milliy iqtisodiyotda paydo bo‘lgan barcha muammolarni ijobiy hal etishga yo‘l ochadi.

Hozirgi paytda aksariyat ko‘p turdagi tovarlarimiz ichki bozorimizda xorijiy tovarlar bilan raqobatlasha olishi qiyin kechmoqda. Erkin iqtisodiyotga asoslangan sharoitda, sanoat korxonalarining asosiy e‘tibori korxonalar ishlab chiqarishida sifatni boshqarishga qaratilgan bo‘lishi kerakligi, shu orqali ishlab chiqaruvchilar barcha raqobatchilarga qarshi kurasha oladilar va iste‘molchilarning har qanday talablariga to‘liq javob bera olish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar. Raqobatning bugungi oltin qoidasiga aylangan “**sifat masalasi**” muhim vositalardan biri sifatida yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarni taklif etish orqali raqobatbardoshlikni oshiruvchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan ma'lumki, ishlab chiqaruvchi korxonalar muayyan darajada sifatni ta'minlamay, iste'molchilar talablarini qondirmay turib iqtisodiyotda hech qanday yutuq va yuqori foydaga erisha olmasliklari amalda o'z isbotini topmoqda. Aytib o'tish joizki, xalqaro hamjamiyat taraqqiyotida integratsion jarayonlar shuni taqazo etadiki, bunda mahsulot va xizmatlar sifatini boshqarish, sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarining barcha maqsadlariga erishishida va obro'-e'tibor topishida eng asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida "Sifatni boshqarish" fanini o'qitishning joriy qilinishi asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 29-avgustdagi 183-sonli qarori me'yoriy hujjat sifatida turtki bo'ldi va bunga muvofiq barcha oliy o'quv va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga "Sifat menejmenti" yoki "Real sektorda sifatni boshqarish" fanlarini keng tatbiq etilishi munosabati bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "O'zbekiston Respublikasida Xalqaro standartlarga mos ravishda sifat menejmentini joriy qilish" rejasi ishlab chiqildi hamda oliy ta'limning o'quv rejalariga kiritildi.

Oliy ta'lim tizimiga "Real sektorda sifatni boshqarish" fanining joriy qilinishi, o'z navbatida: real sektor tarmoqlari korxonalarida sifatni boshqarishning mazmun-mohiyati; sifatni boshqarishda xalqaro tajribalar; mahsulotlarni standartlashtirish; mahsulotlarni sertifikatlash; metrologiya xizmatlarini tashkil etish; iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va sifatni boshqarishda umumiy o'lchov tizimini tartibga solish kabi yo'nalishlarni kengroq yoritish bilan birga korxonalarda sifatni nazorat qilish va boshqaruv masalalariga ham e'tibor qaratilgan.

Sifatni boshqarish sohasida ro'y berayotgan barcha yangiliklardan xabardor bo'lish, ularning mohiyati va ahamiyatini to'g'ri tushunib yetish, sifatni boshqarishdagi muammolarni oqilona hal etish real sektordagi tarmoq va korxonalar, firmalar, yirik ishlab chiqarish majmualari oldida turgan vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun sifatni



boshqarish sohasidagi bilimlarni o‘zlashtirish va uni chuqur egallashni talab etadi.

“Sifatni boshqarish” fani esa korxonadagi muhim muammolarini o‘rganishda va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta‘minlash asosida ishlab chiqarishda ishtirok etadigan xodimlar, xomashyo resurslari hamda texnika va texnologiyaning samarali ishlashini ta‘minlab beradigan yo‘llarini belgilab beradigan fanlar sirasiga kiritish mumkin.


“Sifatni boshqarish” fanining predmeti deganda korxonalarda sifatni boshqarishning obyektiv iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalarining shu sohada namoyon bo‘lish shakllarini, real sektor tarmoqlari korxonlarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida jonli va buyumlashgan mehnatning eng optimal tarzda sifatni to‘g‘ri boshqarish va nazoratni ta‘minlash asosida xarajatlarni qisqartirish hamda eng yuqori natijalarga erishishni ta‘minlaydigan shart-sharoitlar va omillarni o‘rganish tushuniladi.

Bozor munosabatlari sharoitida respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxonalarining oldida turgan asosiy muammolaridan biri sifatli mahsulot ishlab chiqarish va aholining ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlashdan iborat. Bu muammoni yechish korxonaning hozirgi va keyingi rivojlanishini belgilab beradi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ko‘plab korxonalar sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga harakat qiladi. Chunki korxonaning tovar va xizmatlar bozorida raqobat ustunligiga ega bo‘lishlari sifatli tovarlarni iste‘molchilarga taklif qilishlariga qarab belgilanadi. Bu jarayonda raqobatbardoshlik quyidagi ikki omilga, ya‘ni mahsulotning qiymat va sifat darajalariga bog‘liq. Raqobatbardoshlikdagi ikkinchi omil, ya‘ni sifat darajasi sekin-asta birinchi o‘ringa chiqadi. Mehnat va ishlab chiqarish resurslarini iqtisod qilish sifatli mahsulot ishlab chiqarish asosida shakllanadi.

**Sifat** – korxonaning e‘tiborli jihati yoki obro‘si, daromadni oshiruvchi, korxonaning barqaror o‘sishini ta‘minlovchi muhim omil bo‘lib, korxonada sifatli mahsulot ishlab chiqarishida xodimlardan

samarali foydalanishni yo‘lga quyishida hamda rahbardan tortib to aniq ishni bajaruvchi xodimgacha bog‘liqdir.



**1-rasm. Korxonada sifatni ta'minlash uchburchagi**

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, korxonada sifatni ta'minlash uchburchagi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra sifatni ta'minlash jarayoni, korxonada mahsulotni sifatli qilib tayyorlash uchun ish sifati va ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatini yaxshilashga uzviy bog‘liq.

## **1.2. Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar**

Sifatni boshqarish muhim strategik masalalardan biridir, barcha turdagi iste'molchilar uchun naflidir bo‘lib, bir tomondan ularni qiziqtirsa, ikkinchi tomondan barcha sifatni ahamiyati yanada yuqori. Barchaning birdek maqsadi sifat reytingini yanada oshirishdir<sup>3</sup>.

**Mahsulot sifati** – korxonada faoliyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifatini oshirish korxonaning tovar va xizmatlar bozoridagi yuqori ustivorligini ta'minlab berish bilan birga, ilmiy-texnik taraqqiyotning o‘shish sur‘atini, korxonada samaradorligi o‘shirishini, korxonada ishlab chiqarishida barcha turdagi resurslardan tejab foydalanishni yuzaga keltiradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va difersifikatsiyalash sharoitida mahsulot sifatini yaxshilash korxonada ishlab chiqarishi samaradorligini

<sup>3</sup>David Hoyle. ISO 9000 Quality systems Handbook. Fourth Edition. Oxford. 2001. ISBN 07506 4451 6. 11 page.

oshirishning asosiy omillaridan biridir. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy mehnatning tejalishi, asosan, sifatli mahsulotni iste'mol qilish sohasida yuzaga keladi.

Sifatli mahsulotni ishlab chiqarish esa ishlab chiqaruvchi korxonalarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarida, shuningdek, ayrim ishchi-xizmatchilarning mehnat unumdorligida ham o'z aksini topadi. Mahsulot sifatini yaxshilanishi hisobiga korxonada ijtimoiy mehnat unumdorligi ortadi. Ya'ni bir xil hajmda ishlab chiqarilgan mahsulot sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishi hisobiga shu mahsulot birligining bahosi ortib, tovar mahsuloti qiymati ko'payadi.


Korxonada sifatli mahsulot ishlab chiqarishi natijasida va ishchilar soni o'zgarmagan holda, tovar mahsuloti qiymatining ortishi har bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha tovar mahsuloti ko'payishiga va mehnat unumdorligi ko'tarilishiga olib keladi. Korxonada taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash strategik muammo bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi bu muammolarning hal etishiga bog'liqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki xizmatlar ko'rsatishda faqatgina ko'proq foyda olish uchun emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun ham zarurdir.

Sifatga yana quyidagicha ta'rif berish mumkin, ya'ni sifat – keng sig'imli, murakkab va universal kategoriya bo'lib, u ko'plab xususiyat va jihatlarga egadir. Undan qaysi maqsadda foydalanishiga qarab sifat tushunchasini quyidagi jihatlari namoyon bo'ladi: falsafiy, ijtimoiy, texnikaviy, iqtisodiy va huquqiy.

2-rasmda sifat tushunchasini namoyon etuvchi asosiy jihatlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra sifatni barcha xususiyatlari quyida ochib berilgan.

Sifatga falsafiy nuqtai nazardan qaraganda sifat aniq mazmun va mohiyatga ega bo'lib, boshqalardan farq qiladi. Avvalambor, uning ayrim xususiyatlari va boshqalardan farqi namoyon bo'lishiga qaramay ular o'zaro uzviy bog'liqlikda ekanligidir. Sifat ko'plab xususiyatlar majmuasidan tarkib topadi, ular cheksiz bo'lishlari ham mumkin. Bu esa

moddiy manbalarga va turlicha dunyoqarashlarga asos bo‘la oladi.



**2-rasm. Sifat tushunchasini namoyon etuvchi asosiy jihatlari**

Sifat tushunchasining ijtimoiy jihatlari muayyan subyekt bilan yoki jamiyat bilan bog‘liq bo‘lib, u iste‘molchilar va mahsulot (xizmatlar) orasidagi munosabatdir. Bu yerda sifat aniq bir kategoriya ko‘rinishida namoyon bo‘lib xaridorlarning talab va taklif qonuniyatlariga javob bergan holda xaridorlarning ma‘naviy dunyoqarashi, ijtimoiy madaniyati va iqtisodiy daromadlariga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Sifat tushunchasining texnik jihatlari o‘rganilayotgan obyektning miqdor va sifat o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu yerda fizikaviy, elektrokimyoviy va mexanik o‘zgarishlar bir turdagi vazifani bajaruvchi mahsulot (moddalar) xususiyati haqida so‘z yuritiladi.

Sifat tushunchasiga muhandislik nuqtai-nazardan qaraganda o‘rganilayotgan mahsulot sifati va xususiyatlari aniq mahsulot etalonlari bilan taqqoslab o‘rganilishi nazarda tutiladi.

Sifat tushunchasiga iqtisodiy nuqtai nazardan olganda sifat-o‘rganilayotgan manbani iste‘mol xususiyatlarini va qiymatini namoyon etadi. Sifat tizimini joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan yetakchi mutaxassis, amerikalik olim D. Djuranni sifat – “foydalanish

(iste'mol) uchun yaroqlik", degan tushunchani fanga kiritgan. Bu tushuncha o'ziga xos to'rtta elementdan tashkil topgan:

- Mahsulotni shakli, tuzilishini (dizayni) iste'molchilar o'zlarida idrok qilishlari;
- Mahsulotning loyihasiga va vazifasiga mosligi;
- Mahsulotni iste'molchilarga ma'qulligi, chidamligi va ta'mirlash mumkinligi;
- Maishiy xizmat korxonalarining mavjudligi.

Nemis tadqiqotchilari sifatga quyidagicha: "Sifat-mahsulot yoki xizmatlardagi barcha xususiyatlarining yig'indisi bo'lib, ular o'z vazifalarini bajara olishlarini kafolatlaydi", deb ta'rif beradilar.

Fan-texnika taraqqiyoti bilan birga barcha taraqqiyotlarning sifat haqidagi fikrlari turli-tuman bo'lishiga qaramay, ular doimo bir-birlarini to'ldirib kelmoqda va hech qachon qarama-qarshi bo'lmagan. Bozor raqobatchiligi davrida tovar va xizmatlar turlari qanchalik ko'payib borar ekan sifat to'g'risidagi tasavvurimiz ham o'zgarib boraveradi.

Sifat o'zining haqiqiy mazmunini va mohiyatini "sifat halqasi", deb nomlangan, tovar va xizmatlarning hayotiy jarayonida to'la ifodalanadi.

### **1.3. Sifatni boshqarish rivojlantirish to'g'risidagi qonunlar**

Mahsulot sifatini boshqarish-mahsulot sifati darajasini joriy qilish, ta'minlash va zaruriy darajada ushlab turish maqsadida loyihalash, tayyorlash va foydalanish (yoki iste'mol qilish) paytida amalga oshiriladigan harakatlar majmuasidir.

Sifatning zaruriy darajasini joriy etish tadqiqot qilish va loyihalash bosqichida mamlakat hamda xorijdagi eng ilg'or ilmiy-texnikaviy yutuqlar tahlili asosida amalga oshiriladi. Mazkur bosqichda sifatni boshqarish muhim ahamiyatga ega, chunki shu yerda bo'lajak mahsulotning asosiy texnikaviy-iqtisodiy va foydalanish ko'rsatkichlari hisoblanadi va ularga asos qo'yiladi. Bu ko'rsatkichlar iste'molchilarning

zamonaviy talablaridan yuqoriroq bo‘lishi kerak, chunki yangi mahsulot savdo sohasiga chiqquncha uning sifat ko‘rsatkichlari ma’naviy eskirib qolishi mumkin.

**Mahsulot sifatini ta’minlash** – ishlab chiqarish bosqichida amalga oshiriladi. Bu yerda mahsulot sifati mahsulotni tayyorlash me’yoriy-texnikaviy hujjatlar, jihozlar, uskuna va asboblari, olinadigan xomashyo, material va jamlovchi buyumlar sifati bilan aniqlanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini baholash mezonini sifatida amaldagi texnikaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar loyiha hujjatlarda, ya’ni birinchi bosqichda ko‘zda tutilgan mos ko‘rsatkichlarga muvofiqlik darajasi xizmat qiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini saqlab turish aylanish va sotish, foydalanish yoki iste’mol qilish bosqichlarida amalga oshiriladi. Mahsulot aylanishi va sotilishida sifatni saqlash va transportlash sifatlaridan yig‘iladi. Iste’molchi tomonidan foydalanish jarayonida mahsulot sifatiga kelganda, foydalanish va ta’mirlovchi hujjatlari, foydalanish va ta’mirlovchi jihozlari, ehtiyot qismlar va sarflanadigan materiallar sifatlariga hamda foydalanuvchi va ta’mirlovchi xodimlar malakasiga bog‘liq. Foydalanishda mahsulot sifatini baholash mezonini uning ko‘rsatkichlari ilova qilingan texnikaviy hujjatlarda qayd qilingan mos ko‘rsatkichlarga, ya’ni qondirishi zarur bo‘lgan amaliy ehtiyojlarga muvofiqligi darajasidir deb baholanadi.


Aytib o‘tilgan bosqichlar mahsulotning hayotiy siklini tashkil qiladi. Uning foydalanish bosqichidagi muddati har bir bosqichda erishilgan sifat darajasiga bog‘liq.

Mahsulot sifatiga ilmiy tadqiqotlar, konstruktorlik texnologik ishlanmalarda asos solinadi, foydalanishda esa ular ro‘yobga chiqadi.

Mahsulot sifatini joriy qilish, ta’minlash va saqlab turishning asosiy bosqichlarini tavsiflovchi “sifat sirtmog‘i” mavjud. Bu bosqichlarga:

– mahsulotga bo‘lgan talablar, mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini oldindan ko‘rish (marketing tadqiqotlari);

– ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlarini hisobiga oliy sifat darajasini shakllantirish, me’yoriy-texnikaviy hujjatlarni tayyorlash;



**3-rasm. Mahsulotning hayotiy sikli**

- ishlab chiqaruvchi korxonalar imkoniyatlarini tahlil qilish;
- sifatli xomashyo, material, jamlovchi buyumlar bilan moddiy-texnikaviy ta’minlash;
- ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, jihoz, uskuna va asboblarni ta’minlash;
- tegishli me’yoriy-texnikaviy hujjatlar va standartlarga muvofiq mahsulotni ishlab chiqarish;
- texnikaviy nazorat va sinash, tayyorlash sifatini baholash;
- tayyor mahsulotni sotish, mahsulotni saqlash, transportlash va sotish jarayonlarida uning sifatini saqlab qolish;
- tayyor mahsulotni montaj qilish va undan foydalanish, xizmat qilish va ta’minlash, sifatini ta’minlash, iste’molchi mahsulot sifatini baholash. Mahsulot hayotiy siklining oxirgi bosqichi uni foydalanishga tiklash (utilizatsiya) va qayta tiklangan moddalardan to’liq foydalanishdir.

Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida mamlakatimizni iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va rivojlanishda, dunyo bozorida ildam qatnashishda tovarlar sifatini ko‘tarib, ularni raqobatbardosh tovarlarga aylantirish eng dolzarb muammolardan biridir. Raqobat – bu erkin tadbirkorlikning ajralmas bir bo‘lagidir.

Tovarning sifati aynan raqobatbardoshlikni oshirishda va raqobatbardoshligini o'rganish murakkab bo'lib o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- tovarni sotish bozorini o'rganish;
- raqiblar haqida ma'lumotlar yig'ish;
- iste'molchilar talablarini o'rganish;
- raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish va bozorga sinov sotishlari bilan chiqish haqidagi

qaror.

Bu masalalarni hal qilish korxonada tovar raqobatbardoshligi darajasini baholashning o'zluksiz tizimini yaratishni talab qiladi.

Har qanday tovar bozorga chiqishi bilanoq o'z raqobat qobiliyatini yo'qota boshlaydi, bu jarayonni sekinlatish mumkin, bu iqtisodiy foyda va oldingi buyum raqobat qobiliyatini to'la yo'qotish paytigacha bozorga yangi tovar bilan chiqish imkoniyatini beradi.

Raqobat so'zi lotinchadan olingan bo'lib, maqsadga erishish uchun kurashishni bildiradi. Bozorda raqiblarning maqsadi xaridorni tovarni xarid qilishga jalb etishdan iborat.

Tovar raqobatbardoshligini asosiy sharti quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan xuddi shunday tovarga nisbatan eng katta yalpi foydali samaradan iborat:

$$K = R/S \longrightarrow \max,$$

bu yerda, R–tovarning foydali samarasi;

S–tovarni xarid qilish va foydalanishga oid xarajatlar (sotib olish xarajatlari).

Tovarning raqobatbardoshligini baholash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

– bozorni tahlil qilib, o'zimizning tovarimizga o'xshash namunasini topib olish;



– bizning tovar bilan solishtiriladigan tovarlardagi asosiy ko‘rsatkichlarni belgilash;

– o‘zimizning tovarimizdagi integral raqobatbardoshlik xususiyatini aniqlash.

P.S. Zavyalov fikricha, «Raqobatbardoshlik deganda, tovarning bozorda xaridorgirligini ta‘minlaydigan iste‘mol va qiymat tavsiflari majmuini, ya‘ni o‘xshash raqobatchi tovarlarni ayirboshlashga taklif katta bo‘lgan sharoitlarda xuddi shu tovarni pulga ayriboshlanish qobiliyatini tushunmoq lozim»<sup>4</sup>.

Xaridorning xarajatlari ikki qismdan tashkil topadi, uning bir qismini xarid xarajatlari (tovar narxi), ikkinchi qismini uni iste‘mol etish bilan bog‘liq xarajatlar tashkil etadi.

Raqobatbardoshlik keng tushuncha bo‘lib, unga ko‘plab omillar ta‘sir etadi.

Firmaning raqobatbardoshligi darajasini baholashda tarmoq bozorida raqobat ko‘rashi jadalligini belgilaydigan omillar tahlil uchun asos sifatida xizmat qiladi. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

1. Raqobatchi firmalar soni va ularning qiyosiy quvvati.
2. Raqiblar harakatlarining diversifikatsiyalashuvi darajasi.
3. Bozordagi talab hajmini o‘rganish.
4. Mahsulotni tabaqalashuvi darajasi.
5. Iste‘molchining bir ishlab chiqaruvchidan boshqasiga ko‘chish harakatlari.
6. Bozordan chiqib ketish to‘siqlari va ularning darajasi.
7. Bozorga kirib kelish va uning darajasi.
8. Yondash tarmoq bozorlaridagi vaziyat.
9. Raqiblar strategiyasidagi farqlar.
10. Ushbu bozorda raqobat uchun alohida sabablarning bo‘lishi, raqobat darajasi bozorning alohida bir jalb etuvchanlik yoki aksincha bezdiruvchanlik xususiyatlari bilan ham belgilanadi.

---

<sup>4</sup>Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing management. 12 th edition. 2010 by Pearson Education, Inc.p. 369-373.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida” gi Qonunida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

– bir-birining o‘rnini bosadigan tovarlar – o‘zining belgilangan vazifasi, qo‘llanilishi, sifat va texnik xususiyatlari, narxi hamda boshqa parametrlari bo‘yicha taqqoslanishi mumkin bo‘lgan shunday tovarlarki, ularni oluvchi iste‘mol qilish chog‘ida bir tovarni boshqasiga haqiqatan ham almashtiradi yoki almashtirishga tayyor bo‘ladi;

– insofsiz raqobat – xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo‘lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan yoxud ularning ishchanlik obro‘sigacha putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlari;

– iqtisodiy konsentratsiya – xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta‘sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni sodir etish;

– iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish – xo‘jalik yurituvchi subyektlar harakatlarini bunday xo‘jalik yurituvchi subyektlardan birortasi bilan ham bir shaxslar guruhiga kirmaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs bilan kelishib olish;

– kamsituvchi shartlar (sharoitlar) – tovar yoki moliya bozoriga kirish, tovarni ishlab chiqarish, iste‘mol qilish, olish, realizatsiya qilish, o‘zgacha tarzda boshqa shaxsga o‘tkazish shartlari (sharoitlari) bo‘lib, ular boshqa teng shartlarda (sharoitlarda) bitta yoki bir nechta xo‘jalik yurituvchi subyektni o‘zga xo‘jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) bilan taqqoslaganda teng bo‘lmagan holatga solib qo‘yadi;

– kelishib olingan harakatlar – tovar yoki moliya bozorida ikki yoki undan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektning bozorning mazkur ishtirokchilaridan har birining manfaatlarini qanoatlantiradigan va ulardan har

biriga oldindan ma'lum bo'lgan, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlari;

– moliya bozori – banklar hamda boshqa kredit, sug'urta va o'zga moliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatning, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari xizmatlarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida bunday xizmatni ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'ladi;

– noto'g'ri taqqoslash – raqobatchilar yoki boshqa shaxslar tomonidan tarqatiladigan, tovar yoki moliya bozorida ayrim xo'jalik yurituvchi subyektga afzalliklar yaratadigan yoxud xo'jalik yurituvchi subyektning (raqobatchini) yoki raqobatchi ishlab chiqargan tovarni yomonlovchi yolg'on, noaniq yoki buzib taqqoslash;

– raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi<sup>5</sup>.

J.J. Lamben raqobatli afzalliklarni ikkita keng kategoriyalarga guruhlaydi – tashqi va ichki raqobatli afzalliklar, ya'ni firma va tovarni raqobatdoshligini tavsiflovchi raqobatli afzalliklardir. Tashqi raqobatli afzallik tovarni «bozor kuchini ifodalaydi, ya'ni u bozorni imtiyozli raqobatchidagiga nisbatan yuqoriroq sotish narxlarini qabul qilishga majbur qila oladi va mavjud tovarlardan norozi bo'lgan xaridorlarning istaqlarini aniqlash va qondirishdagi afzalliklarga tayanadi. Ichki raqobatli afzallik firmaning ishlab chiqarish xarajatlari, raqobatchidan ko'ra kamroq tannarxga erishishga imkon beruvchi va ishlab chiqaruvchi uchun qiymat hosil qiluvchi tovarga asoslangan hamda

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni. //Xalq so'zi, 2012-yil, 6-yanvar.

sotish narxlarining bozor yoki raqobat tomonidan pasaytirilishiga ko‘proq darajada bardoshli qiluvchi yuqoriroq unumdorlik oqibatidir»<sup>6</sup>.

Tovarni jalb etuvchanligi va raqobatbardoshligini ifodalovchi omillar klassifikatsiyasi sxemasini zanjir ko‘rinishida ko‘rsatish mumkin: narx – sifat – servis – marketing muhiti.

Raqobatbardoshlik sifat va qiymat omillari bilan bog‘liqdir. Ular sifat, iqtisodiyot va marketing ko‘rsatkichlari yordami bilan to‘liq tavsiflanishi mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Sifat deganda nimani tushunasiz?
2. Sifat va sifatni boshqarish tushunchalar farqlari nimadan iborat?
3. Sifatni boshqarish sxemasini tahlili.
4. Korxonada mahsulot turlarini bayon qiling.
5. Sifatni oshirish g‘oyasi nimadan iborat?
6. Sifatni qanday xususiyatlari mavjud?

---

<sup>6</sup> Ламбен Ж.Ж. Стратегический маркетинг. М.: Прогресс, 2008, 164-бет.

## **II BOB. MAHSULOT SIFATI VA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGI**

### **2.1. Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya sifatida**

### **2.2. Mahsulot sifatini oshirishning obyektiv zarurati**

### **2.3. Mahsulot sifati ko‘rsatkichlari tizimi**

### **2.4. Firma faoliyati natijalariga sifatning ta’siri**

**Tayanch iboralar:** sifat, raqobat, sifat tizimi, sifatni boshqarish, sifat ko‘rsatkichlari.

### **2.1. Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya sifatida**

Ilk bor Aristotel tomonidan sifat kategoriyasi tavsiflab berilgan. Aristotel eramizdan IV asp avval “Metafizika” nomli asarida sifatni quyidagicha ta’riflaydi: “Sifat shunday turga mos alomatki, u bir mavjudlikni, uning turiga hosligini boshqa mavjudlikdan, huddi shu turga kiruvchidan ajratadi”, ya’ni “narsalarni taqqoslab baholashga oid xususiyatdir”.

“Shunday narsalar borki, o‘zining sifatiga qarab borlig‘ini tasdiqlaydi”, deb ta’riflaydi Gegel.

Bundan to‘rt asr ilgari ingliz geografi va tarixchi olimi P. Gaklyut barcha eksportyorlarga qarata “...sizning mahsulotlaringiz sifati ishonchliligi, boshidanoq sizning mahsulotingizga nisbatan ishonch uyg‘otadi, ammo o‘z vaqti bilan soxta va yolg‘on mahsulotlar bu ishonchni yo‘qotib, sizga va sizning mahsulotlaringizga nafrat hamda obro‘sizlanish keltiradi, shuni unutmang”, deb tavsiya etgandi. Sifatni: “Sifat – muhim belgi, xususiyat bo‘lib, bir predmetni ikkinchi predmetdan ajratish imkonini yaratadi”, “sifatlilik – sifati yaxshi, ehtiyojlarni qondiruvchi” deb sharhlash mumkin. Tovar (ish, xizmat) sifati – tadbirkorlik faoliyati foydaliligini belgilovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Demak, sifat bu – birinchi galda farq, ikkinchi galda ishonch, uchinchi galda baho, to‘rtinchi galda obro‘ni belgilaydi.

Demak, sifat murakkab iqtisodiy kategoriya bo‘lib, uni falsafa, ijtimoiy (ijtimoiy), texnikaviy, huquqiy va iqtisodiy tomonlardan qarash mumkin. Quyidagi jadvalda sifatning ta’riflarini ko‘rishimiz mumkin.

Sifat tushunchasining mazmuniga ko‘ra quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganish lozim.

**Birinchi davr.** 1920 – 1950-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda mahsulotning sifati deganda uning standart talabiga javob bera olishi tushunilgan. Bu davrda asosan mahsulotning texnik va huquqiy jihatlari-ga katta e’tibor berilganligidan dalolat beradi.

**Ikkinchi davr.** 1950 – 1970-yillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu davrda mahsulotning sifati deganda uning ko‘rsatkichlari bo‘yicha iste’molchilar talabini qondirish darajasi tushunilgan. Bu davrda asosiy mayoq sifatida mahsulotning iqtisodiy va huquqiy jihatlari-ga katta e’tibor berilgan.

**Uchinchi davr.** 1970 – 1980-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda iste’molchilar talabini narx ko‘rsatkichlari ham qondirilishi tushuniladi. Bu yerda asos sifatida mahsulotning iqtisodiy ko‘rsatkichlari qaraladi.

**To‘rtinchi davr.** Bu davr taxminan 1980 – 1990-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda sifat tushunchasi mahsulotning nafaqat iste’molchilar talabini to‘la qondirish, balki iste’molchining kutgan talablarini qon-dirish darajasida ham namoyon bo‘ladi. Bu yerda mayoq sifatida mahsulotning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari namoyon bo‘ladi.

**Beshinchi davr.** Ushbu davr 1990-yillardan oxirgi kunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, sifat tushunchasi nafaqat mahsulotning iste’molchilar ehtiyojlarini qondirishi, balki qanchalik darajada qondira olishi kabi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Sifat iqtisodiy kategoriyasiga bunday yondashuvlar ma’lum dara-jada xalqaro standartlarning ISO seriyasidagi 9000 larida ham o‘z aksini topgandir. ISO ning 9000 seriyasi korxonalar va tashkilotlarning sifat menejmenti tizimiga talablarni shakllantiradi. MS ISO 8602 – 94 standartida sifatning ta’rifi quyidagicha berilgan: “Sifat – obyektning o‘rnatilgan va kutilgan talablarni qondira olishi mumkin bo‘lgan

tasniflarining majmuidir”. MS ISO 9000:2005 bo‘yicha esa sifat – obyektning tasniflarining iste’molchilar talabini qanchalik darajada qondira olishi darajasi bilan ifodalanadi. Shu sababli bu yerda “sifat” terminiga “yomon”, “yaxshi”, “a’lo” kabi so‘zlar qo‘shib baholanadi.

## **2.2. Mahsulot sifatini oshirishning obyektiv zarurati**

Sifatni boshqarish har qanday boshqarish tizimida obyekt va boshqarish dasturi hamda boshqaruvchi ta’sirlar mavjud. Obyekt sifatini boshqarish tizimiga uning sifati bilan bog‘liq bo‘lgan hayotiy sikli har bir bosqichning jarayonlari kiradi. Boshqaruvchi ta’sirlar boshqarilayotgan jarayonning haqiqiy holati boshqarish dasturi joriy qilgan holat bilan qiyoslash asosida ishlab chiqiladi. Boshqarish dasturi sifatida mahsulot sifati ko‘rsatkichlari qiymatlarini belgilovchi me’yoriy hujjatlar va mahsulotni ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish, foydalanish yoki iste’mol qilishga bo‘lgan talablarni belgilaydigan texnikaviy hujjatlar xizmat qiladi.

Doimiy tarzda sifatni oshirish jarayonida ISO 9001 umumiy sifatni boshqarish tizimi talablariga mos tarzda barcha korxonalarda sifatni boshqarish orqali samaradorlikni ta’minlashga erishiladi<sup>7</sup>.

Boshqaruvchi ta’sirlar asosida sifatni boshqarish tizimida ikkita masalani yechishi mumkin:

– boshqarilayotgan jarayonni boshqarish dasturi joriy qilgan holatda saqlab turish, ya’ni ishlab chiqarish tizimini rejalashtirilgan sifat darajasida mahsulot chiqarishni ta’minlaydigan barqaror holatda saqlab turish;

– boshqarilayotgan jarayon holatini to‘g‘rilab turish, ya’ni ishlab chiqarish tizimini zamonaviylashtirilgan yoki yuqoriroq texnikaviy darajali va sifatli yangi mahsulot chiqarishni ta’minlaydigan yuqoriroq darajaga ko‘tarish.

---

<sup>7</sup>David Hoyle. ISO 9000 Quality systems Handbook. Fourth Edition. Oxford. 2001. ISBN 07506 4451 6. 172 page.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagi operatsiya (harakat) lardan iborat:

- sifatni boshqarish dasturlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni rejalashtirish;
- mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi har qanday boshqarilayotgan jarayon holati haqida axborot olish va uni tahlil qilish;
- sifatni boshqarishga oid qarorlar qabul qilish va obyektga qilinadigan boshqaruvchi ta'sirlarni tayyorlash;
- boshqaruvchi ta'sirlarni chiqarish;
- boshqaruvchi ta'sirlar yuzaga keltirgan mahsulot sifati ko'rsatkichlarining o'zgarishlari haqida axborot olish va uni tahlil qilish.

Mahsulot sifatining rejasi talablar tavsifi va hajmi (marketing tadqiqotlar) hamda aniq korxonalar (yoki korxonalar majmuasi) ning texnikaviy, iqtisodiy va tashkiliy imkoniyatlari asosida aniqlanadi.

Bu asosda ishlab chiqarishning konstruktorlik va texnologik tayyorgarligi, zaruriy miqdorda mahsulot chiqarish boshlanadi.

Mahsulot sifati haqida ma'lumot, odatda, bir necha kanallar orqali keladi (qaytma aloqa). Asosiy shaklda ikkita asosiy kanal ko'rsatilgan:

- birinchi kanal mahsulotni yaratish va ishlab chiqarish darajasida ishlaydi (ishlab chiqaruvchi korxonadagi sifat nazorati);
- ikkinchi kanal foydalanish doirasidagi mahsulot sifati haqida ma'lumotni uzatadi.

Mahsulotning haqiqiy sifati to'g'risidagi ma'lumot rejalashtirilgan sifat ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Qiyoslash natijalari bo'yicha sifatni saqlab turish yoki ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi turli omillar o'zgartirilishini nazarda tutadi. Bu omillarni *texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiylarga* ajratish mumkin.

*Texnikaviy omillar:* texnologik jihozlar, uskunalar, asbob-nazorat vositalari holati; dastlabki materiallar, xomashyo jamlovchi buyumlar sifati; texnikaviy hujjatlar va boshqalar holati va sifatidan iborat.



*Tashkiliy omillar guruhiga:*

- ishning muntazamligi va bir maromdaligi;
- jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash;
- material, jamlovchi buyumlar, uskunalar, asboblar, nazorat vositalari va texnikaviy hujjatlar bilan ta'minlanganlik;
- mehnatni ilmiy tashkil qilish; ishda ovqatlanish va dam olishni tashkil etish va boshqalar.

*Iqtisodiy omillar:* mehnatga haq to'lash shakli; ish haqiniing miqdori; yuqori sifatli mahsulot va ish uchun mukofotlash; yaroqsiz mahsulot uchun maoshdan chegirib qolish; mahsulot tannarxi va narxi; sifat darajasi va boshqalar.

*Ijtimoiy omillar guruhi:* kadrlarni tanlash, joylash va ish joyini o'zgartirish; malaka oshirishni tashkil qilish; ilmiy-texnikaviy ijod, ratsionallashtirish va ixtirochilik turar-joy, maishiy sharoitlar, jamoa-dagi o'zaro munosabatlar, psixologik iqlim va boshqalar.

**Mahsulot sifatini boshqarish mezonlari.** Har qanday boshqarish tizimi uning ishi samaraliligini aniqlovchi boshqarish mezonlariga egadir. Bizning misolimizda mahsulot sifati, yuqorida aytilgandek uning vazifasiga muvofiq ma'lum ehtiyojlarni qondirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Sifatni boshqarish masalasidan kelib chiqib, bu xususiyatlarni boshqarish mezonlaridek qabul qilish mumkin. Masalan, materiallar sarflanishini kamaytirish kerak bo'lsa, mezon sifatida mashinaning massasi qabul qilinadi. Ishonchlilikni oshirish kerak bo'lsa, mezon sifatida mashina to'xtab qolmasligi va boshqalar qabul qilinadi.

AQSH firmalarining xarakterli tomoni shuki, ular ishlab chiqarish-ning ayrim uchastkalarida tajribaviy to'garaklar tashkil qilishadi va ijobiy natijadan so'nggina uni keng ko'lamda joriy qila boshlaydilar.

AQSH da to'garak a'zolari ish vaqtida haftasiga bir marta 1 soat ichida yig'ilishadi, to'garakning ishlari esa ishdan tashqari paytda o'tkazilib, ularga oshirilgan stavkalarda haq to'lanadi.

Aksariyat hollarda AQSH firmalaridagi sifat to'garaklari 1,5–2 yil

mobaynida faoliyat yuritadilar, xolos. Bunga asosiy sabab firma rahbarlari tomonidan ularni butkul qo'llashning yo'qligi, to'garak a'zolarining qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq takliflarning qondira-vermasligi va o'qitish tizimining yetarli darajada mukammal emasligidadir. Shuning uchun hozirga kelib, ularga ma'lum talablar qo'yilishi kerakligini hayotning o'zi talab qilmoqda.

### **2.3. Mahsulot sifati ko'rsatkichlari tizimi**

Xizmatlarning sifati uning xususiyatlarini o'lchashga xizmat qiluvchi miqdor ko'rsatkichlarida ham baholanadi. Zamonaviy fan va amaliyot mahsulotlar sifatini baholashning miqdoriy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqqan bo'lib, bir vaqtning o'zida ular sifat ko'rsatkichi hamdir. Tovar va xizmatlar xususiyatlarining keng tarqalgan tavsifi sifat ko'rsatkichlariga mos keluvchi quyidagi guruhlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tovarning taalluqlilik ko'rsatkichlari;
- ishonchlilik ko'rsatkichlari;
- texnologik darajasi ko'rsatkichlari;
- standartlashtirish va unifikatsiyalash ko'rsatkichlari;
- ergonomik ko'rsatkichlari;
- estetik ko'rsatkichlari;
- transportabellik ko'rsatkichlari;
- huquqiy himoyalanganlik ko'rsatkichlari;
- ekologik ko'rsatkichlari;
- xavfsizlik ko'rsatkichlari.

Tovarning mo'ljallanganlik ko'rsatkichlari ulardan foydalanish orqali zaruriy samaraga erishishni va qo'llanish sohasini asoslaydi. Ishlab chiqarish-texnik maqsadlar uchun mo'ljallangan mahsulotlar uchun mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Mashina, asbobsozlik, elektrotexnika va boshqa ko'rsatkichlar mahsulotning mo'ljallanganligi bo'yicha nafli funksiyasini belgilab beradi.

Ushbu ko‘rsatkich baholanayotgan mahsulot yordamida qancha hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish mumkinligi yoki muayyan vaqt oralig‘ida qancha hajmdagi ishlab chiqarishga oid ish va xizmatlar ko‘rsatilishini belgilab beradi.

Ishonchlilik ko‘rsatkichlari. Ishonchlilik sanoat mahsulotining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Turli mahsulotlar ishlab chiqarishning murakkabligi va davomiyligi va bajariladigan funksiyalarning javobgarlik darajasi kundan-kunga ortib bormoqda. Funksiyalar qanchalik ko‘p mas‘uliyat talab etsa, ishonchlilikka talab shunchalik ortib borishi kerak. Mashina va qurilmalarda ishonchlilik darajasining etapli emasligi ularni ta‘mirlash va yaroqlilik darajasini saqlab turish uchun shuncha ko‘p xarajatlar talab etadi.

Mahsulotlarning ishonchliligi ko‘p hollarda ularning ekspluatatsiya shartlari (harorat, namlik, mexanik yuklanish, bosim, radiatsiya va boshqalar) ga ham bog‘liq.

Ishonchlilik – bu obyektning belgilangan vaqt oralig‘ida o‘zining barcha funksiyalarini belgilangan rejim, foydalanish shartlari, texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash, saqlash va tashish sharoitlarida saqlab qolish va bajara olish xususiyatidir.

Texnologik darajasi ko‘rsatkichlari mahsulot ishlab chiqarishda yuqori mehnat samaradorligini ta‘minlashi va samarali loyihaviy-texnologik yechimlarini o‘zida aks ettirib, mahsulotlarning ommaviy ishlab chiqarilishini, mehnat resurslari, xomashyo va materiallarning oqilona taqsimlanishi, vaqtni tejashi bilan tavsiflanadi.

Standartlashtirish va unifikatsiyalashganlik ko‘rsatkichlari – bu mahsulotning standartlar bilan ta‘minlanganligi, eng muhim elementlardan iborat holda unifikatsiyalashtirilganligi, shuningdek, boshqa mahsulotlarga nisbatan soddaligi bilan farqlanishidir. Mahsulotning barcha detallari standart, unifikatsiyalashgan va haqiqiy turlarga ajratiladi. Standart va unifikatsiyalashgan detallar ulushi qanchalik ko‘p bo‘lsa, mahsulot shunchalik yaxshi tayyorlangan va iste‘molchi uchun ham sifatli hisoblanadi.

Standartlashtirish va unifikatsiya tayyorlanayotgan mahsulot tarkibining oqilona tarzda soddalashtirilganligini va mukammal loyihalashtirilganligini ham ko‘zda tutadi.

Ergonomik ko‘rsatkichlar mahsulot, narsa va buyumning inson bilan o‘zaro munosabatida aks etib, uning gigiyenik, fiziologik, antropometrik va psixologik xususiyatlariga mos kelishi bilan ifodalanadi. Bunday ko‘rsatkichlarga, masalan, traktorni boshqarishning murakkabligini, muzlatkich tutqichining joylashuvi, xonadagi konditioner, velosiped rulining shakli va joylashuvi, korxonaning yoritilganlik darajasi, harorat, namlik, chang, shovqin, tebranish, is gazi va suv bug‘larining to‘planishi kabilarni keltirish mumkin.

Ergonomik ko‘rsatkichlar obyektning ergonomik talablarga mosligi, masalan, o‘lcham, shakl, rang, o‘zaro joylashuv kabilarni aniqlashda qo‘llaniladi.

Transportabellik ko‘rsatkichlari – mahsulotning bevosita tashishga qulayligi yoki iste‘molga loyiqligidir.

Huquqiy himoyalanganlik ko‘rsatkichlari mahsulotning patent bilan himoyalanganligi va patentlyanganligi bilan izohlanadi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlashda mahsulotlarning yangi texnik yechimlar, shuningdek, mamlakat, ishlab chiqaruvchi-mamlakat yoki ekspoyt qiluvchi mamlakatdagi patent bilan himoyalanganligi, sanoat namunasi va savdo belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi e‘tiborga olinadi.

Sanoat mahsulotlarining huquqiy himoyalanganlik ko‘rsatkichlari ikkita ko‘rsatkich bilan baholanadi: patent bilan himoyalanganlik (yoki patent qobiliyati) va patent sofligi.

Ekologik ko‘rsatkichlari mahsulotni iste‘mol qilish yoki ekspluatatsiya qilishda atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatish darajasi bilan tavsiflanadi. Tovarning ekologik darajasi – uning sifat darajasini belgilovchi muhim xususiyatlardan biridir. Mahsulot sifatini baholashda ekologik ko‘rsatkichlarni e‘tiborga olish undan foydalanish yoki ekspluatatsiya qilish jarayonida kimyoviy, mexanik, yorug‘lik, ovoz, biologik, radiatsiya va boshqa salbiy ta‘sirlarning atrof-muhitga ta‘sirini

o'rganishdan iborat. Ushbu omillarning salbiy ta'siri bois, ekologik ko'rsatkichlar mahsulot sifatini baholashda kiritilishi muhim hisoblanadi.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari insonlar yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mahsulotdan foydalanish yoki uni ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash, o'rnatish, saqlash, tashish jarayonida elektr, mexanik, issiqlik ta'siri, portlash, zaharli va portlovchi gazlarning hosil bo'lishi, akustik shovqin, radioaktiv nurlanishdan himoya qilishdir.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari insonlarni falokat sodir bo'lganda himoya qilish choralari va vositalaridan foydalanish, ekspluatatsiya davrida ruxsat berilmagan qoidalarni bajarishga qarshi choralarda o'z aksini topadi.

Xizmatlarning sifat yoki miqdori bilan ifodalanmaydigan ko'rsatkichlari L. Bepi, A. Papasupaman va V. Zeytaml tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, iste'molchilar xizmat turidan qat'i nazar eng oddiy mezonlardan foydalangan holda sifatni baholaydilar. Bu mezonlar quyidagilar:

- hammabopligi: xizmatlardan qulay joyda, vaqtda ortiqcha sa'y-harakatlarsiz va kutishlarsiz foydalana olish imkoniyatining mavjudligi;
- kommunikabelligi: xizmatlarning mijoz tushunadigan tilda aniq tavsiflanishi;
- ko'nikmaga ega ekanlik: xizmat ko'rsatuvchi xodimlar zarur bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;
- xushmuomalalik: xizmat ko'rsatuvchi xodim xushmuomala, hurmat ko'rsatuvchi va mehribon;
- ishonch bildiruvchi: kompaniya va uning xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga ishonish mumkin, chunki ular mijozlarning har qanday talablarini qondirishga tayyor;
- ishonchli: xizmatlar barqaror darajada va o'z vaqtida taqdim etiladi;

– hozirjavoblik: xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar hozirjavob va mijozlarning talabini qondirish uchun har qanday muammoga ijodiy yondashib hal etishga harakat qiladi;

– xavfsizlik: taqdim etilayotgan xizmatlar hech qanday xavf-xatar, tavakkalchilik yoki shubha uyg‘otmaydi;

– his etish: xizmatlarning his etish mumkin bo‘lgan komponentlari uning sifatini to‘g‘ri aks ettiradi;

– mijozni tushunish/bilish: xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar mijozni tushunishga, uning talab va zaruratlarini to‘g‘ri anglashga va ularning har biriga alohida e‘tibor qaratishga harakat qiladilar.

#### **2.4. Firma faoliyati natijalariga sifatning ta’siri**

Mahsulot sifati iste’molchilar uchun eng asosiy ko‘rsatkichlardir, Chunki sifat mahsulotning iste’mol xususiyatini belgilaydi. Bu yerda mahsulot sifatini oshishi uning hajmini oshishiga olib keladi, Shuningdek, mahsulot sifatini oshishi uchun nisbatan kam mablag‘ talab qilinadi. Iste’molchilar talabini qondirish degani. Bu tovarlar ishlab chiqarish uchun ehtiyoj bor degani bu o‘z navbatida korxonada bir me’yorda ishlashini ta’minlaydi va uni kelajagini belgilaydi.

Ko‘plab xorijiy firmalar yuksak natijalarga erishishida, asosan, sifatga jiddiy e‘tibor qaratdilar.

Sifatni boshqarish degan tushuncha deyarli yangi yo‘nalish bo‘lishiga qaramay, uning jadal rivojlanish davri bozor iqtisodiyoti davriga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda ko‘plab adabiyotlarda mahsulot sifatini boshqarish borasida yangicha talqin va targ‘ibotlar ko‘payib ularni taqqoslash va tahlil qilish lozim bo‘ladi.

**Mahsulot sifatini ta’minlash** ishlab chiqarish bosqichida amalga oshiriladi. Bu yerda mahsulot sifati mahsulotni tayyorlash me’yoriy-texnikaviy hujjatlar, jihozlar, uskuna va asboblari, olinadigan xomashyo, material va jamlovchi buyumlar sifati bilan aniqlanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini baholash mezonini sifatida amaldagi texnikaviy-

iqtisodiy ko‘rsatkichlar loyiha hujjatlarda, ya’ni birinchi bosqichda ko‘zda tutilgan mos ko‘rsatkichlarga muvofiqlik darajasi xizmat qiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini saqlab turish aylanish va sotish, foydalanish yoki iste’mol qilish bosqichlarida amalga oshiriladi. Mahsulot aylanishi va sotilishi sifatini saqlash va transportlash sifatlaridan yig‘iladi. Foydalanishdagi mahsulot sifatiga kelganda, u foydalanish va ta’mirlash hujjatlari, foydalanish va ta’mirlash jihozlari, ehtiyot qismlar va sarflanadigan materiallar sifatlariga hamda foydalanuvchi va ta’mirlovchi xodimlar malakasiga bog‘liq. Foydalanishda mahsulot sifatini baholash mezoni uning ko‘rsatkichlari ilova qilingan texnikaviy hujjatlarda qayd qilingan mos ko‘rsatkichlarga, ya’ni qondirishi zarur bo‘lgan amaliy ehtiyojlarga muvofiqligi darajasidir.

Mahsulot sifatiga ilmiy tadqiqotlar, konstruktorlik texnologik ishlanmalarga asos solinadi, foydalanishda esa ular ro‘yobga chiqadi.

Mahsulot sifatini joriy qilish, ta’minlash va saqlab turishning asosiy bosqichlarini tavsiflovchi “sifat sirtmog‘i” mavjud. Bu bosqichlarga:

- ✓ mahsulotga bo‘lgan talablar, mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini oldindan ko‘rish (marketing tadqiqotlari);
- ✓ ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlarini hisobiga oliy sifat darajasini shakllantirish, me’yoriy-texnikaviy hujjatlarni tayyorlash;
- ✓ ishlab chiqaruvchi korxonalar imkoniyatlarini tahlil qilish;
- ✓ sifatli xomashyo, material, jamlovchi buyumlar bilan moddiy-texnikaviy ta’minlash;
- ✓ ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, jihoz, uskuna va asboblarni ta’minlash;
- ✓ tegishli me’yoriy-texnikaviy hujjatlar va standartlarga muvofiq mahsulotni ishlab chiqarish;
- ✓ texnikaviy nazorat va sinash, tayyorlash sifatini baholash;
- ✓ tayyor mahsulotni sotish, mahsulotni saqlash, transportlash va sotish jarayonlarida uning sifatini saqlab qolish;

✓ tayyor mahsulotni montaj qilish va undan foydalanish, xizmat qilish va ta'mirlash, sifatini ta'minlash, iste'molchi mahsulot sifati bilan qoniqqanligi darajasini baholash.

Mahsulot hayotiy siklining oxirgi bosqichi uni foydalanishga tiklash (utilizatsiya) va qayta tiklangan moddalardan to'liq foydalanishdir.

**Sifat-boshqarish obykti.** Sifatni boshqarish nazariyasini ishlab chiqishga atoqli olimlar P.L. Chebishev, A.M. Lyapunov, I.G. Veneskiy, A.M. Dlin, U.A. Shuxart, E. Deming, A.Feygenbaumlar katta hissa qo'shganlar.

Sifatni boshqarish zamonaviy nazariyasi shundan kelib chiqadiki, sifatni boshqarish bo'yicha faoliyat mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin samarali bo'lishi mumkin emas, bu faoliyat mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Ishlab chiqarish jarayonidan oldingi mahsulot sifatini ta'minlovchi faoliyat ham muhimdir.

Sifat ko'pgina tasodifiy, mahalliy va subyektiv omillarning ta'siriga bog'liq. Bu omillar sifat darajasiga ko'rsatadigan ta'sirining oldini olish uchun **sifatni boshqarish tizimi** zarur. Bunda ayrim uyushmagan va tasodifiy harakatlar emas, balki sifatning tegishli darajasini saqlab turish maqsadida mahsulotni yaratish jarayoniga muntazam ta'sir qilish choralari majmuasi zarur.

Sifatni boshqarishda tizim, muhit, maqsad, dastur va boshqa tushunchalardan foydalanishi muqarrar.

Boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar ajratiladi. *Boshqariluvchi* tizim tashkilot (firma va boshqa tuzilmalar)ni boshqarishning turli darajalaridan iborat. *Boshqaruvchi* tizim sifat menejmentini yaratadi. Zamonaviy adabiyot va amaliyotda sifat menejmentining quyidagi konsepsiyalari qo'llanadi:

- sifat tizimi (Quality system);
- sifatni boshqarishga asoslangan, menejment tizimi (Quality Driven Management System);



- umumiy sifatni boshqarish (Total Quality Management);
- sifatni ta'minlash (Quality Assurance);
- sifatni boshqarish (Quality Control);
- sifatning statistik nazorati (Statistical Quality Control);
- sifatni ta'minlash tizimi (Quality Assurance System);
- mahsulotni kafolatlash (Product Assurance);
- umumiy ishlab chiqarish menejmenti (Total Manufacturing Management);
  - ilg'or ishlab chiqarish tajribasi (Good Manufacturing Practices);
  - ishlab chiqarish resurslarini boshqarish tizimi (Environmental Management System);
  - "biz bezovtamiz" tizimi (We Sage);
  - "ma'sul shaxslar bezovtaligi" tizimi (Responsible Sage);
  - atrof-muhitni muhofaza qilish doirasidagi umumiy sifat menejmenti (Environmental TQM);
  - ishlab chiqarishni umumiy ta'minlash (Total Manufacturing Assurance);
  - jarayonlar integrallashgan menejmenti (Integrated Process Management);
  - sifatni yaxshilash maqsadidagi menejment (Management for Quality Improvement);
  - sifat va unumdorlikni to'la (umumiy, total) boshqarish (Total Quality and Productivity Management);
  - integrallashgan sifat menejmenti (Integrated Management);
  - uzluksiz yaxshilashlarni tatbiq etish tizimi (Continues Improvement Implementation System);
  - sifatni to'la isloh qilish (Total Quality Transformation);
  - sifat tizimi menejmenti (Quality System Management).

Sifat menejmentining boshqa konsepsiyalari ham mavjud. Biz sifatni boshqarish obyektidek tushunish uchun zarur bo'lgan kichkina qismini keltirdik, xolos. Keltirilgan konsepsiyalar TQM uslubiyatida

sifatning turli muammolarini yechishda qo‘llanadigan turli usullar aslini aks ettiradi. Zamonaviy firmalarni boshqarishda TQM muhim ahamiyatga ega.

Boshqarish tizimi oliy bo‘g‘in rahbarlaridan boshlanadi. Aynan oliy bo‘g‘in rahbarlari firma oldingidan ko‘proqqa qodir degan strategiyadan kelib chiqishi kerak. Firmaning tashkiliy tuzilmasida sifatni boshqarish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiruvchi maxsus bo‘linmalar nazarda tutilishi mumkin. Sifatni boshqarish funksiyalari bo‘linmalar o‘rtasida taqsimlanishi firma faoliyati hajmi va xususiyatlariga bog‘liq.

Menejment obyekti bo‘lmish sifatga menejmentning barcha tarkibiy qismlari xos: *rejalashtirish, tahlil, nazorat*.

Zamonaviy sifat menejmenti sifatni boshqarish hamda konsultantlar dasturlari bo‘yicha xorijiy korporatsiyalar bajargan tadqiqotlar natijalariga asoslangan. Bu “Xyulett-Pakkard” kabi mashhur korporatsiyalar tajribasidir. 1980-yillarda bu va qator boshqa firmalar siyosatiga F.B. Krosbi, U.E. Deming, A.V. Feygenbaum, K. Isikava, Dj.M. Djuran ishlanmalari ta’sir qilgan.

Yetakchi firmalar faoliyatining asoslari quyidagilar bo‘lib qoldi:

- oliy bo‘g‘in rahbarlari manfaatdorligi;
- ish sifatini yaxshilash bo‘yicha kengash tashkil qilish;
- barcha rahbarlar tarkibini ishni yaxshilash jarayoniga jalb qilish;
- jamoa ishtirokini ta’minlash;
- individual ishtirokni ta’minlash;
- tizimlarni takomillashtiruvchi guruhlarni yaratish (jarayonlarni boshqaruvchi guruhlar);
- ta’minlovchilarni to‘laroq jalb qilish;
- boshqarish tizimlari ishlash sifatini ta’minlash;
- ishni yaxshilashning qisqa muddatli rejalari va uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- xizmatlarni tan olish tizimini yaratish.

Ayniqsa, boshqarish tizimlari ishlash sifatini ta’minlash yo‘nalishida to‘xtalib o‘tish kerak. Sifatni boshqarish bo‘yicha konsultantlar

sifat va ishonchlilikni boshqaruvchi xizmatlar harakat va resurslarini muammolarni aniqlash va xatolarni to'g'rilashga yo'naltirganlariga e'tibor berishgan.

Natijada, og'ishlar bo'yicha boshqarish tizimi shakllangan. Bu tizim xatolarga javob qaytargan, lekin profilaktik chora-tadbirlarga hamda ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan bo'linmalarga munosib baho bermagan. Sifatni ta'minlash firmaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini boshqaruvchi tizimlarga bog'liq degan xulosa chiqarilgan.

Sifat bo'yicha yetakchi konsultantlardan biri F. Krosbi rag'batlantirish tizimi muhimligiga e'tiborni jalb qildi. Xodimlar xizmatlarini tan olish va yuksak natijalarga erishishga qiziqtirish zamonaviy sifat menejmentining tarkibiy qismidir.

1951-yilda Deming mukofoti haqida nizom ishlab chiqildi va u umumiy sifatni boshqarish (TQM) modeli asosini yaratdi. U model ekspertlarning keng doirasidan tushadigan ma'lumotni muntazam tahlilini va sifatga yangicha qarashni nazarda tutadi. Deming mukofoti Yaponiya sifatiga erishishda katta rol o'ynadi. Keyinroq, 1987-yilda AQSH da Malkolm Baldriddj nomidagi mukofot ta'sis etildi. M. Baldriddj mukofoti modelining rivoji biznes natijalari va jamiyatga qilgan ta'sirni baholovchi Yevropa sifat mukofoti bo'ldi.

Shiddatli raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan firmalar sifat sohasidagi siyosatni shunday ifoda qilishadiki, u faqat taklif etilayotgan buyumlar yoki xizmatlar sifatlarigagina emas, balki har bir ishchi faoliyatiga dahldor bo'lishi kerak. Siyosatda aniq firma uchun ish sifati standartlari darajasi va sifatni ta'minlash tizimlarining jihatlari aniq belgilanadi. Bunda berilgan sifatli mahsulot iste'molchiga ma'lum muddatlarda, ma'lum hajmda va maqbul narxda yetkazib berilishi kerak.

Bugungi kunda sifatni boshqarishda mahsulot sifati yuqori barqarorligi va turg'unligi kafolati bo'lgan sifat menejmentining sertifikatlashtirilgan tizimi muhim ahamiyatga ega. Sifat tizimining sertifikati

firmaga bozorda raqobat ustunligini saqlab qolish imkonini beradi.

**Nazorat va mulohaza uchun savollar:**

1. Tovar qanday vosita sifatida ta'riflanadi?
2. Sifat samaradorligini aytib bering.
3. Samaradorlik deganda nimani tushunasiz?
4. Mahsulot sifati qanday?

### **III BOB. SIFATINI BOSHQARISHDA CHET DAVLATLAR TAJRIBASI**

**3.1. MDH davlatlarida sifatni boshqarishga tizimli yondashuv**

**3.2. Umumjahon sifatni boshqarish tushunchasi**

**3.3. Sifatni boshqarishning AQSH tajribasi**

**3.4. Sifatni boshqarishning Yevropa tajribasi**

**3.5. Sifatni boshqarishning Yaponiya tajribasi**

#### **3.1. MDH davlatlarida sifatni boshqarishga tizimli yondashuv**

MDH mamlakatlarining tizimli, integratsiyalashgan sifat menejmenti Sovet Ittifoqi davridan boshlandi. Keyin bir qator mahalliy tizimlar ishlab chiqilgan. Ular orasida:

Saratov mahsulotlarni nuqsonsiz ishlab chiqarish tizimi (бездефектного изготовления продукции (БИП));

- Yaroslavskiy ilmiy ishlarni tashkil etish Yaroslavskiy “Avto-dizel” uyushmasida tashkil etilgan motor resurslarini ko‘payishi bo‘yicha ishlarni amalga oshiruvchi ilmiy tashkilot (научная организация работ по увеличению моторесурса (НОРМ));

- Ribinskiy mehnat, ishlab chiqarish va boshqaruv ilmiy tashkiloti (научная организация труда, производства и управления (НОТПУ)),

- Ribinsk motorsozlik zavodida ishlab chiqilgan;

- Gorkiy tizimi “sifat, ishonchlilik, dastlabki mahsulotlardan olingan manba” (качество, надежность, ресурс первых изделий (КАНАРСПИ)).

Yuqoridagi tizimlar asosan harbiy-sanoat kompleksi korxonalarida, shuningdek, rejalashtirish va tarqatish tizimi sharoitida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda yaratilgan va undan standartga muvofiqlikda

foydalanilgan. Bundan tashqari, sovet ittifoqining ma'muriy buyruq-bozlik tizimida talab va taklif byudjetni rejalashtirish mavzusida bo'lgan xolos, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida hech qanday raqobat ham bo'lmagan. Shu sabablarga ko'ra sovet sifat tizimlari quyidagi kamchiliklarga ega edi:

- cheklangan doirada;
- iste'molchiga yo'naltirilganlikning yo'qligi;
- korxonalarining iqtisodiy manfaatdor emasligi;
- tizimga tizimsiz yondashish.

Zamonaviy sharoitda, milliy va jahon bozorlarida tobora kuchayib borayotgan raqobat tufayli, ishlab chiqarishning doimiy ravishda o'sib borayotgan murakkabligi, tashqi muhitning o'zgaruvchanligi va xilmaxilligi, manfaatdor tomonlarning ta'siri tobora ortib borayotgani, MDH mamlakatlaridagi korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish va qo'llab-quvvatlash nihoyatda zarur ahamiyat kasb etib bormoqda.

MDH mamlakatlarida sifatni boshqarish tizimlarini rivojlantirish zarurati, avvalambor, yuqori sifatni ta'minlash orqali mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, bu oxir-oqibat MDH mamlakatlari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

1991-yil dekabr oyida sovet osti hududidagi yangi mustaqil davlatlar birlashib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini (MDH) tashkil etdilar. Bugungi kunda MDH o'z safida 11 ta davlatni birlashtiradi:

1. Ozarbayjon Respublikasi
2. Rossiya Federatsiyasi
3. Armaniston Respublikasi
4. Tojikiston Respublikasi
5. Belorussiya Respublikasi
6. Turkmaniston Respublikasi
7. Qozog'iston Respublikasi
8. O'zbekiston Respublikasi

9. Qirg‘iziston Respublikasi

10. Ukraina Respublikasi

11. Moldova Respublikasi

Tashkil etilganidan buyon MDHda milliy iqtisodiyotlarni bir-lashtirish, MDH mamlakatlarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini ish-lab chiqish, joriy etish va sertifikatlash bo‘yicha faoliyatni faollashtirish bo‘yicha ishlar boshlandi.

Bugungi kunda bunday tizimlardan biri ISO 9001 ga muvofiq sifat menejmenti tizimidir. MDH mamlakatlarida sifatni boshqarish tizim-larini rivojlantirish zarurati, avvalambor, yuqori sifatni ta’minlash orqali mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, bu oxir-oqibat MDH mamlakatlari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

### **Rossiya Federatsiyasining sifat menejmenti sohasidagi tajribasi**

Rossiyada sifat menejmentining o‘ziga xos xususiyatlari harbiy-sanoat kompleksi (военно-промышленного комплекса (ВПК)) korxo-nalarida samarali sifat menejmenti tizimlari yaratilganligidan iborat edi. Harbiy-sanoat majmuasida yangi mahsulotlarni tadqiq qilish va loyiha-lash bosqichlarida sifatni ta’minlash usullari, nazorat jadvallari va maxsus standartlardan foydalangan holda statistik sifat nazorati keng tarqalgan. Harbiy-sanoat majmuasida KSUKP (комплексные системы управления качеством продукции, в том числе автоматизиро-ванные) mahsulot sifatini boshqarishning integratsiyalashgan tizimlari, shu jumladan, avtomatlashtirilgan tizimlar paydo bo‘ldi.

Sovet sanoatida sifat menejmentining integratsiyalashgan tizim-larini qo‘llash amaliyoti ularning ko‘plab kamchiliklarini aniqladi, bu esa raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga imkon bermadi. Ushbu kamchiliklarga quyidagilar kiradi:

– standartlashtirish va sifat menejmentidan keyingi sanoat va bosh tashkilotlar tomonidan uslubiy rahbarlikning zaifligi;

– sifat menejmenti tizimini yaratish va takomillashtirishda korxonalarahbarlarining passivligi;

– sifat menejmenti tizimlarini tashkil etishga rasmiy munosabat;

– sifatni boshqarish usullarida kadrlar tayyorlash rolini yetarlicha baholamaslik;

– sifat menejmenti bo'yicha ishlarni korxonaning birinchi rahbarlari emas, balki texnik nazorat bo'limlari boshqargan, bu esa "rejalashtirish" va "sifat uchun" ishlayotganda menejerlar va sifat nazorati bo'limi o'rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqargan;

– yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirishning yo'qligi;

– ishlab chiqarishni moddiy-texnikaviy, texnologik va metrologik ta'minlashning yetarli darajada emasligi.

Rossiya sifat menejmenti tizimlarining asosiy kamchiliklari iste'molchiga yo'naltirilmaganligini hisobga olish kerak. Biroq tajriba shuni ko'rsatadiki, aynan shunday tizimlar mahsulot sifatini boshqarishning samarali mexanizmini yaratish vositasi bo'lgan. Tizimni sifatli boshqarish masalasida bunday mexanizmning ma'lum maqsadlariga erishish uchun tuzilgan, o'zaro aloqa tizimining barcha elementlarining kelishilgan, o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan tashkiliy, iqtisodiy va boshqa komponentlar va aloqa vositalarida ko'rib chiqilishi kerak.

Rossiya Federatsiyasining davlat sifat menejmenti tizimi sifat tizimlarining xalqaro standartlarini hisobga olgan holda yaratilgan. Rossiya Federatsiyasida mahsulot sifati muammosini hal qilishni tartibga soluvchi bir qator asosiy qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Ushbu qonunlarga quyidagilar kiradi: "Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksi", "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun, "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonun, "O'lchovlar bir xilligini ta'minlash to'g'risida"gi qonun, "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonun qonunchilik bazasini



tashkil etadi. Ushbu qonunlar mahsulotlarning yuqori sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va davlat tashkilotlarining huquqlari, burch va majburiyatlarini belgilovchi qonunchilik bazasini tashkil etadi.

Faoliyat turlari nuqtai nazaridan Rossiya Federatsiyasida 2018-yilda yetakchi o'rinni mashina va uskunalar ishlab chiqaradigan korxonalar (489 korxonalar), ikkinchi o'rinda – metall buyumlar ishlab chiqaradigan korxonalar (354 korxonalar), uchinchisida – elektr va optik uskunalar ishlab chiqaradigan korxonalar (316 korxonalar) egallaydi.

### **Belorussiya Respublikasining sifatni boshqarish sohasidagi tajribasi**

Belorussiya Respublikasida tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ko'plab yondashuvlar TQM tamoyillariga asoslanadi. Zamonaviy yondashuvlarning ba'zilari allaqachon Belorussiya biznesida qo'llanilmoqda. Xususan, bular ISO 9000, sifat mukofotlari, benchmarking, o'z-o'zini baholash.

Belorussiya Respublikasi umummilliy miqyosda davlat sifat menejmenti tizimiga ega. Davlat sifat menejmentining asosiy maqsadi mamlakatning ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish asosida barcha turdagi mahsulotlar sifatini samarali takomillashtirishning doimiy yuqori sur'atlarini ta'minlashdan iborat. Mahsulot sifatini yaxshilash jamoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bevosita bog'liq.

So'nggi 10–15 yil ichida Belorussiya korxonalari rahbarlari va menejerlari iqtisodiyot va menejment sohasida nazariy ta'lim olish uchun o'quv jarayoniga faol qo'shilishdi. Ta'lim sohasi iqtisodiy bilimlarga bo'lgan talabning oshishiga yangi o'quv dasturlarining paydo bo'lishi bilan javob berdi. Iqtisodiyot fakultetlari Belorusiya Respublikasining deyarli barcha davlat universitetida paydo bo'ldi, deyarli

barcha xususiy universitetlar ham biznes uchun mutaxassislar tayyorlaydilar. Belorussiya iqtisodiyoti uchun menejerlarni tayyorlashda samarali vosita “Prezident dasturi” deb nomlanuvchi “Belorus Respublikasi milliy iqtisodiyoti uchun boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlash dasturi”dir. Belarus Respublikasida tayyorlov kursini tugatgan qatnashchilarga ixtisoslashtirilgan xorijiy korxonalarda 3 haftadan 3–4 oygacha davom etadigan amaliyot o‘tash uchun imkoniyat beriladi. 12 mamlakat va Yevropa Ittifoqining TACIS dasturi xorijiy stajirovkalarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etadi.

Belorusiya tashkilotlarida TQMni amalga oshirishning samarali strategiyasi sifatli mukofot modellaridan foydalanish bo‘ldi. Belorussiya sifat mukofoti Belorussiya Respublikasi hukumati tomonidan tashkil etilgan va 1997-yildan buyon mukofotlanib kelinmoqda. Ushbu mukofot Yevropa EFQM modeliga asoslangan. Mukofotning salohiyati juda katta, ammo bugungi kunda u hali to‘liq amalga oshirilmagan deb hisoblanadi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-yildan beri Iso 9001 bo‘yicha sertifikatlangan Belorus korxonalarini sonining ko‘payishi kuzatilmoqda. 8 yil davomida Belorus Respublikasida 16298 ta korxonalar sertifikatlandi. Shu bilan birga, yil davomida ISO 9001 talablariga muvofiqligi uchun sertifikatlangan korxonalarining ulushi ancha past bo‘lib qolmoqda (3% -4% darajasida).

Faoliyat turi bo‘yicha qurilish korxonalarini (2346 ta korxonalar) 2018-yilda Belorusiya Respublikasida yetakchi o‘rinni egallaydi, muhandislik xizmatlarini ko‘rsatadigan korxonalar (477 ta korxonalar) ikkinchi o‘rinni egallaydi va ishlab chiqaradigan korxonalar oziq-ovqat va ichimliklar (245 ta korxonalar) uchinchi o‘rinni egallaydi.

### **Qozog‘iston Respublikasining sifatni boshqarish sohasidagi tajribasi**

Qozog‘istonda sifat menejmenti tizimlarining rivojlanishi, MDHning boshqa mamlakatlarida bo‘lgani kabi, birinchi navbatda,

milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan va shu orqali amalga oshiriladi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, sifat menejmenti tizimlari bilan bog'liq barcha elementlarning muvofiqlashtirilgan, o'zaro bog'liq va interaktiv ishlashini ta'minlaydigan tashkiliy, iqtisodiy va boshqa imkoniyatlarni amalga oshiradi.

Qozog'iston Respublikasi mahsulot sifati va xavfsizligi muammosini hal qilishni tartibga soluvchi bir necha asosiy qonunlar va qonunosti hujjatlarini qabul qildi. Bularga, "iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunlar va "Qozog'iston Respublikasining fuqarolik kodeksi". Qozog'iston Respublikasi Bosh vazirining 6-fevral 2004-yildagi 28-sonli va 27-iyun 2006-yildagi 175-sonli buyruqlarini qabul qildi, Qozog'iston korxonalarining xalqaro standartlarga jadal o'tishi to'g'risida respublikada menejment sohasida xalqaro standartlarni amalga oshirish uchun zarur infratuzilma, me'yoriy-uslubiy baza yaratildi.

Sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish jarayoniga barcha davlat organlari, viloyatlar Akimatlari, oliy o'quv yurtlari jalb etiladi. Sifat menejmenti tizimi Olmaota, Olmaota viloyati akimatlari, shuningdek, Ostona va Ust-Kamenogorsk akimatlari tomonidan amalga oshirildi. Qozog'istonda sifat menejmenti tizimlarining rivojlanishi ma'lum maqsadlarga erishish uchun sifat menejmenti tizimining barcha elementlarining muvofiqlashtirilgan, o'zaro bog'liq va o'zaro ishlashini ta'minlaydigan tashkiliy, iqtisodiy va boshqa tarkibiy qismlar va aloqalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

2006-yil 9-oktyabrda Qozog'iston Respublikasi Prezidentining "Qozog'iston Respublikasi Prezidentining Altyn Sapa mukofoti uchun tanlov to'g'risida"gi 194-sonli Farmoni bilan Qozog'istonda Altyn Sapa mukofoti ta'sis etildi. Mukofot Qozog'istonning yangi iqtisodiyotini qurish, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va tovar va xizmatlar sifatini doimiy ravishda yaxshilash, mahalliy mahsulotlar sifatini oshirishga qaratilgan korxonalar va tashkilotlar faoliyatini faollashtirish, Qozog'iston bozorini yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirishga

hissa qo‘shish, aholi o‘rtasida sifat g‘oyasini ommalashtirish maqsadida tashkil etilgan. “Altin Sapa” boshqa har qanday milliy mukofot kabi Qozog‘iston kompaniyalari uchun qiyoslovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi, laureatlarning biznes jarayonlari esa boshqalar uchun etalonga aylanadi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, 2010-yildan boshlab Qozog‘istonda ISO 9001 bo‘yicha sertifikatlangan korxonalar soni ko‘paygan. 8 yil davomida Qozog‘iston Respublikasida 2305 korxonalar sertifikatlandi. Shu bilan birga, yil davomida ISO 9001 talablariga muvofiqligi uchun sertifikatlangan korxonalarning ulushi ancha past bo‘lib qolmoqda (4% – 5% darajasida).

Faoliyat turiga ko‘ra, Qozog‘iston Respublikasida 2018-yilda yetakchi o‘rinni muhandislik xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar (47 korxonalar), ikkinchi o‘rinda – transport va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar (46 korxonalar), uchinchi tashkilotda ta‘lim xizmatlari va qurilish tashkilotlarini (37 korxonalar) egallaydi.

### **3.2. Umumjahon sifatni boshqarish tushunchasi**

O‘tgan asrning boshlarida yuzaga kelgan Teylor g‘oyalarining o‘rnini sifatni boshqarishning yangi konsepsiya va tamoyillari egalladi. Ularning aksariyat qismi xalqaro standartlarda o‘z ifodasini topdi. Bunday konsepsiyalardan biri faoliyat, biznesni boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi bo‘lib, u ingliz tilidagi adabiyotlarda *Total Quality Management* (TQM) deb nomlanadi.

Hozirda dunyoda sifatni boshqarishning turli tizimlaridan foydalanilmoqda. Lekin bu tizimlar hozirda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ilg‘or xalqaro kompaniyalar tomonidan o‘zlashtirilgan sifatni tizimli boshqarishning sakkizta asosiy tamoyillariga asoslanib tashkil etilishi kerak. Bu tamoyillar sifatni boshqarish sohasidagi ISO 9000 seriyali xalqaro standartlarni yangilashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Birinchi tamoyil** – iste‘molchiga e‘tibor qilgan holda ish tutish.

Iste'molchilarning dididagi o'zgarishlarga tashkiliy, uslubiy va texnik jihatdan moslashish strategiyasini ishlab chiqish raqobatli bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan har bir tashkilot va korxonaga uchun hayotiy jihatdan muhim.

**Ikkinchi tamoyil** – boshqaruvning o'rni. Bunga ko'ra, rahbar sifatni boshqarishning barcha tamoyillariga tizimli yondashishi, ya'ni ularni o'zaro uyg'unlikda, aloqadorlikda tasavvur qilishi lozim. Bu esa sifatni boshqarish ishlarining muvaffaqiyatli yakunlanishiga xizmat qiladigan omillarni aniqlash va ularning yuzaga kelishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga asos bo'ladi.

**Uchinchi tamoyil** – ishchilarni jalb qilish. Bu TQMning asosiy qoidalaridan biri bo'lib, unga ko'ra har bir ishchi sifatni boshqarish faoliyatiga jalb qilingan bo'lishi kerak. Ularning har birida yaxshilanishga ichki ehtiyoj vujudga kelgandagina mazkur maqsadga erishish mumkin.

**To'rtinchi tamoyil** – jarayonli yondashuv va u bilan bog'langan **beshtinchi tamoyil** – boshqarishga tizimli yondashuv. Bu tamoyillarga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv o'zaro bog'langan jarayonlarning majmuidir. Har bir jarayonga o'zining kirish va chiqishi, "ta'minotchilari" va "iste'molchilari"ga ega bo'lgan tizim sifatida qaraladi. Ushbu tamoyillarga amal qilish natijasida qaror toptirilgan ierarxik tashkiliy tuzilmaga tayangan holda boshqaruvni amalga oshirishni ko'zlagan yondashuvlarda o'zgarishlar yasaladi. Yagona jarayonlarning tashkiliy jihatdan ajratilgan bo'linmalar tomonidan amalga oshirilishi oqibatida qiyinchiliklar va muammolar yuzaga kelishini amaliyot ko'rsatdi. Ularni bartaraf qilish yo'lida guruhli yondashuv ishlab chiqildi.

Shuningdek, ISO 9001 va QS – 9000 standartlarida shunday me'yor o'rin oldiki, unga ko'ra ta'minotchi yangi yoki takomillashgan mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash uchun turli bo'linmalardan mutaxassislar guruhini shakllantirish vazifasi qo'yildi. Bunday guruhlar konstruktorlar, texnologlar, sifat xizmati mutaxassislari hamda boshqa

xizmatlar bo'yicha mutaxassislarni o'z ichiga olishi zarur deb belgilandi.

**Oltinchi tamoyil** – doimiy yaxshilash. Yigirma yil avval sifat strategiyasi optimal sifat konsepsiyasiga asoslangan edi. Keyinchalik Yaponiya, so'ngra Amerika va Yevropa sanoati tajribasidan ma'lum bo'ldiki, yaxshilashning chegarasi bo'lmaydi, sifatni yaxshilash tadbirlari sistematik tashkil qilinishi va ularning o'zi boshqaruv tizimining tarkibiy qismiga, ya'ni tizimostiga aylantirilishi kerak.

**Yettinchi tamoyil** – ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish. Bu tamoyilni amalga oshirish asoslanmagan qarorlar qabul qilishdan voz kechishni targ'ib qiladi. Hisobot ma'lumotlarini to'plab, ularni tahlil qilish asosida qaror qabul qilish lozim. Shu maqsadda, bizning kunimizga kelib nazorat va tahlil qilishning, tartibga solishning statistik usullari ishlab chiqilgan va keng tarqalgan.

**Sakkizinchi tamoyil** – ta'minotchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar. Ushbu tamoyil nafaqat tashqi, balki ichki ta'minotchilarga nisbatan ham tatbiq qilinadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, sifatni boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi istalgan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat turini boshqarish konsepsiyasidir. U faqat ishlab chiqarish sohasiga taalluqli bo'lib qolmay, davlat va munitsipal boshqaruv, qurolli kuchlar va boshqa sohalarda ham muvaffaqiyatga erishishni kafolatlaydi. Shu nuqtai nazardan olganda sifatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslariga batafsilroq to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sifat – XXI asr bo'sag'asida raqobatning umumjahon maydoniga aylandi. Sifat narxdan muhimroq. Ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishi va shaxs ehtiyojlarining ta'sirida sifatning o'rni va ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda. Kun sayin madaniyat va ta'lim darajasining yuksalib borishi iste'molchilarni yanada nozik didli va talabchan qilmoqda.

Raqobatbardoshlikni ta'minlashda XX asrning 80-yillarida sifatga talablar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Jahon bozorida mahsulotlarni xarid qilayotgan iste'molchilarning 80 % dan ortig'i sifatni narxdan

ustun qo‘yimoqda. Ma’lumotlar sifat xarajatlarining umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining 15 – 25 % dan kam bo‘lmagan qismini tashkil qilganini ko‘rsatadi.

Kreditlash, sarmoya kiritish, imtiyozlar berish imkoniyatlari mahsulot sifati bilan bog‘langan. Masalan, Yevropaning bir qator davlatlarida shunday qonunlarga amal qilinadiki, ularga ko‘ra muayyan mahsulotlar sifat sertifikatisiz bozorga kiritilmaydi. Mazkur sertifikat mahsulot sifatining Xalqaro standartlashtirish tashkiloti – ISO standartlaridagi talablarga javob berishini tasdiqlaydi. Boshqa sertifikatlantirilmagan mahsulotlarning ikki barobar arzonga sotilishi shart qilib qo‘yilgan.

Sifatga bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy va texnik muammolar allaqachon tadqiqot predmetiga, ularni hal qilish yo‘llari fan tarmog‘iga aylangan.

### **3.3. Sifatni boshqarishning AQSH tajribasi**

Global iqtisodiyotda ikkinchi jahon urushidan so‘ng AQSHning yetakchiligi mustahkamlandi. Butun dunyoda Amerika tajribasi o‘rganildi va amaliyotda qo‘llanildi. 1953-yilda ingliz mutaxassislari AQSHda ishlab chiqarishni tashkil qilish yuzasidan keng qamrovli islohotlarni o‘tkazishgan. Biroq sifatni boshqarish sohasida ular oqilona statistik nazoratdan foydalanilayotganini qayd etdilar, xolos. Amerika korxonalari tanlanma kirish nazoratidan foydalanishgan va unga ko‘ra mahsulotlarning 98 % i yaroqli deb topilgan. Yaroqsiz mahsulotlar iste’molchi talablariga ko‘ra bepul almashtirib berilgan.

Amerikada sanoat inqilobi hunarmandchilikka nuqta qo‘ydi. Hunarmand ishlab chiqarishni boshidan oxirigacha nazorat qilar edi. U sifatni tekshirgan, xomashyoni sotib olgan, savdo qilgan va boshqaruv funksiyalarini bajargan. Bundan tashqari, u tayyor mahsulotni ham nazorat qilgan.

XIX asrda seriyali ishlab chiqarishga o‘tish natijasida yangi

turdagi ishchiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Fabrikalarda doimiy takrorlanuvchi operatsiyalarning muayyan ketma-ketligini bajaradigan ishchilarga zarurat yuzaga kelgan. Bunday ishchilardan yuqori tayyorgarlik darajasi va kasbiy ko'nikmalar talab qilinmagan. Boshqarish uslubi ishchining jihozlar, ish ko'nikmalariga ega bo'lmasligi, muloqot qilishga intilmasligi va mehnatga qiziqmasligiga asoslangan edi. Bu esa ishchilar va rahbarlar jamoasi o'rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan. Ishchi faqat o'ziga berilgan buyruqlarni bajargan. Agar u yomon ishchi bo'lsa, uni ishdan bo'shatishgan.

Amerikada bu tizim kam xarajatlar qilib ko'proq mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon bergan. Global sanoat salohiyatining katta qismi yo'q qilingan ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda hamma davlatlarda keng iste'mol mahsulotlarining yuqori tanqisligi yuzaga kelgan. AQSHning hududi to'pga tutilmagan yoki quruqlikdagi janglar maydoniga aylanmagan. Sobiq askarlarning uyiga qaytishi natijasida butun dunyoda ortgan ehtiyojlarni qondirish uchun AQSH sanoati tez o'sib, muzlatgichlar, televizorlar, avtomobillar va radiopriyomniklarni cheklanmagan miqdorda ishlab chiqara boshlagan. 40 – 50-yillarda Amerikada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati past edi. Faqat rejalashtirilgan hajmda mahsulot ishlab chiqarishga e'tibor berilgan.

Sifatning past darajasi oqibatida sarflanadigan katta xarajatlar AQSH sanoati uchun jiddiy muammoga aylangan. Namunaviy Amerika korxonasi barcha joriy xarajatlarining 20 – 25% i mahsulotlarning nuqsonlarini aniqlash va bartaraf qilishga sarflangan. Boshqacha aytganda, korxonada ishchilarining chorak qismi hech narsa ishlab chiqarishmagan – ular birinchi safar noto'g'ri bajarilgan ishlarni tuzatishgan. Agar bunga korxonadan chetga chiqqan va bozorga kelib tushgan nuqsonli buyumlarni ta'mirlash yoki almashtirib berish xarajatlarini qo'shadigan bo'lsak, u holda past darajadagi sifat oqibatida sarflanadigan umumiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining 30 va undan ko'p foizini tashkil qiladi.



AQSHning ko‘plab mutaxassisleri past sifatni Amerika mahsuloti uchun mehnat unumdorligi va uning raqobatbardoshligi o‘shining asosiy to‘sig‘i deb baholashgan.

Sifat darajasini oshirish yoki mag‘lub bo‘lish – Amerika sanoati uchun boshqa muqobil yo‘l bo‘lmagan. Sifat muammosini hal qilishda ko‘p hollarda Amerika mahsulotini raqobatchilardan himoya qiluvchi turli proteksionistik choralar: tariflar, kvotalar, to‘lovlari izlangan. Amerika tadbirkorlarining talabi bilan AQSH ma‘muriyati Amerikaning avtomobil, po‘lat, maishiy elektronika, mototsikllar va h.k. ishlab chiqaruvchilarini himoyalash yuzasidan proteksionistik choralar ko‘rgan. Mahsulot sifati asosiy maqsadga aylangan Amerikaning yetakchi kompaniyalarida ham sifatga iste‘molchilarning ehtiyojlarini qondirish yo‘li emas, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish vositasi sifatida qaralgan.

Shu bilan birga, AQSH firmalarining dadil fikrlovchi boshqaruvchilari Amerika mahsulotlarining sifatini oshirish zarurligini anglab yetdilar. Buning uchun quyidagilarni rivojlantirishga qaror qilingan: ishchilarni motivatsiyalash; sifat to‘garaklar; statistik nazorat qilish usullari; xizmatchilar va boshqaruvchilarning tafakkurini yuksaltirish; sifat xarajatlarini hisobga olish; sifatni oshirish dasturlari; moddiy rag‘batlantirish.

AQSH da 80-yillarning boshida sifatni boshqarish sifatni rejalashtirish bilan birgalikda olib borildi. Bu sifat xizmatining muhim yutug‘i bo‘ldi. Bunda ishlab chiqarishning ichki iste‘molchisiga yetarli darajada e‘tibor berilmagan – firmaning ichki ehtiyojlarini hisobga olmagan holda sifatni oshirish rejaları tuzilgan. Sifatni boshqarishning bunday jarayoni qo‘shimcha muammolarga olib kelgan.

Sifatni oshirish va nuqsonlarni aniqlash usuli sifatida korxonalarda bevosita ish joylarida o‘qitishning tashkil qilinishi 80-yillarga xos. Ta‘minotchilar ham o‘zlarining xodimlarini sifatga o‘qitishga harakat qilishgan. O‘sha davrda AQSHda E. Demingning ikkita kitobi: “Sifat, unumdorlik va raqobatbardoshlik” va “Inqirozdan chiqish” nashrdan

chiqqan. Bu monografiyalarda “14 qoida” nomi bilan tanilgan Demingning falsafasi o‘rin olgan bo‘lib, ular umumiy sifat (Total Quality)ning asosini tashkil qilgan.

AQSHda sifat muammosi teran anglay boshlangan. Amerika sanoatida resurslar, salohiyat, qadr-qimmat va yuqori ish haqi to‘lanadigan yuqori pog‘ona rahbariyati mavjud. Ishchilar va boshqaruvchilar o‘rtasidagi yangi munosabatlar AQSHda yangi texnik inqilobga zamin tayyorlaydi. Chunki mazkur munosabatlar yangi texnologiya, mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqishga sarflanadigan katta kapital qo‘yilmalar hamda mahsulot va ishning sifatini oshirish asosiga qurilgan.

AQSH mutaxassislari sifatni boshqarishga katta umidlar bildirishmoqda, chunki bu, ularning fikricha, rahbarlarning tafakkurini keskin o‘zgartirish, korporativ madaniyatni to‘liq qayta ko‘rib chiqish va Amerika mahsulotining sifatini uzluksiz oshirish yo‘llarini izlashga tashkilotning barcha pog‘onalarini doimiy safarbar qilishi kerak. Mashhur Amerika mutaxassisi A. Feygenbaumning ta‘rifiga ko‘ra, “sifat-yevangelizm emas, oqilonalashtirish taklifimas va shior ham emas, u hayot tarzidir”.

Yangi tendensiyalarga AQSHning o‘rta pog‘onadagi rahbarlari ko‘proq qarshilik ko‘rsatyaptilar. Ularning ko‘pchiligi uchun sifat yondashuviga asoslangan boshqaruv siyosati ularning nufuzi va hatto lavozimiga xavf tug‘diradi. Ishlab chiqarish ishchilari esa o‘z ishlarining sifati uchun mas‘uliyatni qabul qilishga tayyor.

Buyurtmachi (iste‘molchi)larning talablarini qondirish sifat sohasidagi inqilobning negizi hisoblanadi. Konveyerdagi har bir ishchi o‘zidan oldingi ishchi mahsulotlarining iste‘molchisi hisoblanadi. Shuning uchun, har bir ishchining vazifasi navbatdagi ishchini qoniqtirishdan iborat. Milliy mahsulot sifatini oshirish masalalariga qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tomonidan e‘tibor davlatning iqtisodiy rivojlanishidagi yangi yo‘nalishga aylandi. Sifatni oshirish uchun umummilliy kompaniyaning asosiy vazifalaridan biri –

“Eng avval – sifat!” shioriga amalda rioya qilish. Ushbu shior ostida sifatni nazorat qilish bo‘yicha Amerika jamiyati (SNAJ) tashabbusi bilan sifat oyliklari o‘tkaziladi. Mazkur jamiyat 1946-yilda tashkil topgan bo‘lib, davlatdagi yetakchi ilmiy-texnik jamiyatdir va hozirgi kunda 53 ming jamoaviy va shaxsiy a‘zolariga ega.

AQSH Kongressi mahsulot sifatini oshirish sohasida erishgan alohida yutuqlari uchun Malkolm Boldridj nomli milliy mukofotni ta‘sis etgan bo‘lib, bu mukofot har yili uchta eng yaxshi firmaga topshiriladi. Umumjahon sifat kuni deb belgilangan noyabrning ikkinchi choragida AQSH Prezidenti mukofotni taqdim qiladi.

Sifat sohasida Amerika tajribasini tahlil qilgan holda uning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini qayd qilamiz:

- matematik statistika usullari orqali mahsulot ishlab chiqarish;
- sifatini qattiq nazorat qilish;
- miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ishlab chiqarishni rejalashtirish jarayoniga e‘tibor berish, rejalar bajarilishining ma‘muriy nazorati;
- firmani boshqarishni takomillashtirish.

Mahsulot sifatini muntazam oshirishga qaratilgan choralar AQSH ning Yaponiyadan katta farqlar bilan ortda qolishini bartaraf etdi. Bu o‘z navbatida, yagona, global bozorga aylanayotgan jahon bozorida raqobat kurashini kuchaytirib yubordi.

AQSHda sifat to‘garaklaridagi tashkiliy guruhlariga quyiladigan talablar:

1. To‘garakda qatnashish ixtiyoriy bo‘lishi lozim. To‘garak a‘zolari va ularning rahbarlari hal qilinuvchi muammolarni o‘zlari tanlaydilar.

To‘garakda faqat ma‘muriyatga tegishli muammolar ko‘rilmaydi. To‘garakni tuzilishida muammolarni hal qilish prinsiplarini o‘rgandilar, bu o‘z navbatida to‘garakning kelgusidagi ishlarini muvaffaqiyatli bo‘lishiga asos bo‘ladi. To‘garak qatnashchilari ish vaqtida yig‘ilishadi (haftasiga 1 soat). Yig‘ilishning umumlashgan tartibi, ochish, yangi

a'zolarni qabul qilish, umumiy tavsifga ega bo'lgan yangiliklar va tashkiliy masalalar – 5 minut, to'garak ishining xaftalik yakuni – 5 minut, mahorat oshirishda yangiliklar va yangi materiallar o'rganish haqida – 5 minut, amaliy masalalarga qo'llanuvchi yangi o'zlashtirilgan bilimlar – 5 minut.

2. To'garak rahbarlari yetarli malakaga ega bo'lmog'i, ishonch qozonmoqligi va to'garakni boshqarishga ixtiyoriy roziliklarini bermog'i lozim. Ular firma boshliqlari va kasaba uyushmalari bilan aloqada bo'lishlari shart.

3. Hamma darajadagi mutaxassislar texnikaviy maslahatchilar sifat to'garagi ishiga yordam berishga majburdirlar, ularning iltimosiga binoan majlislarga qatnashishi ham mumkin.

4. Kichik va o'rta holdagi firmalar o'zlarining sifat to'garagi ishlarini muvofiqlashtiruvchi xodimiga ega bo'ladi, katta firmalarda esa bunday shaxslar va undan ortiqni tashkil etishi mumkin. Muvofiqlashtiruvchi xodim sifat to'garagi va to'garaklar orasida hamda rahbariyat o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi shaxsdir.

5. Firma tarkibidagi o'rta rahbarlar ustalar, texnologlar tomonidan doimiy himoya qilinadi.

6. Firmaning eng yuqori rahbariyati tomonidan sifat to'garaklarining rejalarini himoya qilish kafolatlanadi.

AQSH da o'z rejalariga ega bo'lgan 300 ta sifat to'garaklarida o'tkazilgan so'roqlash natijalari quyidagilarni ko'rsatadi. Sifat to'garagingining imkoniyatlari qanaqa degan savolga firmalar quyidagicha javob berishdi (foiz hisobiga):

- “chegasiz” – 0,
- “favqulotda samarador” – 37,
- “yaxshi, hamma vaqt emas” – 32,
- “yaxshi, lekin yutuq bundan ortiq bo'lishi mumkin edi” – 8,
- “juda chegarali, yutug'i esa kafolatsiz” – 1.

Sifat to'garaklarining samaradorligi haqidagi fikr juda e'tiborga sazovordir, so'ralganlardan 30 foizi har bir sarflangan dollar evaziga 1

dollardan 3 dollargacha oylik tariqasida, 10 foizi esa 4 dan 12 dollargacha olganliklarni aytdilar. So‘ralganlarning 48 foizi esa o‘zlarining bu masalada aniq ma‘lumotlari yo‘qligini ko‘rsatdi, faqatgina foizi esa bu harakatlar o‘zini-o‘zi oqlay olmaydi deb javob berdi.

### **3.4. Sifatni boshqarishning Yevropa tajribasi**

Sifatni boshqarishning Yevropa tajribasi. Agar AQSH va Yaponiyada ko‘p yillardan beri sifatni oshirish dasturlari amalga oshirilayotgan, sifat masalalari bo‘yicha faol siyosat olib borilayotgan, sifatni uzoq muddatli rejalashtirish bajarilayotgan bo‘lsa, Yevropada kamdan-kam istisnoli holatlarda sifatni boshqarish sifatni nazorat qilishdan ortda qolishda davom etgan.

1980-yillarda butun Yevropa bo‘ylab mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilashga intilish kuzatildi. ISO 9000 seriyasidagi standartlar asosida sifat tizimlari keng tatbiq qilindi. Bu sifat masalalarini yanada muhim o‘ringa olib chiqdi, yanada ishonchliroq ta‘minotlar va umuman, sifatning yanada barqaror darajasiga erishishni ta‘minladi.

G‘arbiy Yevropa davlatlari mahsulotlar va ish kuchining samarali ayirboshlanishini ta‘minlovchi yagona talab va tartiblarni ishlab chiqdilar, yagona Yevropa bozorini yaratishga tayyorgarlik ko‘rdilar.

Mintaqa miqyosida muvofiqlashtiruvchi maxsus birlashmalar yoki tashkilotlar bunday faoliyatda muhim o‘rin egallaydi. 1993-yil 1-yanvarda e‘tirof etilgan ochiq umumyevropa bozoriga tayyorgarlik jarayonida yagona standartlar, texnologik ko‘rsatmalarga yagona yondashuvlar ishlab chiqilgan, ISO 9000 seriyasidagi standartlar asosida yaratilgan sifat tizimlariga tayanilib milliy standartlar tuzilgan, ularning Yevropa analoglari – 29000 seriyasidagi

ENlar amaliyotga tatbiq qilingan. Bu standartlarga mos ravishda sifat tizimlarini sertifikatlash, EN 45000 seriyasidagi standartlarning talablariga muvofiqlikda sertifikatlashtirish bo‘yicha nufuzli Yevropa organini tuzishga alohida e‘tibor berilyapti. Keltirilgan standartlar

yuqori sifatning kafolatlariga aylanishi, millionlab iste'molchilarni past navli mahsulotlardan himoyalashi, ishlab chiqaruvchilarni sifat sohasidagi yangi yutuqlarga rag'batlantirishi kerak. Yevropa bozorining me'yorda faoliyat yuritishi uchun yetkazib berilayotgan mahsulot mustaqil tashkilot tomonidan sertifikatlangan bo'lishi kerak.

Mahsulotni sertifikatlashtirishdan tashqari uning sifatini nazorat qiluvchi va baholovchi sinov laboratoriyalari va ishchilar ham akkreditatsiyalanadi. Ular faoliyatining asosiy omili – iste'molchi talablarining qondirilishini nazorat qilish va mahsulot ishlab chiqaruvchilari va ta'minotchilari o'rtasidagi nizolarni hal qilish.

Firmalar mahsulot sifatini oshirish sohasida yanada intensiv siyosat olib boradilar, jarayonlar esa yanada qattiqroq nazoratga olinadi. Sifat Yevropa davlatlarining raqobatbardoshligini ta'minlash omiliga aylangan. Bunday strategiyani amalga oshirish uchun quyidagilar talab qilingan:

1. Yagona qonunchilik talablari (ko'rsatmalar).
2. Yagona standartlar.
3. Firmaning bozor talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun yagona tekshirish jarayonlari.

1985-yilda standartlarni muvofiqlashtirishning yangi g'oyasi qabul qilindi, xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Ayni paytda yagona talablarni bajarishda ISO 9000 va EN 29000 standartlariga asoslaniladi. Mahsulotlarni SE belgisi bilan tamg'alash joriy qilingan.

Sinovlar va sertifikatlashtirish bo'yicha Yevropa muvofiqlashtirish kengashi va sifat tizimlarini baholash va sertifikatlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi tashkil qilingan. Buyuk Britaniya, Shvetsariya, GFR, Avstriya, Daniya, Shvetsiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Yunoniston, Gollandiya, Belgiya, Finlyandiya, Norvegiya, Irlandiya va Italiyaning sertifikatlashtirish bo'yicha tashkilotlari ushbu qo'mitaga a'zo bo'lgan. Olib borilgan ishdan asosiy maqsad – kam xara-

jatlar bilan yagona Yevropa bozorining millionlab iste'molchilari talablarini to'liq qondirish. Yevropa bozori o'ziga a'zo bo'lishni ko'zlagan boshqa mamlakatlarning firmalariga jiddiy vazifalar yuklaydi.

Raqobat kurashiga bardosh berish uchun Yevropaning yirik firmalari mahsulot sifatini boshqarishning ilg'or shakl va usullarini tanlash uchun birlashadilar, ularni mahsulotning barqaror sifatini kafolatlash bilan bog'laydilar. U barqaror texnologiya, nazoratning metrologik vositalari va mahsulotni sinovdan o'tkazish, kadrlar tayyorlashning samarali tizimini o'z ichiga oladi. 1988-yilning sentyabrida G'arbiy Yevropaning 14 yirik firmalarining Prezidentlari sifatni boshqarishning Yevropa fondi (SBEF)ni tuzish to'g'risida shartnoma imzoladilar. SBEFning faoliyat sohasi:

1. Umumiy raqobatda ustunlikka erishish uchun sifatni yaratish jarayonini tezlashtirishda G'arbiy Yevropa kompaniyalarining rahbariyatlarini qo'llab-quvvatlash.

2. Sifatni yaxshilash va Yevropaning sifat madaniyatini mustahkamlash faoliyatida qatnashishda G'arbiy Yevropa hamjamiyatining barcha segmentlarini rag'batlantirish va ularga ko'maklashish.

SBEF sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti (SET) bilan hamkorlikda sifat bo'yicha Yevropa mukofotini ta'sis qildi. Bu mukofot eng yaxshi firmalarga 1992-yildan boshlab taqdim etib kelinmoqda. Sifat masalalarini hal qilishga Yevropa yondashuvining o'ziga xos xususiyatlari:

– sifatni baholash va tasdiqlash bilan bog'liq barcha ishlarni olib borish uchun qonunchilik asosi;

– milliy standartlarning talablari, qoidalar va sertifikatlash tartiblarini o'zaro muvofiqlashtirish;

– mahsulot va sifat tizimlarini sertifikatlash ishlarini olib borishga vakolatli milliy tashkilotlar infratuzilmasi va tarmog'ini yaratish, laboratoriyalarni akkreditatsiyalash, sifat bo'yicha mutaxassislarni ro'yxatga olish va h.k.

1975-yilda sifat sohasida yetakchilik almashingan. O'tmishda kam xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqargan, iqtisodiy inqiroz holatida

bo‘lgan, urushdan ziyon ko‘rgan, o‘zining tabiiy resurslariga ega bo‘lmagan, lekin sifat boshqaruvini tashkil qilishning noan’anaviy usullaridan foydalanish hisobiga davlat iqtisodiyoti va aholining turmush tarzini ko‘tarish bilan jiddiy shug‘ullangan davlatlar mahsulotning sifati bo‘yicha liderlarga aylandilar. Sifat miqdorlarda ifodalana boshlandi – 1985-yilda jahonda sotilayotgan mahsulotlarning yarmidan ko‘pi Yaponiya hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bunday mahsulotlar: fotokameralar (84%), kassetali videomagnitofonlar (84%), soatlar (82%), kalkulyatorlar (77%), yuqori chastotali oshxona pechkalari (71%), telefon apparatlari (66%), mototsikllar (55%), rangli televizorlar (53%) va boshqalar. Biroq 1991–1992-yillarda sifat sohasidagi yetakchi – Yaponiyada iqtisodiy inqiroz sodir bo‘lib, u sotuv hajmining o‘zgarishi va mahsulotlar raqobatbardoshligining pasayishiga olib keldi. Oqibatda Yaponiya, AQSH va Yevropaning sifat darajalari tenglashdi. Turli davlatlar tomonidan erishilgan sifat darajalarining bir-biriga yaqin kelishi ko‘p sabablar bilan izohlanadi. Asosiy sabablardan biri sifatni yaxshilash bo‘yicha ilg‘or ish tajribasini ijodiy ayirboshlash, yuqori sifatga erishish nazariyasi va amaliyotining evolyutsion rivojlanish yo‘lida insoniyat o‘zlashtirgan barcha yondashuvlar va usullarni uyg‘unlashtirish hisoblanadi.

Shu tarzda ishlab chiqilgan, barcha davlatlarning mutaxassislari tan olgan yagona yondashuvlar hozirda sifatni umumiy boshqarish (TQM) tamoyillari nomi bilan mashhur.

### **3.5. Sifatni boshqarishning Yaponiya tajribasi**

Yaponiya davlati dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ichida ajralib turadi. Bu yerda sifat to‘garagiga alohida e’tibor bilan karaydi. 60-yillar boshida Yaponiyada birinchi marta sifat to‘garagi vujudga keldi. Buning sababi bor, albatta, Yaponiya joylashishiga qarab aholisi zich yashaydigan geografik obyekt bo‘lib, o‘zining yer osti boyliklariga deyarli ega emas.



Yaponiyaning sifatni boshqarish tajribasi ish sifatini oshirish hech qachon tugamasligini ko'rsatadi. 1945-yilda Yaponiya vayron bo'lgan, sanoati to'liq ishdan chiqqan edi. Shuningdek, o'sha davrda Yaponiya texnikasi qoloq holatda bo'lgan. Zamonaviy radiotexnikada katta ahamiyatga ega bo'lgan Yaponiyada ishlab chiqarilgan kuchaytirgichlar uchun kichik chastotali transformator 250 gramm og'irlikda edi. Ayni vaqtda AQSH da bu apparat konstruksiyasining vazni atigi 30 gramm bo'lgan. Suv bilan to'yintirilgan Yaponiya transformatori 15 daqiqada ishdan chiqardi, Amerikaniki esa germetik qoplama bilan to'liq o'ralgan va suv o'tkazmaydi. Biroq 40-yillarning oxiri va 50-yillarning boshida sifatni boshqarish bo'yicha Amerikaning mashhur olimlari E. Deming va J. Juranning sabog'ini olgan yapon mutaxassislari bu bilimlardan Yaponiya sanoatida muvaffaqiyatli foydalana boshladilar.

Deming davri tatbiq qilindi. U mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish, sotish, tahlil qilish va sifat darajasini oshirish uchun o'zgarishlar – PDCA sikli “rejalashtirish – bajarish – tekshirish – tuzatish ta'sirlari” (“plan – do – check – action”)ni bog'langan. Texnologik jarayonni boshqarish uchun nazorat kartalari faol qo'llanilgan. Deming nomidagi mukofoti uning kitoblari, ma'ruzalari topshiriladigan mualliflik mukofoti sifatida ta'xis qilingan. Deming oltin medali alohida shaxs yoki korxonaga uchun 1951-yildan boshlab berib kelinmoqda. Bularning hammasi sifatni boshqarishdan rahbariyatning quroli sifatida foydalanishni ta'minladi. Yaponiyaning ilg'or firmalarida sifatni tizimli boshqarishning tamoyillari va kompleks yondashuvi bosqichma-bosqich tatbiq qilingan. Shunga o'xshash firmalarning tajribasi chuqur o'rganilmoqda, tahlil qilinyapti va ular AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlari bilan taqqoslanmoqda.

Sifatni boshqarishga Yaponiyaning yondashuvi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega, biroq qiyosiy tahlil uning nazariy qoidalari jahon tajribasi bilan umumiy xususiyatga egaligini ko'rsatmoqda. Bu konsepsiya to'liq va to'g'ri tatbiq qilingan ilg'or xorijiy firmalarning sifatni boshqarish tizimlari bir-biriga o'xshash, ularni qo'llash va rivojlantirish

mexanizmlarida ham umumiylik mavjud. Sifatni boshqarishga Yaponiya yondashuvining o‘ziga xos xususiyatlari:

1) barcha bo‘linmalarda mehnat jarayonlari va natijalarini doimiy takomillashtirish;

2) mahsulot sifatini emas, balki jarayonlar sifatini nazorat qilish;

3) nuqsonlarga yo‘l qo‘yilish ehtimolini bartaraf qilish;

4) oldingi operatsiyadan keyingisiga o‘tishda yuzaga keladigan muammolarni tadqiq va tahlil qilish;

5) “Sening iste’molching – keyingi ishlab chiqarish operatsiyasini bajaruvchi” tamoyilini ilgari surish;

6) bevosita ijrochining zimmasiga mehnat natijalarining sifati uchun javobgarlikni yuklash;

7) inson omilidan faol foydalanish, ishchi va xizmatchilarning ijodiy salohiyatini oshirish, “Yaxshi odamga yomon ishlash uyat” maqoliga rioya qilish.

“Yapon mo‘jizasi”ning asosiy g‘oyasi – har qanday sohada ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash. Firmalarda hisoblash va mikroprotsessor texnikasi, yangi materiallar, loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimlari, to‘liq kompyuterlashtirilgan statistik usullar keng tatbiq qilinmoqda. So‘nggi yillarda sifatni boshqarish tizimini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyati iste’molchi va ta’minotchilar bilan aloqalar tizimini uning tarkibiga kiritishdir. Sifatni navbatdagi oshirish muammosini hal qilish yo‘llarini firmalarning rahbarlari ta’minotchilar, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning bir-biriga ishonchi va hamkorligida ko‘radilar. Bunda xoh ta’minotchi yoki iste’molchi, xoh ishlab chiqaruvchida yuzaga kelgan kamchiliklarni aniqlash va ularni qisqa vaqtda bartaraf qilishni o‘zlari uchun mas’ul deb biladilar.

Buyurtmachi bilan uzoq muddat ishlovchi shaxsiy pudrat tarmoqlarini tashkil qilish amaliyoti e’tiborga loyiq. Hatto erkin raqobat sharoitlarida ham mazkur tamoyilning samara berishi Yaponiya firmalarida isbotlangan. Ushbu tamoyil pudratchilarning yillik tanlovini o‘tkazishga asoslangan G‘arb amaliyotiga nisbatan ustunliklarga ega.

Ta'minotchilarning shaxsiy tarmog'ini tuzish buyurtmachilarga ham jiddiy vazifalarni yuklaydi. Ular sifatni ta'minlashning amaldagi tizim-ostilari, mahsulot sifatining nazoratini yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash kabi ishlarda moliyaviy, texnik va tashkiliy yordam ko'rsatish orqali pudratchi korxonalar bilan bog'langan. Bu maqsadda mahsulot sifati sohasida ta'minotchi ishlarining holati, ishlab chiqarish imkoniyatlari, xodimlarni tayyorlash va o'qitishni o'rganish, yetkazib berilayotgan mahsulot sifatiga bog'liq bo'lgan boshqa tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ko'zda tutgan maxsus dasturlar ishlab chiqiladi.

Mahsulot sifatini oshirishning yo'llarini hamkorlikda izlashga asoslangan ta'minotchilar bilan o'zaro ishonch munosabatlari mavjud bo'lganda vaqt va vositalarni sezilarli darajada tejaydigan, ta'minotchi – firmadan kelayotgan materiallar va detallarning kirish nazoratini o'tkazish uchun kerak bo'lgan Yaponiyada keng tarqalgan o'zaro ishonch tizimiga o'tish mumkin. Yaponiya mutaxassislarining fikriga ko'ra, ishni majburiyatlar mantig'ini himoya qilishdan emas, balki ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdan boshlash, hamkorlikdagi izlanishlar, jamoaning qarorlariga tayanish kerak.

Xodimlarni o'qitish va tayyorlash sifat bo'yicha muvaffaqiyatli ish yuritishni kafolatlaydi. O'qitish jarayonini yuqori boshqaruv bo'g'ini-dan boshlash maqsadga muvofiq. Bu ishga mutaxassis-maslahatchilarni jalb qilish zarur. O'qitish jarayonida tushuntiriladigan sifat bo'yicha faoliyat haqidagi ma'lumotlar muayyan harakatlar va tavsiyalar bilan birgalikda olib borilishi kerak. Zarur maqsadlar (unumdorlikni oshirish, nuqsonlilik darajasini pasaytirish) asosida shaxsiy o'qitish dasturini tuzish afzalroq. Sifatni kompleks boshqarish g'oyasini tatbiq qilish va tarqatish bo'yicha liderlik kompaniyaning yuqori rahbariyatiga tegishli bo'lishi kerak. Bu qoida muvaffaqiyatning yagona asosi hisoblanadi.

So'nggi yillarda o'qitish eng ilg'or usullar asosida olib borilmoqda. Shaxsiy EHMLardan foydalangan holda sifat bo'yicha ishbilar-

monlik o‘yinlarini olib borish dasturlari ishlab chiqilgan. O‘rganuvchining o‘zi qaror qabul qiladi va tasavvuridagi korxonaning yuqori raqobatbardoshlikdagi mahsulotga erishishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga harakat qiladi. Ishchilarni o‘qitish ularning bevosita rahbarlari – masterlar, uchastka boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi. Masterlar, uchastkalar va sexlarning boshliqlarini o‘qitish 6 kunlik nazariy kurs va 4 oylik amaliy faoliyatdan iborat.

“Nissan Motor” kompaniyasida ish faoliyatining dastlabki 10 yilida o‘qitish ishlab chiqarishdan ajralgan holda amalga oshiriladi va bunga kamida 500 kun sarflanadi. Keyinchalik o‘qitish kechqurunlari va dam olish kunida bevosita ish joylarida davom etadi. Vaqti-vaqti bilan barcha toifadagi ishlayotganlar, shuningdek, rahbarlar attestatsiyadan o‘tkazilib, o‘qitish jarayoni yakunlanadi. Mos bo‘linmalarning rahbarlari mutaxassislar ishtirokida attestatsiyalashni o‘tkazadilar. Ishchilarning toifalariga mos ravishda attestatsiyadan o‘tkazish 3, 6 oy va 1 yilda bir marta olib boriladi. Bir qator mutaxassislar firmaning imtihonidan tashqari davlat imtihonini ham topshiradilar.

Masalan, “Tabay Espek” firmasida ishchilarning 75 % i Mehnat vazirligining davlat attestatsiyasidan o‘tishgan. Davlat attestatsiyasidan oldingi o‘qitish pullik va unga firma haq to‘laydi. Davlat attestatsiyasidan o‘tgan ishchining ish haqiga qo‘shimcha to‘lanadi. Attestatsiyadan o‘tkazish natijalari ish joylariga osib qo‘yiladi. Uch martagacha attestatsiyadan o‘tishga ruxsat beriladi. Uch marta attestatsiyadan o‘tmagan ishchi berilgan ish joyida kasbiy jihatdan ishga yaroqsiz hisoblanadi.

O‘qitishning juda muhim foydali samarasi bor: sifat odamlarning o‘z ishiga shaxsiy munosabatlarini yaxshi tomonga o‘zgartiradi. Sifatning 90 % i tarbiya, anglanganlik bilan va faqatning 10 % i bilimlar bilan tavsiflanadi, deb o‘ylashadi. O‘quv dasturlari atigi bu 10 % ni berishi mumkin, lekin ular ishchilarning sifatga munosabatini o‘zgartiruvchi kuch hisoblanib, bu munosabat keyinchalik rag‘batlantirishlar vositasida doimiy qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Sifat to‘garaklariga katta e‘tibor beriladi. To‘garaklar ixtiyoriy shakllantiriladi. To‘garaklarga qatnash va yig‘ilishlardagi faollik bilan sifatning ichki masalalarini hal qilishdagi ixtiyoriylik, mustaqillikda bevosita aloqa mavjudligini tadqiqotlar ko‘rsatdi. To‘garaklarning majlisini vaqtida o‘tkaziladigan noishlab chiqarish faoliyatining yagona turi. Majlislar har haftada o‘tkaziladi.

Agar to‘garaklar ishdan keyin to‘plansa, ishdan tashqari vaqt sifatida kompaniya qo‘shimcha haq to‘laydi. Sifat to‘garaklarining shiorlari: “Sifat korxonaning taqdirini hal qiladi”; “Bugun chiroyli ko‘ringan narsa ertaga eskiradi”; “Har daqiqada sifat haqida o‘yla”. Sifat to‘garaklarining sex va zavod konferensiyalari muntazam o‘tkaziladi. Yiliga ikki marta sifat to‘garaklarining konferensiyalari butun kompaniya miqyosida o‘tkaziladi. Sifat to‘garaklari vakillarining umumiyapon s‘ezdlari ham o‘tkaziladi. To‘garak Yaponiya olimlar va muhandislar birlashmasi (JUSE) da ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa va “Sifat ustasi va nazorati” jurnalida bu ma‘lumot chop etilgan bo‘lsa, u holda bunday to‘garak rasmiy tan olingan hisoblanadi.

Yaponiya korxonalarida xodimlar uchun “beshta nol” nomini olgan sifatni ta‘minlashda qatnashish dasturi ishlab chiqilgan. U qisqa qoidalar – maqollar ko‘rinishida shakllantirilgan: yaratmaslik (nuqsonlarning yuzaga kelishi uchun sharoit); yubormaslik (nuqsonli mahsulotni keyingi bosqichga); qabul qilmaslik (nuqsonli mahsulotni avvalgi bosqichdan); o‘zgartirmaslik (texnologik tartiblarni); takrorlamaslik (xatolarni). Bu qoidalar ishlab chiqarishni tayyorlash va ishlab chiqarish bosqichlari uchun detallashtirilgan hamda har bir ishchiga yetkazilgan. Shu tarzda, Yaponiyada sifatga munosabatning asosiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz: boshqaruv va texnologiya sohasida ilmiy ishlanmalarni keng tatbiq etish; ishlab chiqarishni boshqarish, tahlil etish va nazorat qilishning barcha operatsiyalarining yuqori kompyuterlashtirilganlik darajasi; insonning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish. Buning uchun ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish (sifat to‘garaklari), o‘zining firmasiga sodiqlik ruhida tarbiyalash, xodimlarni tizimli va har

tomonlama o'qitish choralari ko'riladi. Hududining taxminan 70 foizi tog'liklarni tashkil etgan bo'lib, sanoatining rivojlanishida o'zining xomashyosiga umid bog'lashi o'rinsiz bo'lar edi. Bu holda Yaponiya o'z xalqini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmas, sanoatni esa yetarli darajada rivojlanishiga erisholmasdi. Sanoat va energetika uchun tashqaridan keltiriladigan xomashyo tilla, qimmatbaho toshlar va eksport mahsulotlari bilan to'lanishi mumkin edi.

Yaponiya uchun tanlov yo'q edi: na tilla, na qimmatbaho tosh uning yer osti boyliklarida mavjud edi. Demak, eksport. Bundan boshqa yo'li yo'q. Xullas, Yaponiya og'ir sharoitlarga bardosh bera oladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga butun, hozirgi vaqtda Yaponiya dunyo eksportidagi mahsulotlarning 70 foizdan ortiq asosiy xiliga yetakchilik qilmoqda. Bularga dastgoxlar, optika asboblari, radiopriyomniklar, fotoappartlar, kemalar, yengil va yuk tashuvchi avtomobillar, televizorlar, videomagnitofonlar, orgtexnika mahsulotlari, soatlar, g'ildiraklar, sun'iy toladan bo'lgan matolar, po'lat taxtalar va boshqalar kiradi.

1962-yildan boshlab Yaponiyada "Ustalar va brigadalar uchun sifatni boshqarish" jurnali chiqa boshladi. Bundan maqsad jurnal sahifalarida bosilib chiqadigan materiallar va maqollar orqali sifatni boshqarish tizimidagi yangiliklarni ko'pchilikka, ayniqsa, ishchilarga o'z vaqtida yetkazish, ba'zi ko'rsatmalarni tushunarli bo'lishini ta'minlash. Bundan tashqari quyidagi muhim masalalarga jiddiy e'tibor berish belgilangan:

- sifat nazorati sohasida ishlaydigan xodimlarning malakasi va layoqatligini oshirish;
- sifat nazorati usullarini targ'ibot qilish;
- tinglovchilar uchun har bir sex miqiyosida, sifat to'garagi deb ataluvchi, sexlarda sifat nazoratini takomillashtirishga asos bo'luvchi to'garaklar tashkil qilish.

Natijada, Yaponiyadagi voqealar quyidagicha rivojlandi: 1967-yil, iyun oyida 10 mingga yaqin shunday to'garaklar qayd qilingan bo'lsa,

1969-yilda bu raqam mingni, 1979-yilning iyunida 100 mingni tashkil qilgan. 1987-yil mart oyida Yaponiyada sifat to‘garagi o‘zining 5 yilligini nishonladi. Bu davrga kelib sifat to‘garaklarining soni 50 mingni tashkil qilib, bu ko‘rsatkich har yili 10 mingga oshib bormoqda. Uning qatnashchilarining soni esa milliondan oshib ketdi. Shuni alohida aytish lozimki, Yaponiyadagi to‘garaklar o‘z oldiga ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish hisobiga mahsulot sifatini tubdan oshirishni maqsad qilib qo‘yishgan.

Yaponiya usulining yana bir xarakterli tarafi to‘garaklarning ishlarini muntazam ravishda olimlar va muhandislar ittifoqi tomonidan kuzatiladi, o‘rganiladi va tahlil qilinib boriladi. So‘nggi ma‘lumotlarga qaraganda, sifat to‘garaklarining 50 foizdan ortig‘i yuqori rahbarlarning tashabbusi orqali tashkil etiladi. To‘garak tashkilotchilarining maqsadiga ko‘ra quyidagi umumlashgan to‘garaklar tashkil qilingan:

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish (31,6 foiz), mahsulot sifatini yaxshilash (16,4 foiz), sifatga bo‘lgan xarajatlarni kamaytirish (13,8 foiz). Taxminan 38 foiz to‘garaklar bir yilda ikkita mavzuni, 16,5 foizi uchta mavzuni va taxminan 3 foizni 1 mavzuni ishlab chiqadi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Korxonalarda sifatni boshqarishga qanday tizimli yondashuv zarur?
2. Umumjahon sifatni boshqarish tushunchasi va uning mazmunini yoritib bering.
3. MDH davlatlarida sifatni boshqarishga tegishli qanday qonunosti hujjatlar qabul qilingan?
4. Sifatni boshqarishda AQSH tajribasi nimadan iborat?
5. Yevropa tajribasi AQSH va Yaponiya tajribasidan nimasi bilan farq qiladi?
5. Sifatni boshqarishning Yaponiya tajribasi nimadan iborat?

## **IV BOB. SIFATNI BOSHQARISHDA STANDARTLASHTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **4.1. Standartlashtirishning nazariy asoslari**

### **4.2. Standartlarni ishlab chiqish tamoyillari**

### **4.3. Davlat standartlash tizimi**

**Tayanch iboralar:** standartlashtirish asosida sifatni boshqarish, standartlashtirish tamoyillari, standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar, standartlashtirish to'g'risida qonun.

### **4.1. Standartlashtirishning nazariy asoslari**

“Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining 21 ming standartidan atigi 13 foizi mamlakatimizda joriy etilgan, xolos”<sup>8</sup>.

Real sektor korxonalarida xalqaro standartlar asosida yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarish tufayli imkon qadar ko'p daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalarga erishilayotganini ta'kidlash joiz.

2017 – 2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada, keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi, 2017-yil 16-yanvar.



mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi<sup>9</sup>.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 28-aprel kuni “O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligining faoliyatini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi<sup>10</sup>.

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining ustuvor vazifalari va yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

➤ mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni jadal joriy etish orqali ularning zamonaviy talablarga muvofiqligini ta‘minlash va tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish;

➤ mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini birinchi navbatda eksport qiluvchi korxonalarda keng joriy etish va sanoat mahsulotlarini xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashtirishni amalga oshirish;

➤ eksport qiluvchi korxonalariga mahsulotlarni sertifikatlashtirish masalalarida qulay sharoitlarni yaratish, milliy sertifikatlar va muvofiqlikni baholash ishlari natijalari asosiy eksport bozorlarida tan olinishiga yo‘naltirilgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish.

Standart – bu ko‘pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma‘lum sohalarida eng ma‘qul darajali tartiblashtirishga yo‘naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo‘lgan umumiy va takror qo‘llaniladigan qoidalar, umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me‘yoriy hujjatdir.

---

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. «Xalq so‘zi» g.// 08.02.2017-y. №28 (6722).

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 28-aprel kuni “O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligining faoliyatini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi Qarori. // «Xalq so‘zi» g. 29.04.2017-yil.

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak.

Standartlar darajasiga qarab, xalqaro, mintaqaviy davlatlararo, milliy va korxonada miqyosida faoliyat koʻrsatadi.

Bizni oʻrab turgan zaminda mahsulot va uni ishlab chiqarish jarayonlari bir-biri bilan bogʻliq holda rivojlanib, insonlarning yoʻlini toʻgʻri tanlashda standartlardan foydalanish zamon talabidir<sup>11</sup>.

Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga qoʻyish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlarini yaratish va oʻzlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va isteʼmolchi oʻrtasidagi munosabatlarni yaxshilashga yoʻnaltirilgan.

Standartlashtirish – mavjud yoki boʻlajak masalalarga nisbatan umumiy va koʻp marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali maʼlum sohada eng maʼqul darajada tartiblashtirishga yoʻnaltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyatdir.

Bu faoliyat standartlarni va texnikaviy talablarni ishlab chiqishda, nashr qilishda va tatbiq etishda namoyon boʻladi. Standartlashtirishning muhim natijalari odatda, mahsulot, jarayon va xizmatlarning belgilangan vazifaga mos kelishi, savdodagi toʻsiqlarni bartaraf qilish hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlikka koʻmaklashishda namoyon boʻladi. Odatda, standartlashtirish obyekti sifatida standartlashtiriladigan narsa (mahsulot, jarayon, xizmat) tushuniladi.

Standartlashtirish tizimi yangi buyumga oʻz vaqtida yuqori sifatli loyiha-konstruktorlik hujjatlar berish, korxonaning yangi mahsulotini berilgan sifat koʻrsatkichlariga asosan tayyorlashni va zarur boʻlsa mahsulotni ishlab chiqarishdan olib tashlashni belgilab beradi.

Standartlashtirish boʻyicha xalqaro, mintaqaviy, milliy standartlashtirish idoralari faoliyat olib borishadi.

---

<sup>11</sup> Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NW Washington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.

Xalqaro standartlashtirish faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishlari mumkin.

Mintaqaviy standartlashtirish deganda dunyo miqyosida birgina geografik yoki iqtisodiy mintaqasiga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin holda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan standartlashtirish tushuniladi.

Milliy standartlashtirish – bu muayyan bir mamlakat doirasida o'tkaziladigan standartlashtirish faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish buyicha ishlarni tashkil etish.

“Standartlashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq “O'zstandart” agentligi standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy qoidalarini, manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boradigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini belgilaydi.

“O'zstandart” agentligi, “Davarxitektqurilish” qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi o'z vakolatlari doirasida standartlashtirish ishlarini bajarishni boshqa tashkilotlarga topshirishga haqlidirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida” PF-6240-son Farmoniga asosan, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o'rinlarda – Texnik jihatdan tartibga solish agentligi) tashkil etildi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya sohalarida davlat siyosatini amalga oshiruvchi respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi “O'zstandart” agentligining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 24-apreldagi 348-sonli Qaroriga asosan, “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi”ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”, “Standartlashtirish to‘g‘risida”, “Metrologiya to‘g‘risida”, “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”, “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari hamda texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditatsiya sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy jihatdan amalga oshirilishini ta’minlash;

– standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditatsiyadan o‘tkazish, xalqaro standartlarni, shu jumladan, sifatni boshqarish tizimi bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash asosida mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshligini oshirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

– standartlashtirish, o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya tizimlarining faoliyatini va rivojlantirishini hamda mazkur sohalarda ilmiy-texnik axborotni tarqatish, shuningdek, ularning xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg‘unlashtirilishini ta’minlash;

– mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning sifati va xavfsizlik talablariga rioya qilinishi va iste’molchilar huquqlarini noto‘g‘ri o‘lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya sertifikatlashtirish va akkreditatsiya sohalarida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;

– mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni jadal joriy etish orqali ularning zamonaviy

talablarga muvofiqligini ta'minlash va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;

– mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini, birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarda keng joriy etish va mahsulotlarni texnik reglamentlar va standartlashtirishga doir normativ hujjatlar talablariga muvofiq sertifikatlashtirishni amalga oshirish;

– eksport qiluvchi korxonalarga mahsulotlarni sertifikatlashtirish masalalarida qulay sharoitlarni yaratish, xalqaro tashkilotlar bilan milliy sertifikatlar va muvofiqlikni baholash ishlari natijalari asosiy eksport bozorlarida tan olinishiga yo'naltirilgan hamkorlikni faollashtirish;

– texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish, sotiladigan mahsulotlar xavfsizligini tizimli nazorat qilishni ta'minlashda ularning samaradorligini oshirish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari turlarini kengaytirish;

– texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish;

– texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya masalalarida tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama ko'maklashish;

– texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning talablariga, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi va to'g'ri-ligi ta'minlanishi, majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi yuzasidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari huzurida tashkil etiladigan standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlarni standartlashtirishga doir normativ hujjatlar bilan belgilangan tartibda ta'minlash;

– standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning xalqaro talablar bilan zarur uyg‘unlashtirish darajasiga erishish.

“O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi” o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilikka ko‘ra bevosita va quyi tizim tashkilotlari orqali amalga oshiradi.

Standartlarni tasdiqlagan organlar standartlarga doir tarmoq axborot jamgarmalarini hosil qiladilar va yuritadilar hamda manfaatdor iste‘molchilarni xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar, O‘zbekiston Respublikasi standartlari, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlariga doir axborotlar bilan, shuningdek, standartlashtirish sohasidagi xalqaro shartnomalar, texnik-iqtisodiy hamda ijtimoiy axborot davlat klassifikatorlari, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalariga oid axborotlar bilan ta‘minlaydilar.

Standartlarni nashr qilish va qayta nashr etishni ularni tasdiqlagan organlar amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o‘tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko‘rsatadi.

Respublikada standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta‘minlashni:

– xalq xo‘jaligi tarmoqlarida – O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (“O‘zstandart” agentligi);

– qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan, loyihalash va konstruksiyalashda – O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi (“Davarxitektqurilish” qo‘mitasi);

– tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof-muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta‘sirlardan muhofaza qilish sohasida – O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi (Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi);

– tibbiy maqsadlardagi mahsulotlar, tibbiy texnika ashyolari, dori-darmonlar sohasida hamda respublika sanoati ishlab chiqarayotgan,

shuningdek, import bo'yicha respublikaga yetkazib berilayotgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradi.

Ushbu qonunga muvofiq davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida standartlar va texnik shartlarni (bundan buyon matnda "standartlar" deb yuritiladi), shuningdek, ushbu qonunni qo'llashga doir yo'riqnomalar va izohlarni ishlab chiqadilar, tasdiqlaydilar, nashr etadilar.

Xo'jalik faoliyati subyektlari standartlarning majburiy talablariga, standartlashtirishga taalluqli boshqa qonun hujjatlariga rioya etishi ustidan davlat nazoratini "O'zdavstandart agentligi", "Davarxitekt-qurilish" qo'mitasi, "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi va ularning hududiy organlari, shuningdek, boshqa maxsus vakil qilingan davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Idoraviy bo'ysunuvi va mulk shaklidan qat'i nazar xo'jalik faoliyati subyektlarining, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning mahsuloti, shu jumladan, sertifikatlashtirilgan mahsulot (ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish, foydalanish, ta'mirlash va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida) davlat nazorati obyekti hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyati subyektlari davlat nazoratini amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitni yaratishlari shart.

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini quyidagi organlar amalga oshiradilar:

– standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarniga yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori;

– standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari;

– standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning

yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha davlat inspektorlari.

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro standart talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya agentligi amalga oshiradi. Respublikada standartlashtirish tartibi bir xil turdagi mahsulotning har bir turi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan qayd etiladigan standartlashtirish qoidalariga muvofiq keluvchi tartibda amalga oshiriladi.

Standartlashtirish ta’rifi – haqiqatda amalga oshirilayotgan yoki potensial masalalarga nisbatan ko‘plab marta foydalanish uchun ma’lum shartlarni o‘rnatish orqali optimal darajada tartibga solishga erishishdir<sup>12</sup>.

Standartlashtirish va sifat samaradorligi iqtisodiy samaradorlikka olib keladi. Standartlar ko‘plab vazifalarni bajaradi. Iqtisodiyot masshtabining turli tumanligi aynan sifatning kafolati va xavfsizligi, mahsulot va uni ishlab chiqarish jarayonidagi axborotlarning to‘g‘ri berilayotganligiga bog‘liq<sup>13</sup>.

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan hamda jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Standartlar darajasiga qarab xalqaro, mintaqaviy, davlatlararo, milliy va korxonada miqyosida faoliyat yuritadi. Standartlar mahsulotni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga qo‘yish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatdagi turlarini yaratish va ularni o‘zlashtirishni tezlatishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste’molchi oralaridagi munosabatlarni yaxshilashga yo‘naltirilgan.

Standartlashtirish tizimi yangi buyumga o‘z vaqtida yuqori sifatli loyiha-konstruktorlik hujjatlarini berish, korxonaning yangi mahsulotini berilgan sifat ko‘rsatkichlariga asosan tayyorlashni va kerak bo‘lsa mahsulotni ishlab chiqarishdan olib tashlashni ta’minlaydi.

---

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. 28.12.1993-yil.

<sup>13</sup>Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NW Washington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.



Standartlashtirish mahsulot muomalada bo‘lganida va sotish bosqichlarida mahsulotni joylashtirishda yaxshi tartib va sharoitlar yaratishga, yuklashga va joylashtirishga, to‘g‘ri saqlashga, buyumni transportda tashish, tarqatish talablarini sotish tashkilotlariga belgilab beradi.

Standartlashtirishni texnika taraqqiyotida va ishlab chiqarishda eng ratsional joriy qilish – mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat xarajatlari va moddiy resuslar sarfini kamaytirishning ta’sirchan vositalaridan biri sifatida ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 1993-yilning 28-dekabrda metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha qabul qilingan qonunlar bilan bir qatorda, “Standartlashtirish haqida” qonun ham qabul qilindi. Bu qonun respublikamizda standartlashtirish sohasi va standartlashtirish tizimi uchun asosiy qonuniy asoslardan hisoblanadi.

Qonunning 2-moddasida standart so‘ziga ta’rif berilgan bo‘lib, unda ko‘pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqarilgan va ma’lum sohalarida eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo‘naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo‘lgan umumiy va takror qo‘llaniladigan qoidalar, umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me’yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Bugungi kunda standartlar, asosan fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakdir.

Mamlakat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining sifatini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Bosh davlat veterinariya boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini bosh davlat

inspeksiyasi, O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladi<sup>14</sup>.

O‘zbekiston standartlashtirish agentligi tomonidan quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

➤ oziq-ovqat mahsulotining har xil turlarini bir xil nomda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

➤ ayni bir turdagi oziq-ovqat mahsulotini bir xil yoki har xil nomlar bilan qayta-qayta ro‘yxatdan o‘tkazish;

➤ tarkibida giyohvandlik moddalari bo‘lgan oziq-ovqatlarni, ovqatga qo‘shiladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari, yembop qo‘shimchalar va biologik faol qo‘shimchalarni ro‘yxatdan o‘tkazish.

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi me‘yoriy hujjatlar qo‘llaniladi:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
- O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlari;
- tarmoq standartlari;
- texnik shartlar;
- korxonalar standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari;
- ma‘muriy-hududiy standartlar.

Davlat yagona va uzluksiz ta‘lim tizimida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat ta‘lim standartlari ishlab chiqiladi.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar jumlasiga, shuningdek, standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlari ham kiradi. Mazkur hujjatlarni ishlab chiqish va qo‘llash tartibi “O‘zstandart” tomonidan belgilanadi.

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek, xalqaro qoidalar va normalar

---

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 30.08.1997-y.

O‘zbekiston Respublikasi ishtirok etgan shartnoma yoki bitimlarga muvofiq qo‘llaniladi. Ushbu standartlar, qoidalar va normalarni respublika hududida qo‘llash tartibini “O‘zstandart” va davlat boshqaruvining boshqa organlari o‘z vakolatlari doirasida belgilaydilar. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to‘sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim.

Standartlashtirishga doir me‘yoriy hujjatlar vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslangan va O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to‘sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim. Me‘yoriy hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta‘minlash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo‘ljallangan, an‘anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo‘yiladi.

Iste‘molchilarga realizatsiya qilinadigan mahsulotga doir standartlar va ularga kiritilgan o‘zgartishlar “O‘zstandart” organlarida haq olmasdan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim. “O‘zstandart” organlarida ro‘yxatdan o‘tgan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar davlat axborot jamg‘armasini tashkil etadi.

Standartlarga mos holda mahsulotning atrof-muhit, aholining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga xavfsizligini ta‘minlash uchun, texnikaviy va axborot jihatdan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o‘zaro almashinuvchanligini, ularni nazorat qilish usullari birligi va tamg‘alash birligini ta‘minlash uchun standartlarda belgilanadigan talablar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa talablar davlat boshqaruv organlari, xo‘jalik faoliyati subyektlari rioya etish uchun majburiydir<sup>15</sup>.

---

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. 28.12.1993-yil.

## **4.2. Standartlarni ishlab chiqish tamoyillari**

Standartlarda mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va yetkazib berish shartnomasiga kiritilgan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o‘zga talablar ham belgilab qo‘yilishi mumkin. Import mahsulot, basharti u O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan standartlarning majburiy talablar qismiga muvofiqligi tasdiqlanmagan bo‘lsa, yetkazib berilishi va belgilangan maqsadda ishlatilishi mumkin emas.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan mahsulotni standartlashtirishga doir normativ hujjatlar sertifikatlashtirishni amalga oshirishda rioya etiladigan talablarni, shuningdek, ushbu talablarga muvofiqlikni nazorat qilish va sinash usullarini o‘z ichiga olishi lozim. Ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar mahsulotning mazkur turini sertifikatlashtirish tizimida belgilangan qoida va tartiblarga muvofiq qo‘llanilishi lozim.

Standartlashtirish ishlarining jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, standartlarning yuqori sifatli va samarali bo‘lishini ta‘minlash uchun ularning ishlab chiqish bosqichida quyidagi majburiy tamoyillarini bajarish shart:

1. Tizimlilik tamoyili – bunda texnik taraqqiyot va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining ortishi kishilarning mehnati, mehnat vositalari hamda mehnat predmetlarini birlashtiruvchi ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan sistemali yondoshuvni taqozo etadi. Bunda ko‘zlangan maqsadga maksimal samaradorlik va eng kam xarajatlar bilan erishishni ta‘minlaydigan o‘zaro bog‘langan elementlar to‘plamining faoliyati tushuniladi. Elementlar tizimining miqdoriy aloqalari tasodifiy bo‘lishi mumkin.

2. Standartlarni optimallashtirish va progressivlik tamoyilida – standartlar tomonidan o‘rnatilgan ko‘rsatkichlar, me‘yorlar, tavsiflar va shartlar fan, texnika va ishlab chiqarishning jahon darajasiga javob berishi kerak. Ular standartlashtirilayotgan obyektlarning rivojlanish yo‘nalishlarini e‘tiborga olishlari shart. Faqatgina mahsulotning yangi

sifat samaradorligini emas, balki eng kam sarf-xarajatlar bilan yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlashga ham asoslangan bo'lishi kerak.

3. Standartlashtirilayotgan mahsulotning bog'liqligini ta'minlash tamoyilida mahsulotlar ekspluatatsiya qilish ko'rsatkichlari bo'yicha bir-birining o'rnini bosishni ta'minlashga imkon beruvchi bu prinsip kompleks standartlashtirishda, shuningdek, mahsulotlarni standartlashtirishda, texnik shartlarni ishlab chiqishda asosiy o'rin tutadi.

4. Komplekslik va optimal chegaralanish tamoyilida standartlarni ishlab chiqishda standartlashtirishning yakuniy obyektiga ta'sir etuvchi barcha asosiy elementlarni e'tiborga olish kerak. Standartlashtirish ishlarini mehnat sarfini qisqartirish uchun asosiy obyektga unchalik ta'sir ko'rsatmaydigan omillar e'tiborga olinmaydi.

Standartlashtirishda moddiy va moddiy bo'lmagan o'zaro bog'langan elementlar kompleksiga talab va tavsiflar tizimi ko'rib chiqiladi.

Yuqori sifatli mahsulot olish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish shart-sharoitlarini yaratish uchun hayot siklining barcha bosqichlari: loyihalash, seriyali ishlab chiqarish, tayyor mahsulotni ekspluatatsiya qilishni qamrab oladigan ratsional standartlar tizimi zarurdir.

5. Standartlarni ishlab chiqishning ilmiy tadqiqot tamoyilida standartlarning loyihalarini tayyorlash va muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun faqatgina amaliy tajribani keng umumlashtirishgina emas, balki maxsus nazariy, eksperimental va tajriba konstruktorlik ishlarini ham amalga oshirish zarurdir. Bu tamoyil barcha standartlarga tegishlidir.

### **4.3. Davlat standartlash tizimi**

Davlat standartlashtirish tizimining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat yuritadi;

- respublikada standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiq-  
lashtirish va ta'minlashni;

- xalq xo'jaligi tarmoqlarida O'zbekiston standartlashtirish,  
metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi);

- qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan, loyihalash  
va konstruksiyalashda O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va  
qurilish qo'mitasi ("O'zDavlarxitektqurilish" qo'mitasi);

- tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof-  
muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish  
sohasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofa-  
za qilish qo'mitasi (Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mi-  
tasi);

- tibbiy maqsadlardagi mahsulotlar, tibbiy texnika ashyolari, dori-  
darmonlar sohasida hamda respublika sanoati ishlab chiqarayotgan,  
shuningdek import bo'yicha respublikaga yetkazib berilayotgan mahsu-  
lotlarda inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida –  
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi vazifalarni hal qilish uchun maxsus vakolat berilgan O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligi O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy organi hisoblanadi hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

"O'zstandart" agentligi tizimiga quyidagilar kiradi:

- Hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari.
- Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi hamda uning hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari.

- Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazi.
- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti.

- Milliy etalonlar markazi.
- Shtrixli kodlashtirish markazi.
- Axborot-ma'lumotlar markazi.
- Hududiy boshqarmalar ikki tomonlama bo'ysunadilar hamda agentlikka va tegishli mahalliy davlat hokimiyati organiga hisob beradilar<sup>16</sup>.

Bugungi kunda mamlakatimiz sanoat tarmoqlarida ISO xalqaro standartlarda belgilangan talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimi, bo'yicha sertifikatlashtirilgan korxonalarining o'sish dinamikasini tahli- liy ko'radigan bo'lsak, 2012-yilda jami 709 ta korxonada ISO xalqaro standartlarda belgilangan talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimi bo'yicha sertifikatlashtirilgan korxonalar mavjud bo'lsa, 01.01.2018-yil holatiga ko'ra o'sish tendensiyasi ta'minlanib, ularning 6457 taga yetdi. Bu holatni hozirgi kunda ijobiy deb baholasak bo'ladi, biroq respub- likamiz korxonalarining atigi 9 foizigina qamrab olingan.

## 1-jadval

### Xalqaro standartlarni joriy etishning maqsadli ko'rsatkichlari

№	Komplekslar nomi	Ishlab chiqiladigan standartlar soni				
		Jami	01.01.2017	01.01.2018	01.01.2019	01.01.2020
1	Qishloq xo'jaligi va qayta ishlash	71	36	19	7	9
2	Mashinasozlik	43	13	13	9	8
3	Ijtimoiy soha	10	2	3	3	2
4	Komunal va transport	7	2	2	2	1
5	YoEK(TEK)	28	14	7	5	2
6	Ta'lim, madaniyat va sport	9	4	1	2	2
7	AKT	6	2	2	1	1
<b>Jami:</b>		<b>174</b>	<b>76</b>	<b>42</b>	<b>21</b>	<b>35</b>

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. 28.12.1993-yil.

“O‘zstandart” agentligi tomonidan ISO xalqaro standartlarda belgilangan talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimi bo‘yicha sertifikatlashtirilgan korxonalarining standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlari fondi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra jami standartlar fondi 70406 tani tashkil etmoqda.

Xalqaro standartlarni joriy etishning maqsadli ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra 2020-yilga borib komplekslar bo‘yicha jami 35 xalqaro standartlar joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

Mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish ishlari bugungi kunda ham davom etmoqda. Ichki bozor va eksportga sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida 125 ta korxonada ISO-9001 xalqaro sifat standarti va 200 dan ortiq korxonada mahsulot xavfsizligining ISO-22000 xalqaro standarti joriy etilgan. Xorijiy va mahalliy investitsiyalar evaziga yangi korxonalar tashkil qilinib, mavjud quvvatlar izchil modernizatsiya qilinayotgani yutuqlar garovi bo‘lmoqda.

“O‘zstandart” agentligi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga va boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi. “O‘zstandart” agentligi o‘z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi<sup>17</sup>.

Ushbu agentlik mamlakatimizda standartlashtirish ishlarini belgilangan talab doirasida amalga oshirib kelmoqda.

**Iqtisodiy o‘shishga standartlarning ta’siri.** O‘shish tempi shuni taxmin qilish mumkinki, innovatsiya va texnik o‘zgarishlar, texnologik ilg‘or tajribalar ta’siri standartlarga bog‘liq<sup>18</sup>.

---

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida” gi qonuni. 28.12.1993-yil.

<sup>18</sup>Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NW Washington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.



Standartlar darajasiga qarab, xalqaro, mintaqaviy davlatlararo, milliy va korxonada miqiyosida faoliyat ko'rsatadi. Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqarish va uni ishlab chiqarishga qo'yish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlarini yaratish va o'zlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste'molchi oralari-dagi munosabatlarni yashirishga yo'naltirilgan.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Standartlar nima sababdan qo'llaniladi?
2. Standartlar qanday muammolarni hal etadilar?
3. Qanday standartlar tashkil qilinadi?
4. Standart ma'nosi nimadan iborat?
5. Standartlashtirish to'g'risidagi qonunning ahamiyati nimada?

## **V BOB. SIFATNI BOSHQARISH VA MAHSULOTLARNI XALQARO STANDARTLASHTIRISH TALABLARI**

### **5.1. Xalqaro standartlarni shakllanishi**

### **5.2. Xalqaro standartlarning xalqaro savdo va hamkorlikka ta'siri**

### **5.3. ISO-9001 seriyasidagi standartlar**

**Tayanch iboralar:** sifatni boshqarishda xalqaro standartlar, ISO-9001 sifat tizimi, ISO, MEK, SEN, SENELEK.

### **5.1. Xalqaro standartlarni shakllanishi**

Sanoat inqilobining boshlanishi va yuqori aniqlikdagi dastgohlar va almashtiriladigan qismlarga bo'lgan ehtiyoj bilan sanoat va savdoda standartlarni joriy etish juda muhim bo'ldi. Genri Maudsley 1800-yilda sanoatda birinchi amaliy vintni kesuvchi stanokni ishlab chiqdi. Bu birinchi marta vintli ip o'lchamlarini standartlashtirishga imkon berdi va gayka va murvatlarga almashtirilishini amaliy qo'llashga yul ochdi.

Maudsleyning ishi, shuningdek, boshqa muhandislarning hissasi sanoatni standartlashtirishning kam miqdorini amalga oshirdi; ba'zi kompaniyalarning ichki standartlari o'z sohalarida bir oz tarqaldi. XIX asrning oxiriga kelib, kompaniyalar o'rtasidagi standartlardagi farqlar savdoni tobora qiyinlashtirdi va keskinlashtirdi.

Muhandislik standartlari qo'mitasi 1901-yilda Londonda dunyodagi birinchi milliy standartlar organi sifatida tashkil etilgan. Keyinchalik u standartlashtirish ishlarini kengaytirdi va 1918-yilda Britaniya muhandislik standartlari assotsiatsiyasiga aylandi, 1929-yilda Qirollik Nizomini olgandan keyin 1931-yilda Britaniya Standartlari Instituti nomini qabul qildi. Milliy standartlar butun mamlakat bo'ylab universal tarzda qabul qilingan va bozorlar yanada oqilona va samarali harakat qilish, hamkorlik darajasini oshirish yaxshilandi.

Birinchi jahon urushidan keyin boshqa mamlakatlarda ham huddi shunday milliy organlar tashkil etildi. Germaniya Normung Instituti 1917-yilda Germaniyada tashkil etilgan bo'lsa, undan keyin uning hamkasblari Amerika Milliy Standartlar Instituti va Fransiyaning Standartlashtirish bo'yicha doimiy komissiyasi 1918-yilda tashkil etilgan.

Mintaqaviy darajada (masalan, Yevropa, Amerika, Afrika va h.k.) yoki submintaqaviy darajada (masalan, Merkosur, And hamjamiyati, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Afrika va boshqalar) bir nechta Mintaqaviy standartlashtirish tashkilotlari mavjud.

Yevropada uchta mintaqaviy standartlar tashkiloti yoki Yevropa standartlashtirish tashkilotlari (ESO) standartlashtirish bo'yicha Yevropa ittifoqi Nizomi tomonidan tan olingan CEN, CENELEC va ETSI hisoblanadi. CEN ko'p turdagi mahsulotlar, materiallar, xizmatlar va jarayonlar uchun standartlarni ishlab chiqadi. CEN qamrab olgan ayrim tarmoqlarga transport uskunalari va xizmatlari, kimyo, qurilish, iste'mol mahsulotlari, mudofaa va xavfsizlik, energiya, oziq-ovqat va ozuqa, sog'liqni saqlash va xavfsizlik, sog'liqni saqlash, raqamli sektor, mashinalar yoki xizmatlar kiradi. Elektrotexnika standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi (CENELEC) elektrotexnika sohasida standartlarni ishlab chiqadigan va Yevropadagi Xalqaro elektrotexnika komissiyasiga (IEC) mos keladigan Yevropa standartlashtirish tashkilotidir.

Birinchi zamonaviy xalqaro tashkilot (Hukumatlararo tashkilot) Xalqaro telegraf ittifoqi (hozirgi Xalqaro elektraloqa ittifoqi) 1865-yilda milliy telegraf tarmoqlarini ulash uchun xalqaro standartlarni belgilash uchun ikkita oldingi tashkilotning (Bern va Parij shartnomalari) birlashuvi sifatida o'xshash maqsadlarga ega bo'lgan, lekin cheklangan hududlarda tashkil etilgan. Yaratilganidan ko'p o'tmay radioaloqa paydo bo'lishi bilan XEI ishi tezda Telegraf aloqasini standartlashtirishdan tortib, umuman, telekommunikatsiya standartlarini ishlab chiqishgacha kengaydi.

## **5.2. Xalqaro standartlarning xalqaro savdo va hamkorlikka ta'siri**

Yevropa ittifoqining standartlashtirish sohasidagi faoliyati mazkur ittifoqni ta'sis etish to'g'risidagi Rim shartnomasining 100-moddasiga asoslanadi. Ushbu shartnoma Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarning huquqiy, ma'muriy qorolarini yaqinlashtirishni ko'zda tutadi.

Yevropa ittifoqining 1985-yil 7-maydagi "Texnik uyg'unlashtirish va sertifikatlashtirish sohasiga yangicha yondoshuv to'g'risida" gi qororida Yevropa ittifoqi kengashi quyidagi tamoyillarni belgilab berdi:

– Rim shartnomasining 100-moddasiga muvofiq direktivalar miqyosida asosiy xavfsizlik talablarini o'rnatish orqali huquqiy holatlarni uyg'unlashtirish cheklanadi. Bu holat mazkur mahsulot uchun Yevropa ittifoqi miqyosida erkin savdo sharoitlari ta'minlanishi zarurligini anglatadi;

– sanoat buyumlarini standartlashtiruvchi ma'sul organlarga texnologiyalarni rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda texnik reglamentlarni ishlab chiqish vazifasi yuklatiladi. Mazkur texnik reglamentlar direktivalarda belgilangan umumiy talablarga amal qilgan holdagina mahsulotni ishlab chiqarish zarurligini belgilab beradi;

– mazkur texnik reglamentlar majburiy xarakterga ega bo'lmaydi, faqat ixtiyoriy qo'llaniladigan standartlar hisoblanadi;

– biroq ma'muriyatga bir davrning o'zida uyg'unlashtirilgan standartlar asosida direktivalarda belgilangan umumiy talablar asosida mahsulotni muvofiqligini belgilash vazifasi yuklatiladi. Bu holat ishlab chiqaruvchida standartlarga muvofiq holda mahsulotni ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligini bildiradi. Shu bilan bir qatorda, ushbu holatda ishlab chiqaruvchiga mahsulotning direktivalarning umumiy talablariga muvofiqligini isbotlash vazifasi yuklatiladi.

ISO 9001:2000 standarti boshqa standartlarga ko'ra yuqori

baholanadi va u boshqa standartlar yaratilishining asosi hisoblanadi<sup>19</sup>.

AQSHda sertifikatlashtirish buyicha ishlarning huquqiy asosi bo‘lib turli xil turdagi mahsulotlarning xavfsizligi to‘g‘risidagi bir qator qonunlar hisoblanadi.

Ushbu qonunlarga asosan mahsulot milliy standartlar ta‘siri ostida bo‘lsa yoki mahsulot davlat tashkilotlari tomonidan xam ichki xam tashqi bozorlarda xarid qilinsa, mahsulotni sertifikatlashtirish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Bunday mahsulot federal me‘yoriy hujjatlarga muvofiqlikka tekshiriladi.

AQSHga import qilinayotgan tovarlar quyidagi holatlarda bojxona hududiga kiritilmaydi:

– iste‘mol tovarlari xavfsizligi bo‘yicha qoidalarga muvofiq kelmasa;

– zarur bo‘lgan sertifikatlar va belgilar mavjud bo‘lmasa yoki tovarlarning etiketkasi qonunning mos keladigan bo‘limlari talablariga muvofiq kelmasa.

AQSHning federal hukumati tovarlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha uchta asosiy toifadagi dasturni tasdiqlagan.

Birinchi toifadagi dasturlar ham yakka holda ham jamoat iste‘molida foydalanganda sog‘likka zarar yetkazadigan va xavfsizlikka tahdid qiladigan tovarlarni majburiy sertifikatlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Ikkinchi toifadagi dasturlar mahsulot namunalari yoki ishlab chiqarishni tekshirish yo‘li bilan ishlab chiqaruvchilarni har bir mahsulot birligini tekshirish zaruriyatidan ozod qiladi.

Uchinchi toifadagi dasturlar mahsulot sifati va ishlab chiqarish sharoitlarini obyektiv baholashni, ushbu mahsulotlar bilan savdo qilishning zaruriy sharti sifatida qaraydi.

Ikkinchi va uchinchi toifadagi dasturlar majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi.

*Birinchi toifadagi* dasturlar miqyosida ishlab chiqaruvchining

---

<sup>19</sup>Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NW Washington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.

tashabbusi bilan aviatsiya texnikasi, kemalar, doklar, avtomobillar, konteynerlar, shu jumladan, qishloq xo‘jalik mahsulotlari konteynerlari, magistral truboprovodlar sertifikatlanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmonlar xavfsizligi bo‘yicha boshqarmaning sertifikatlashtirish dasturlari faqat insonlar iste‘mol qiladigan emas, balki hayvonlar iste‘mol qiladigan mahsulotlarni sinovlarini o‘z ichiga oladi. Dori-darmonlar va tibbiyot texnikasi faqat xavfsizligi bo‘yicha emas, balki samaradorligi bo‘yicha ham sinab ko‘riladi.

*Ikkinchi toifadagi* dasturlar mudofaa Departamenti, transport Departamenti, savdo Departamenti, qishloq elektrlashtirish Boshqarmasi kabi davlat tashkilotlari tomonidan mahsulotlarni sertifikatlashtirishni ko‘zda tutadi.

Ushbu dasturlarga asosan agar mahsulot hukumat tashkilotlari tomonidan davlat mablag‘lari hisobiga qilinsa sertifikatlashtirish majburiy hisoblanadi.

Ikkinchi toifadagi dasturlarga asosan 1300 turdagi mahsulot sertifikatlashtirish sinovlaridan o‘tadi. Ushbu toifadagi dasturda avtomobil haydovchilarini mastlik darajasini aniqlash bo‘yicha asboblarni, qo‘l va motorlashtirilgan nogironlar aravachalarini sertifikatlashtirish dasturlari ko‘zda tutilgan.

*Uchinchi toifadagi* dasturlar ixtiyoriy hisoblanadi. Ular qishloq xo‘jalik Departamenti tomonidan tuxum, tabaka, mevalar, sabzavotlar, go‘sht (shu jumladan, parranda go‘sht), sut mahsulotlari, skipidar va kanifol hamda savdo Departamenti tomonidan baliq va mollyuskalar uchun ishlab chiqiladi.

### **5.3. ISO 9001 seriyasidagi standartlar**

Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqozo qildi. Shu maqsadda 1926-yili standartlashtirish milliy tashkilotlarning Xalqaro Assotsiatsiyasi (ISA) paydo bo‘ldi. ISA ning tarkibiga 20 mamlakat vakillari kirdi. 1938-yili Berlin shahrida standartlashtirish

bo'yicha Xalqaro syezd ochildi. Unda texnikaning turli sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalar tuzildi. 1939-yili boshlangan ikkinchi jahon urishi ISAning faoliyatini to'xtatib qo'ydi.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (International Standards Organization) 1946-yilda 25 ta mamlakatning milliy standartlash tashkilotlari tomonidan tashkil etildi hamda qisqacha ISO deb yuritila boshladi. Amalda bu tashkilot o'z faoliyatini 1947-yilda boshladi. Bu tashkilot tuzishda uning nomi barcha tillarda bir xilda nomlanishiga e'tibor bermadi. Tashkilotning nomini grekcha so'z "isos" – teng deb nomlanadi. Shu sababli xalqaro standartlash tashkiloti nomi qisqacha qilinib ISO deb nomladi.

1949-yilda ISO Jenevadagi kichik, xususiy uydagi ofislarga ko'chib o'tdi. 1950-yillarning boshlarida Markaziy Kotibiyatda 5 nafar xodim ishlar edi. 1955-yilda ISO a'zolari Stokgolmda 3-Bosh assambleyaga yig'ilishdi. 1955-yil boshida ISO 35 a'zo va 68 standartga ega (tavsiyalar deb ataladi). Genri Sent-Leger Bosh kotib.

Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida foliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda.

ISO tashkilotining faoliyat sohasi elektrotexnika va elektronikadan tashqari barcha sohalarni qamrab oladi. Elektrotexnika va elektronika sohasi bo'yicha ishlarni xalqaro elektrotexnika komissiyasi MES amalga oshiradi. ISO tashkiloti standartidan tashqari sertifikatsiyalash bilan ham shug'ullanadi. ISO tashkiloti tovar va xizmatlar bilan xalqaro ayirboshlashni ta'minlash texnikaviy va iqtisodiy sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha standartlash ishlarini amalga oshiradi.

Standartlashtirishning asosiy obyektlari va standartlar soni ISO tashkilotining manfaatlari ko'lamini belgilab beradi.

Mashinasozlik, kimyo, nometal materiallar, rudalar va metallar, axborot texnikasi, qishloq xo'jaligi, qurilish, maxsus texnika va boshqalar. Standartlarni ishlab chiqishda ISO tashkilot barcha manfaatdor tomonlarga, ya'ni mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchilarning, iste'molchilarning hukumat organlarining, ilmiy-texnikaviy va jamoat

tashkilotlarini manfaatlarini e'tiborga oladi.

Hozirgi kunda ISO tashkilotini tarkibiga 120 ta mamlakat o'zini milliy standartlash tashkilotlari bilan a'zo bo'lgan. Hammasi bo'lib, ISO tarkibiga 80 dan ortiq a'zo komitetlar kiradi.

A'zo komitetlardan tashqari a'zolikka da'vogar bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning standartlash tashkilotlari ham mavjuddir.

ISO tashkiloti rahbarlik va ishchi organlaridan iboratdir. Rahbar organlariga Bosh Assambleya (Oliy organ) kengash va texnik boshqaruv byurosidan iboratdir.

Ishchi organlariga texnik komitetlar quyi komitetlar va texnik maslahat guruhlarini kiradi. ISO tashkilotining kengashiga 7 ta komitet bo'ysunadi.

1. PLAKO – texnik buyro.
2. STAKO – standartlashning ilmiy tamoyillarini o'rganuvchi komitet.
3. KASKO – muvofiqlikni baholash komiteti.
4. INKO – ilmiy-texnikaviy axborot komiteti Bosh assambleya

ISO Kengashi.

- STAKO
- PLAKO
- KASKO
- INFKO
- DEVKO
- KOPOLKO
- REMKO:

- Ijro buyrosi;
- Markaziy kotibiyat;
- Texnik komitetlar;
- Quyi komitetlar;
- Ishchi guruhlar.

5. DEVKO – rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatuvchi tashkilot.

6. KOPOLKO – iste'molchilar manfaatlarini himoya qiluvchi



komitet.

7. REMKO – standart namunalari bo'yicha komitet.

ISO tashkilotining dunyodagi eng obro'-e'tiborli (avtoritet) adolatlili va mustaqil tashkilot bo'lib, xalqaro tashkilotlar orasida yuqori maqomga ega.

Xalqaro standartlashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash borasida rivojlangan davlatlarda asrlar mobaynida to'plangan tajribalarni o'rganish va ulardan korxonalarimizda foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish ilmiy ishimizning oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosida xalqaro standartlashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash borasidagi tajribalarni o'rganishga bag'ishlanadi. Birinchi xalqaro standartlashtirish milliy tashkiloti – Britaniya Assotsiatsiyasi (British Engineering Standards Association) 1901-yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918-y), Amerika qo'mitasi (1918-y.) va boshqalar tashkil topdi<sup>20</sup>.

Xalqaro standartlashtirish bo'yicha ushbu xalqaro tashkilot (International Standardts Organization) 1946-yilda 25 ta mamlakatning milliy standartlash tashkilotlari tomonidan tashkil etildi hamda qisqacha ISO deb yuritila boshladi. Amalda bu tashkilot o'z faoliyatini 1947-yilda boshladi. Bu tashkilotni tuzishda uning nomi barcha tillarda bir xilda nomlanishiga e'tibor bermadi. Tashkilotning nomini grekcha so'z "isos" – teng deb nomlanadi. Shu sababli xalqaro standartlash tashkiloti nomi qisqacha qilinib ISO deb nomlandi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib hamda rivoj topmoqda.

Xalqaro ISO tashkiloti standartlashdan tashqari sertifikatsiyalash bilan ham shug'ullanadi. ISO tashkiloti tovar va xizmatlar bilan xalqaro ayirboshlashni ta'minlash texnikaviy va iqtisodiy sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha standartlash ishlarini amalga oshiradi.

---


<sup>20</sup>Dj Xant, R. Kanter, D.Kots. Total Quality Menejment. London. 1999-y. 42 page.

Xalqaro standartlashtirishning asosiy obyektlari va standartlar soni ISO tashkilotining manfaatlari ko‘lamini belgilab beradi. Standartlarni ishlab chiqishda ISO tashkilot barcha manfaatdor tomonlarga, ya’ni mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchilarning, iste’molchilarning hukumat organlarining, ilmiy-texnikaviy va jamoat tashkilotlarini manfaatlarini e’tiborga oladi.

ISO tashkilotining rasmiy tillari – ingliz, rus, fransuz tillaridir. Hozirgi kunda ISO xalqaro standartlarini 70 foizi rus tiliga tarjima qilingan. ISO tashkilotining texnik ishlarida dunyoning turli xil mamlakatlaridan kelgan 30 mingdan ortiq ekspertlar faoliyat ko‘rsatishmoqda.

ISO – bu notijorat, nodavlat tashkilot bo‘lib, uning a‘zolari 167 mamlakatdan milliy standartlashtirish organlarining vakillari hisoblanadi.

Bosh Assambleya va Kengash ISO ning strategik maqsadlarini aniqlash bilan shug‘ullanadi. Belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan kundalik faoliyatni Markaziy Kotibiyat Bosh kotib rahbarligida (Jeneva, Shveysariya) boshqaradi. ISO 165 milliy a‘zoga ega.



**4-rasm. Xaritada a‘zo mamlakatlarning geografik taqsimoti vizual tarzda ko‘rsatilgan**

*ISO uchta a'zolik toifasiga ega:*

1. A'zo organlar har bir mamlakatda vakillik standartlari organi hisoblangan milliy organlardir. Bular ovoz berish huquqiga ega bo'lgan yagona ISO a'zolaridir.

2. Korrespondent a'zolar o'z standartlari tashkilotiga ega bo'lmagan mamlakatlardir. Ushbu a'zolar ISO ishi haqida ma'lumotga ega, ammo standartlarni e'lon qilishda qatnashmaydi.

3. Abonent a'zolari kichik iqtisodiyotga ega mamlakatlardir. Ular kamaytirilgan a'zolik to'lovlarini to'laydilar, ammo standartlarning rivojlanishiga rioya qilishlari mumkin.

ISO ning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – xalqaro miqyosdagi mahsulot almashinuvida va o'zaro yordamini yengillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishini rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun:

– dunyo ko'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni yengillashtirish uchun choralar ko'rish;

– xalqaro standartlarni ishlab chiqish va chop etish (agar har bir standart uchun uning faol tashkiliy va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab ovoz bersa va umumiy ovoz beruvchilarning to'rttadan uch qismi);

– o'z qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarining ishlari haqida axborotlar almashuvini tashkil qilish;

– sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutiladi.

### **ISO qanday moliyalashtiriladi?**

ISO a'zolari Markaziy Kotibiyatning joriy xarajatlarini qoplaydigan badal to'laydilar. To'lov tashkilotning har bir a'zosi tomonidan to'lanadi va mamlakat yalpi milliy daromadi va tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari asosida hisoblanadi. Markaziy kotibiyatning yana bir daromad manbai standartlarni sotishdir. Biroq ISO Markaziy kotibiyati

faoliyatini amalga oshirish xarajatlari butun ISO tizimini ishlatish xarajatlarining atigi beshdan bir qismini tashkil qiladi. Boshqa xarajatlar standartlar va texnik ishlarni ishlab chiqish bo'yicha maxsus loyihalar bilan bog'liq. Bu xarajatlarni qo'mita a'zolari va o'z mutaxassislarini ushbu ishda ishtirok etish va safar xarajatlarini to'lash uchun yuborayotgan korxonalar to'laydilar.

Skandinaviya davlatlari o'rtasidagi standartlashtirish tashkiloti 1952-yilda tashkil etilgan. Bu tashkilotning a'zolari bo'lib Daniya, Norvegiya, Finlyandiya va Shvetsiya hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar o'zlarining standartlashtirish bo'yicha milliy organlari hamda standartlashtirish masalalari bo'yicha shug'ullauvchi bir qator tashkilotlar bilan INSTA tashkilotining asosiy xususiyati shundan iboratki, bu tashkilot mintaqaviy umumskandinaviya standartlarini ishlab chiqmaydi<sup>21</sup>.

Bu holat shu bilan bog'liqki, ushbu mamlakatlarda tashqi savdo juda kuchli rivojlangan va ular o'z faoliyatlarida xalqaro standartlardan foydalanishadi. Daniya 70-yillar boshlarida milliy standartlarni ishlab chiqishdan to'liq voz kechdi va xalqaro normativ hujjatlarga o'tdi.

INSTA tashkiloti o'zining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilab olgan: Skandinaviya mamlakatlarining muvofiqlashtirilgan milliy standartlarini yaratish, milliy me'yoriy hujjatlardagi texnik talablarni ixchamlashtirish (unifikatsiya), takrorlashga yo'l qo'ymaslik uchun standartlashtirish bo'yicha ishlar to'g'risidagi axborotlar bilan ayirboshlash tashkil etildi. ISO, MEK va SEN tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan muvofiqlashtirilgan siyosatni olib borish.

Standartlarni muvofiqlashtirishda INSTA mutaxassislari «4 F» qoidasiga amal qilishadi:

1. Forbruker (iste'molchi);
2. Fabrikant (ishlab chiqaruvchi);
3. Forskrifter (xavfsizlik);
4. Forsksning (tadqiqot natijalari).

---

<sup>21</sup>Dj Xant, R. Kanter, D.Kots. Total Quality Menejment. London. 1999-y. 42 page.

INSTAga a'zo bo'lgan mamlakatlarda me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqarishning asosi sifatida ISO va MEK, SEN va SENELEK tashkilotlarining me'yoriy hujjatlari asos qilib olinadi. Ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar INSTAga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda ma'qullangandan keyin milliy me'yoriy hujjatlar sifatida qabul qilinadi. INSTA tashkiloti o'z faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida Skandinaviya mamlakatlari orasida o'zaro tushunishni ustuvor yo'nalish deb hisoblaydi.

INSTAga a'zo bo'lgan mamlakatlarda o'zaro axborot ayirboshlashda uyg'unlashgan standartlar kataloglari tashkil qilinadi. INSTA mamlakatlarida milliy standartlarni uyg'unlashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar ustuvor yo'nalishlar deb hisoblanadi: mashinasozlik va stanoksozlik, ish urishlarining xavfsizligi, foydalanish bo'yicha ishonchlilik, yong'inga qarshi vositalarning xavfsizligi.

Janubiy Osiyo mamlakatlarining xalqaro assotsiatsiyasi (ASEAN). Bu tashkilot 1994-yilda o'zining standartlashtirish va sifat bo'yicha maslahat komitetini tashkil etdi. Ushbu mintaqaviy tashkilotga ASEAN davlatlarining standartlashtirish va Skandinaviya bo'yicha milliy tashkilotlari kiradi. (Malayziya, Tayland, Indoneziya, Singapur, Filipin, Bruney)<sup>22</sup>.

Respublikamizning dastlabki mustaqillik yillaridagi (1992-yil) muhim voqealardan biri ushbu nufuzli xalqaro tashkilotga O'zbekiston Respublikasi 92-davlat sifatida qabul qilinishi bo'ldi. Endilikda O'zbekiston Respublikasi ISOning teng huquqli a'zolaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifatini yaxshilash, boshqarish va ta'minlash bo'yicha oxirgi vaqtda qilingan ishlarni mujassamlab, ISO o'zining bir qator me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi, bu hujjatlarga ISO-9000, 10011 va 10012 raqamli standartlarni ko'rsatish mumkin.

---

<sup>22</sup>Dj Xant, R. Kanter, D.Kots. Total Quality Menejment. London. 1999-y. 42 page.

## 2-jadval

### Jahon hamjamiyatida faoliyat yuritayotgan sifat menejmentini joriy etish va xalqaro standartlashtirishda ishtirok etayotgan tashkilotlarning guruhlanishi

<b>Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari</b>
1. American National Standards Institute (ANSI)
2. Deutsches Institut für Normung, German Institute for Standardization (DIN)
3. British Standards Institution (BSI)
4. Countries in International Organization for Standardization
5. Canadian Standards Association
6. European Committee for Standardization (CEN)
7. Commonwealth of Independent States (CIS) set of standards (GOST)
8. International Classification for Standards
9. International Electrotechnical Commission (IEC) and ISO/IEC standards
10. International healthcare accreditation
11. International Telecommunication Union (ITU)
12. ISO A4
13. ISO country code
14. List of International Organization for Standardization standards ISO divisions
15. ISO/TC 37
16. ISO/TC 68
17. TC 46/SC 9
18. ISO/TC 211
19. ISO/TC 215
20. ISO/TC 223
21. Standardization
22. Standards Australia
23. Standards organization
24. Terminology planning policy
25. The International Customer Service Institute (TICSI)
26. CARICOM Regional Organization for Standards and Quality (CROSQ)
27. AP Stylebook (Associated Press Style)
28. Interface 2010 (Interface Marketing Supplier Integration Institute)

*Manba:* Internet ma'lumotlari asosida tayyorlangan([www. rubricon.com](http://www.rubricon.com))

Biz quyida xalqaro standartlarni keltirib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir: Jahon amaliyotida qo‘llanib kelinayotgan ISO-9000 seriyali standartlar asosan korxonalarda “Sifat menejmenti tizimi”ni yaratish bo‘yicha xalqaro standartlar turkumi bo‘lib hisoblanadi. Bulardan ISO-9001:2008 “Sifat menejmenti tizimi. Talablar” bu turkumning eng asosiy standartidir.

2005-yilgi ISO-9001 standartiga ko‘ra sifatni boshqarish tizimlari tashkilot yoki korxonaning sifat sohasidagi siyosati va maqsadlarini, shuningdek, bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilagan holda, tadbirlar ishlab chiqish, yetarli darajada resurslar bilan ta‘minlanishi va rahbarlik qilish uchun boshqarish tizimidir.

Bu, eng avval, korxonada ichida xodimlarning ishlashi va o‘zaro aloqalari bo‘yicha zarur hajmda hujjatlashtiriladigan (uslubiy qo‘llanmalar, protseduralar, korxonada yo‘riqnomalari va h.k. ko‘rinishda) va chuqur o‘ylangan tartib va qoidalar yig‘indisidir.

Tashkilot yoki korxonada ISO 9001 seriyali xalqaro sifat standartlari asosidagi SBT ni joriy qilish quyidagilarga imkon yaratadi:

- korxonaning maqsadlari, boshqarish vositalari va usullarini sifatga yo‘naltirish;
- ma‘muriy boshqarish samaradorligi;
- ishlab chiqarish davomiyligini qisqartirish;
- korxonada bo‘linmalari orasida o‘zaro aloqani yaxshilash;
- nomuvofiqliklarni oldini olishga e‘tiborni qaratish;
- xarajatlarni kamaytirish;
- mahsulot tannarxini kamaytirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- mahsulot (xizmat) lar sifati va raqobatbardoshligini doimiy oshirish;
- tashkilot obro‘-e‘tiborini oshirish;
- ta‘minotchilarni tanlash, baholash va nazorat qilish;
- o‘zgarayotgan bozor sharoitlariga tezkor va samarali yondashish;
- iste‘molchilar uchun doimiy ishonchlilik kafolatini ta‘minlash;

- iste'molchilarni qanoatlanish darajasini doimo tahlil qilish va oshirish.

Dunyo miqiyosida ISO14000 ekologik menejment tizimi ham qo'llanib kelinmoqda. Keyingi yillarda butun dunyoda atrof-muhit ekologiyasini samarali boshqarish (atrof-muhitni muhofaza qilish) korxonalar sifatni boshqarish tizimi bilan bevosita bog'langan asosiy vazifalarini hal qilishda muhim o'rin tutmoqda va korxonani umumiy boshqarish tizimining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

ISO 14000 standartlari bo'yicha ekologik menejment tizimi quyidagilarni ta'minlaydi:

- korxonani boshqarish tizimlarini optimallashtirish va atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararli ta'sirlarning oldini olish;

- ekologik boshqaruvni samarali joriy qilish hisobiga energetik resurslarni iqtisod qilish;

- hududdagi ekologik holatni yaxshilash;

- atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish;

- energiya va materiallarni tejash;

- ishlab chiqarish chiqindilarini boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish;

- tabiatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni samaraliroq bajarish;

- ekologiyaning buzilishi bilan bog'liq bo'ladigan ortiqcha sarfxarajatlarni kamaytirish;

- tabiatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni bajarish bo'yicha tashkilot mavqeini shakllantirish;

- korxonaning tashqi bozorlarga chiqishi;

- ekologik toza mahsulotlar bozorida raqobatchilar orasida ustuvorlikka erishish.

Rivojlangan davlatlarning yirik sanoat korxonalarida ONSAS 18001 (*Ossurational health and safetu managment systems*) ya'ni, xodimlar sog'lig'ini himoya qilish va sanoatda xavfsizlikni boshqarish



tizimini yaratish bo'yicha xalqaro standart ham qo'llanib kelinmoqda. ONSAS 18001 talablarini ISO-9000 va ISO-14000 bilan uyg'unlashtirish mumkin<sup>23</sup>.

ONSAS 18001 standarti bo'yicha xodimlar sog'ligini himoya qilish va xavfsizligini boshqarish tizimi quyidagilarni ta'minlaydi:

- ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradigan xavf-xatarlarni, tang holatlar oldini olish;
- xavfli ishlab chiqarish faktorlarini nazorat qilish;
- ish joylaridagi mavjud va kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni identifikatsiyalashtirish;
- ish joylari holatini yaxshilash, ishlab chiqarish va korxonaga umumiy korporativ madaniyati yaxshilash;
- ishlab chiqarish jarohatlari va kasb kasalliklarining oldini olish va bartaraf qilish hisobiga inson talafotlarini kamaytirish.

ONSAS 18001 standarti bo'yicha xodimlar sog'ligini himoya qilish va xavfsizligini boshqarish tizimi quyidagilarni ta'minlaydi:

- biznesni bevosita va bilvosita sarf-xarajatlarini, jumladan, vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotilganligi to'lovlarini kamaytirish;
- korxonaga obro'sini yaxshilash, investorlar e'tiborini jalb qilish;
- tang holatlari ro'y berishi ehtimollarini kamaytirish;
- favqulodda holatlar va ishlab chiqarish falokatlari oqibatlarini minimallashtirish;
- mehnatni muhofaza qilishga resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish;
- xodimlar potensialidan maksimal va samarali foydalanish;
- davlat boshqaruv va davlat texnikaviy nazorati idoralari bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash imkoniyatlari;
- xodimlar sog'lig'i va xavfsizligi sohasidagi talablarni bajarish bo'yicha tashkilot mavqeini shakllantirish;
- korxonani tashqi bozorlarga chiqishi;

---

<sup>23</sup> Internet ma'lumotlari ([www.google.com](http://www.google.com)).

- raqobatchilar orasida ustuvorlikka erishish;
- yuqori malakali ishchi kuchini jalb qilish uchun zarur.

Xalqaro rivojlangan davlatlarda ISO 22000 NASSR (*Nazagd Analisis and CriticalControl Roints*) ya'ni, "Xavflar tahlili va kritik nazorat nuqtalari" tizimi ham qo'llanmoqda. "Xavflar tahlili va kritik nazorat nuqtalari" tizimi xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini boshqarishning mukammal tizimidir.

O'tgan asrning 90-yillari boshida Yevropa ittifoqi ushbu tizimni oziq-ovqat sanoatida xavfsizlikni ta'minlay olishi mumkin bo'lgan eng samarali tizim sifatida qabul qildi. BMT oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti hamda Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan hamkorlikda moliyalashtiriladigan hukumatlararo idora oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha "Kodeks Alimentarius" komissiyasi tomonidan 1993-yili NASSR tizimi va uni joriy qilish bo'yicha qo'llanma ishlab chiqildi.

NASSR standarti ishlab chiqarishni to'liq zanjiri, ya'ni ishlab chiqiladigan mahsulot xomashyosidan, uni qayta ishlash, saqlash va iste'molchiga yetkazishgacha qo'llanishi mumkin bo'lgan, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash tizimiga talablarni belgilaydi.

Bu standart talablarini mustaqil yoki ISO-9000 standartlari asosidagi sifatni boshqarish tizimlari bilan birgalikda qo'llash mumkin.

ISO 22000 NASSR tizimi korxonada quyidagilarni ta'minlaydi:

- korxonani va mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish;
- mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarish zanjirida xavfli nuqtalarni aniqlash, ularni nazoratda ushlab hamda samarali boshqarish orqali sifatli va xavfsiz mahsulot ishlab chiqarish;
- iste'molchilarning mahsulot sifati va sifat barqarorligiga ishonchini oshirish;

➤ yangi bozorlarga chiqish va amaldagilarini kengaytirish uchun imkoniyatlarni oshirish.

### **Nazorat va mulohaza uchun savollar**

1. Xalqaro ISO tashkiloti standartlashdan maqsadi nima?
2. ISO-9000 standartiga ko‘ra sifatni boshqarish tizimlari nimadan iborat?
3. ISO-9000 seriyali xalqaro sifat standartlarining ahamiyati.
4. ISO-14000 standartlari bo‘yicha ekologik menejment tizimi ahamiyati.
5. ONSAS-18001 standarti bo‘yicha xodimlar sog‘ligini himoya qilish va xavfsizligini boshqarish tizimining ahamiyati.
6. ISO-22000 NASSR “Xavflar tahlili va kritik nazorat nuqtalari” tizimining ahamiyati.

## **VI BOB. METROLOGIK FAOLIYAT VA METROLOGIYANING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **6.1. Metrologiya sohasidagi asosiy tushunchalar**

### **6.2. Metrologik nazorat va tekshiruv obyektlari**

### **6.3. Metrologiya bo'yicha xalqaro tashkilotlar**

**Tayanch so'zlar:** metrologiya, metrologiya xizmati, o'lchov vositalari.

### **6.1. Metrologiya sohasidagi asosiy tushunchalar**

O'zbekistonda metrologiya talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga katta ahamiyat berildi. Metrologiya talablari asosida yaratilayotgan sifatli mahsulotlar nisbati doimiy tarzda nazorat qilib boriladi.

Metrologiya so'zining kelib chiqishi o'tgan asrlar tarixiga borib taqaladi. Shu jihatdan metrologiya atamasiga turli olimlarning qarashlari turlicha bo'lgan. Xususan, MDH olimlaridan Y.I. Borisov va boshqalarning fikriga ko'ra, metrologiya (grekcha "metron" –mera, "logos"-ta'lim)-o'lchovlar haqidagi fan bo'lib, o'lchovlarning aniqlik uslubi va vositalarini ta'minlashga qaratilgan<sup>24</sup>.

Aslida MDH olimlari tomonidan berilgan ta'rif ham fanning mohiyatini ochib berishga qaratilgan va ilmiy asoslangan fikrlardan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

Shuningdek, A.A. Goncharyov va V.D. Kopilovlar tomonidan berilgan ta'rifga ham e'tibor beradigan bo'lsak, unda "Metrologiya-o'lchovlar haqidagi fan bo'lib, yagonalikni ta'minlaydi, o'lchovlarning aniqlik uslubi vositalarini ta'minlab beradi",<sup>25</sup> deb ta'kidlangan.

---

<sup>24</sup> Borisov Yu.I., Sigov A.S., Nefidov V.I., Bityukov V.K., Belik Yu.D., Verba V.S., Metrologiya, standartizatsiya i sertifikatsiya: Uchebnik.-M.:Infra-M,2005.-336 str.

<sup>25</sup>Goncharyov A.A., Kopilov V.D. Metrologiya, standartizatsiya i sertifikatsiya:-Uchebnoe posobie.-3 ye izd., M.:Izdatelskoe sentr. Akademiya.2006.-240 str.

Darhaqiqat, ushbu berilgan ta'rif ham yuqorida keltirilgan ta'rifni takrorlagan holda fanda o'lchashlar haqidagi ma'noni anglatadi.

Iqtisodchi olimlardan I.M. Lifis tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "Metrologiya – faoliyat turlari va bilimlar sohasi bo'lib, o'lchovlar bilan bog'liqdir. Metrologiya obyektlariga: yagonalik, o'lchovlar vositasi, etalonlar, o'lchovlarni bajarish uslublari kiradi"<sup>26</sup>.

Olimning keltirgan fikriga tayangan holda shuni aytish joizki, metrologiya faoliyati aynan bir obyektga emas, balki turli sohalarning turli obyektlaridagi o'lchamlarni tashkil etishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Metrologiya ta'rif va yaratilishi tarixiy shakllanishi asosan MDH olimlaridan G.R. Krilovning asarida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, metrologiya qadimgi Gretsiya va Rimda vujudga kelgan deb ta'kidlab o'tilgan<sup>27</sup>.

Metrologiya asosan, o'lchashlar, ularga bog'liq va tegishli bo'lgan qator masalalarni o'z doirasiga oladi. Metrologiya, aslida, yunonchadan olingan bo'lib, o'lchash, o'lcham, nutq, mantiq, ilm yoki fan ma'nolarini bildiradi Umumiy tushunchasini oladigan bo'lsak, metrologiya – o'lchashlar haqidagi fan.

Inson aql-idroki, zakovati bilan o'rganayotgan, shakllantirayotgan hamda rivojlantirgan qaysi sohani va uning yo'nalishini olmaylik, albatta, o'lchashlarga, ularning turli usullariga, o'zaro bog'lanishlariga duch kelamiz. Bu o'lchash usullari va vositalari yordamida ularning birligini yagona o'lchash talab etilgan.

Aniqlikda ta'minlash metrologiya sohasi orqaligina amalga oshiriladi. Shu sababdan hozirdagi qaysi bir fan, ilmiy yo'nalish, u xoh tabiiy, xoh ijtimoiy bo'lmasin, albatta, u yoki bu darajada metrologiya bilan bog'liq. Inson qo'li yetgan faoliyati doirasiga kirgan ammo o'lchashlar va ularning vositalari yordamisiz o'rganilgan, izlangan hamda ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin bo'lgan birorta yo'nalish yo'q.

---

<sup>26</sup>Lifis I.M. Standartizatsiya, metrologiya i sertifikatsiya:-Uchebnik.-6 ye izd., M.:Yurayt-Izdat, 2006.-350 str.

<sup>27</sup>Krilova G.D. Osnovi standartizatsii, sertifikatsii, metrologii:-Uchebnik.-3 ye izd., M.: YuNITI-DANA, 2006.-671 str.

XXI asrning ikkinchi yarmida xalq xo‘jaligining barcha sohalaridagi ilm-fan, madaniyatning gurkirab rivojlanishini bejiz ilmiy-texnikaviy inqilob deb atalmaydi. Ilg‘or ilmiy yutuqlar fanga, bizning kundalik hayotimizga kirib kelib, shu darajada odatiy bo‘lib qolganki, aksariyat hollarda biz ularga e‘tibor bermaymiz yoki sezmaymiz. Ba‘zan esa, bizga, korxonaga yoki laboratoriyaga yetib kelguncha ularning qanchalik murakkab, notekis yo‘llardan o‘tganligini ko‘z oldimizga keltirmasdan, fikr yuritmagan holda ulardan foydalanamiz. Yuqoridagilarning hammasi to‘la ma‘noda zamonaviy axborotni o‘lchash texnikalariga ham tegishlidir.

Metrologiya o‘lchovlar tizimini o‘rganadi. Hayotimizni o‘lchovlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, shu jihatdan milliy mahsulot sifatini oshirishda ham o‘lchovlarni to‘g‘ri qo‘llashga bog‘liq<sup>28</sup>.

O‘lchashlar haqidagi sohaning tarixi minglab yillarni tashkil etadi. O‘lchashlarga bo‘lgan ehtiyoj qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Inson kundalik hayotida har xil kattaliklarni: masofalarni, yer maydonlarini, yuzalarini, jismlarning o‘lchamlari va massalarini, vaqtni va hokazolarni bu jarayonlarning yuzaga kelish sabablarini, manbalarini bilmasdan, o‘zining sezgisi va tajribasi asosida o‘lchay boshlagan.

Eng qadimgi o‘lchash birliklari – antropometrik, ya‘ni insonning muayyan a‘zolariga muvofiqlikka yoki moyillikka asoslangan holda kelib chiqqan o‘lchash birliklari hisoblanadi. Masalan, kaft-bosh barmoqni hisobga olmaganda qolgan to‘rttasining kengligi; fut-oyoq tagining uzunligi; pyad-yozilgan bosh va ko‘rsatkich barmoqlar orasidagi masofa, quloq, qadam va hokazolar.

Asrlar oshib bizga yetib kelgan ba‘zi o‘lchov birliklari hozirda ham ishlatiladi. Masalan, qadimgi janubi-sharqda “loviya doni”, “no‘xotcha” ma‘nosini bildirgan, turli qimmatbaho toshlarning o‘lchov birligi sifatida ishlatilgan – KARAT; dorishunoslikda og‘irlik birligi qilib

---

<sup>28</sup>Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NWWashington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.

qo‘llanilayotgan, ingliz, fransuz, lotin va ispan tillarida “bug‘doy doni” ma‘nosi bildiruvchi – GRAM va hokazolar.

Ba‘zi bir tabiiy o‘lchovlar ham uzoq o‘tmishga ega. Ularning dastlabkilaridan biri, hamma yerda ishlatiladigan vaqt o‘lchovlaridir. Munajjmlarning ko‘p yillik kuzatishlari natijasida qadimgi Vaviloniyada vaqt birligi sifatida yil, oy, soat tushunchalari ishlatilgan. Keyinchalik yerning o‘z o‘qi atrofida to‘la aylanishiga ketgan vaqtning 186400 qismi sekund nomini olgan.

Qadimgi Vavilonliklar bizning eramizgacha bo‘lgan II asrdayoq vaqtni minalarda o‘lchashgan. Mina taxminan ikki astronomik soat vaqt oralig‘iga teng bo‘lib, bu vaqt mobaynida Vavilonda rusm bo‘lgan suv soatidan massasi taxminan: 500 grammga teng bo‘lgan “mina suv” oqib ketgan. Keyinchalik mina o‘zgarib, biz o‘rganib qolgan minutga aylandi.

Vaqlar o‘tishi bilan suv soatlari o‘z o‘rnini qum soatlariga, ular ham vaqti kelib mayatnikli mexanizmlarga bo‘shatib berdilar.

Insoniyat taraqqiyot rivojlanishining ilk davrlaridanoq “moddiy” o‘lchashlar va o‘lchov birliklarining katta ahamiyatini tushunib bilganlar.

Fan va texnikaning rivojlanishi har xil fizikaviy kattaliklarning o‘lchamlarini muayyan o‘lchovlarga qiyoslab kiritishni taqozo eta boshladi. Bunday faoliyat jarayoni va rivojlanishi davomida o‘lchashlar haqidagi fan, ya‘ni metrologiya yuzaga keldi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi o‘lchash vositalari va usullarini mukammallashtirishni talab eta boshladi. O‘lchashlar nazariyasi hamda vositalarining rivojini aniqlab bergan texnika yutuqlarining uchta asosiy bosqichini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– ishlab chiqarish jarayonida qatnashgan stanoklarga biriktirilgan o‘lchash vositalarining yaratilishini talab qiluvchi texnologik bosqich (manufaktura va mashina ishlab chiqarishning yuzaga kelishi);

– ishlab chiqarish jarayonlarini kuchaytirish sharoitida foydalanilayotgan o‘lchash vositalarining aniqligi, ishonchliligi va unumdorligini keskin oshirishni talab qiluvchi energetik bosqich (bug‘ energiyasini

ishlatish, ichki yonuv dvigatellarining ishga kelishi, elektr energiyasini ishlab chiqarish va ishlatish);

– zamonaviy fan yutuqlarining barchasini o‘lchash vositalarining tarkibiga kiritishni talab qilgan ilmiy-texnikaviy inqilob (fanni ishlab chiqarish bilan bog‘lash va uni bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirish) bosqichi. Bu bosqichning alohida xususiyatlaridan biri obyektlar va jarayonlar holatini muayyan parametrlar yordamida umumiy baholovchi o‘lchash tizimlarini yaratish bo‘lib, olingan natijalarni bevosita texnik tizimlarni avtomatik boshqarish uchun foydalanishdan iborat.

Amaliyot juda keng ko‘lamdagi fizikaviy kattaliklar qiymatini, ko‘pincha juda tez sekundning milliarddan bir ulushlarida), yuqori aniqlikda (xatolik o‘lchanayotgan qiymatning 10 foizidan kichik) va nafaqat inson sezgi organlari to‘g‘ri ilg‘ay olmaydigan, balki hayot uchun sharoit bo‘lmagan holatlarda ham aniqlashni talab qiladi. Shu kunlarda sohada yuzdan ortiq har xil fizikaviy kattaliklar ma’lum bo‘lib, ularning 70 dan ortig‘ini o‘lchash mumkin.

Hozirgi kunlarda fan va texnikaning rivojlanishi tufayli ilgari o‘lchab bo‘lmaydi deb hisoblangan kattaliklarni o‘lchash va baholash imkoni yaratilmoqda. Masalan, Sankt-Peterburg aloqa instituti olimlari hidni o‘lchash borasida birmuncha yutuqlarni qo‘lga kiritganlar. Bu xususda buyuk italiyalik olim Galileo Galileyning quyidagi so‘zlarini eslab o‘tish o‘rinli bo‘ladi: –“O‘lchash mumkin-mumkin bo‘lganini o‘lchang, mumkin bo‘lmaganiga esa imkon yarating”.

Kondensatorning elektr sig‘imi, nurlanish oqimi, erigan metallning temperaturasi va atomning maxsus maydoni kuchlanishi kabi kattaliklarni maxsus texnikaviy vositalar – o‘lchash o‘tkazgichlari, asboblari va tizimlaridan foydalanmasdan o‘lchashni amalga oshirish mumkin emas. Bularning hammasi ongimizga, hayotimizga shunchalik singib ketganki, aksariyat hollarda biz ularning atrofimizda mavjud ekanligini sezmaymiz. Hamma joyda: uy-ro‘zg‘or va ishlab chiqarishda, dalada va kasalxonada,



avtomobilda va ilmiy laboratoriyada ular bizning beg'araz va tengsiz yordamchilarimizdir.

Ishonch bilan aytish mumkinki, o'lchash inson ongli hayotining asosini tashkil etadi. Bu borada ko'plab olimlar o'lchash texnikasining rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Ular ichida birinchi navbatda quyidagilarni: Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ulug'bek, Mixail Lomonosov, Dmitriy Mendeleev va boshqalarni alohida ko'rsatib o'tish o'rinli bo'ladi. Ahmad Farg'oniyning "Miqyosi Nil", ya'ni Nil daryosining sathini tutash idishlar qonuniyati asosida o'lchash va uning natijasiga ko'ra yilning yog'ingarchiligi va uning ekin hosiliga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlari, Ulug'bekning "Zij jadvallari"da keltirgan, hozirgi kunlarda eng zamonaviy o'lchash qurilmalarida olingan natijalardan juda oz tafovut qiluvchi ma'lumotlari alohida tahsinga sazovordir.

Bundan tashqari, Forobiyning astronomik kuzatishlar va o'lchashlar uchun maxsus asbob-usturlob yasash sirlari xususidagi qimmatli ma'lumotlari juda katta ham ilmiy, ham falsafiy ahamiyatga egadir.

O'lchash texnikasi ehtimollar nazariyasi, boshqarish nazariyasi va boshqa ilmiy yo'nalishlar bilan birgalikda informatsion o'lchash, ya'ni o'zida asosiy informatsiya olish imkonini beradigan vositalarni, jamlagan (o'lchash, nazorat qilish, hisoblash, tashxis, umumlashtirish va tasvirlarni aniqlash), texnikasining rivojiga asos bo'ldi. Qo'yilgan muammolarning, ularni yechish usullari va olingan natijalarning har xilligidan qat'i nazar, informatsiya olish mobaynida asosiy o'lchash, ya'ni qayta ishlash, qabul qilish va biror jarayon yoki manba haqidagi ma'lumotni tasavvur qilish amallarini bajarish ko'zda tutiladi.

Bugungi kunda ham olimlarimiz o'lchash nazariyasi va texnikasi rivoji ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

## 6.2. Metrologik nazorat va tekshiruv obyektlari

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida metrologiya talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya agentligi amalga oshiradi. Respublikada standartlashtirish tartibi bir xil turdagi mahsulotning har bir turi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan qayd etiladigan standartlashtirish qoidalariga muvofiq keluvchi tartibda amalga oshiriladi.

Metrologiya faoliyati asosan turli o‘lchamlar va kattaliklar bilan ishlaydigan xizmat turi hisoblanadi va u quyidagilarni o‘z ichiga oladi<sup>29</sup>:

*Kattalikning o‘lchami* – ayrim olingan moddiy obyekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo‘lgan kattalikning miqdori bo‘lib hisoblanadi.

*Kattalikning qiymati* – qabul qilingan birliklarning ma’lum bir soni bilan kattalikning iqtidor tavsifini aniqlash.

*Kattalikning birligi deb* – tarif bo‘yicha soniy qiymati 1ga teng qilib olingan kattalik tushuniladi.

Ushbu atamalar kattalikning qiymatiga kiradigan birlik uchun ko‘paytiruvchi sifatida ishlatiladi. Muayyan kattalikning birliklari o‘zaro o‘lchamlari bilan farqlanishi mumkin. Masalan, metr, fut va dyum uzunlikning birliklari bo‘lib, quyidagi har xil o‘lchamlarga ega – 1 fut - 0,3048 m, 1 dyum -25,4 mm.ga tengdir.

Kattalikning birligi ham, kattalikning o‘ziga o‘xshash asosiy va hosilaviy birliklarga bo‘linadi:

*Kattalikning asosiy birligi deb* – birliklar tizimidagi ixtiyoriy ravishda tanlangan asosiy kattalikning birligiga aytiladi.

Bunga misol qilib, LMT – kattaliklar tizimiga to‘g‘ri kelgan MKS birliklar tizimida metr, kilogramm, sekund kabi asosiy birliklarni olishimiz mumkin.

---

<sup>29</sup> Крилова Г.Д. Основы стандартизации, сертификации, метрологии: Учебник.-3 е изд., М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006.-671 стр.

*Hosilaviy birlik* deb, berilgan birliklar tizimining birliklaridan tuzilgan, ta'riflovchi tenglama asosida keltirib chiqariluvchi hosilaviy kattalikning birligiga aytiladi.

Hosilaviy birlikka misol qilib 1 m/s-xalqaro birliklar tizimidagi tezlik birligini; 1 N – 1 kg. m/s<sup>2</sup> kuch birligini olishimiz mumkin.

1960-yili o'lchov va og'irliklarning XI Bosh konferensiyasi Xalqaro birliklar tizimini qabul qilgan bo'lib, mamlakatimizda buni SI (SI – System International) xalqaro tizimi deb yuritiladi. Keyingi Bosh konferensiyalarda SI tizimiga bir qator o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, hozirgi holati va birliklarga qo'shimchalar va ko'paytirgichlar haqidagi ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan<sup>30</sup>.

### 3-jadval

#### Metrologiya faoliyatidagi o'lchov birliklarining xalqaro darajada nomlanishi

№	Kattalikning nomi	O'lchami	Birlikning nomi	Xalqaro belgilanishi
1	Uzunlik	L	Metr	M
2	Massa	M	Kilogramm	Kg
3	Vaqt	T	Sekund	S
4	Elektr tokining kuchi	I	Amper	A
5	Temperatura	θ	Kelvin	K
6	Modda miqdori	N	Mol	Mol
7	Yorug'lik kuchi	J	Kandela	Cd
8	Yassi burchak	I	Radian	Rad
9	Fazoviy burchak	I	Steradian	Sr

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, metrologiya faoliyatidagi o'lchov birliklarining xalqaro darajada nomlanishi keltirilgan va ushbu o'lchov birliklari amalda qo'llanib kelinmoqda.

1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan "Metrologiya to'g'risida"gi qonunda "metrologiya" so'zi – o'lchovlar, ularning yagona birlikda

<sup>30</sup> Крилова Г.Д. Основы стандартизации, сертификации, метрологии:-Учебник.-3 е изд., М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006.-671 стр.

bo‘lishini ta’minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo‘llari haqidagi fan deb ta’rif berilgan.

Metrologiya sohasida ishlatiladigan terminlar quyidagilar:

➤ “yagona o‘lchov birligi” – o‘lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma’lum bo‘lgan o‘lchov holati;

➤ “o‘lchov vositasi” – o‘lchovlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo‘lgan texnika vositasi;

➤ “metrologik xizmati” – davlat organlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tarmog‘i hamda ularning o‘lchovlar yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan faoliyati;

➤ “davlat metrologiya nazorati” – metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari amalga oshiradigan faoliyat;

➤ “o‘lchov vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish” – o‘lchov vositalarining belgilab qo‘yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari (vakolat berilgan boshqa organlar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan operatsiyalar majmui;

➤ “o‘lchov vositalarini kalibrlash” – metrologik jihatlarining haqiqiy qiymatlarini va o‘lchov birliklarining qo‘llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan operatsiyalar majmui;

➤ “o‘lchov vositalarini yasash (ta’mirlash, sotish, ijaraga berish) uchun litsenziya” – davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug‘ullanish huquqini guvohlantiruvchi hujjat;

➤ “o‘lchov vositalarini metrologik attestatsiya qilish” – yagona namunalarda ishlab chiqiriladigan (yoki O‘zbekiston hududiga yagona namunalarda olib kiriladigan) o‘lchov vositalarining xossalarini sinchiklab tadqiq etish asosida ular qo‘llanish uchun haqqoniy ekanligining metrologiya xizmati tomonidan e’tirof etilishi;

➤ “metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish” – o‘lchovlarning yagona birligini ta’minlash ishlarini akkreditatsiya qilishni belgilangan sohada o‘tkazishga metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarining vakolatli ekanligining rasmiy e’tirof etilishi;

➤ “o‘lchov vositalarini kalibrlash huquqiga ega bo‘lishi uchun yuridik shaxslar metrologiya xizmatini akkreditatsiya qilish” – yuridik shaxslar metrologiya xizmatining belgilangan sohada o‘lchov vositalarini kalibrlashdan o‘tkazishga vakolatli ekanligining rasmiy e’tirof etilishi;

➤ “o‘lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish” – o‘lchovlarni bajarish uslubiyotining unga qo‘yilgan metrologiya talablariga mosligini baholash hamda tasdiqlash maqsadida tadqiqot o‘tkazish;

➤ “o‘lchovlarning bajarilish uslubiyoti” – operatsiyalar va qoidalar majmui bo‘lib, ularning bajarilishi xatolari ma’lum bo‘lgan o‘lchov natijalari olishni ta’minlaydi.

Metrologiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan va O‘zbekiston Respublikasining o‘zga qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida metrologiya sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Basharti xalqaro shartnomada yoki bitimda O‘zbekiston Respublikasining metrologiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo‘llanadi.

Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni metrologiya bo‘yicha milliy organ – O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (“O‘zstandart” agentligi) amalga oshiradi.

“O‘zstandart” vakolatiga:

➤ metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, metrologiyaga oid faoliyatni mintaqalararo va tarmoqlararo muvofiq-  
lashtirish;

➤ milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo‘llab-quvvat-  
lash hamda ularning xalqaro darajada solishtirishni ta‘minlash qoida-  
larini belgilash;

➤ o‘lchov vositalari, usullari va natijalariga qo‘yiladigan umumiy  
metrologik talablarni aniqlash;

➤ davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish;

➤ metrologiya masalalari bo‘yicha normativ hujjatlarni, shu  
jumladan, davlatning boshqa boshqaruv organlari bilan hamkorlikda  
O‘zbekiston Respublikasining butun hududida majburiy kuchga ega  
bo‘lgan normativ hujjatlarni qabul qilish;

➤ metrologiya sohasida ilmiy va muhandis-texnik kadrlar tayyor-  
lash;

➤ O‘zbekiston Respublikasining metrologiya sohasidagi xalqaro  
shartnomalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

➤ metrologiya masalalari bo‘yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatida  
qatnashish kiradi;

➤ O‘zbekiston Respublikasining o‘lchovlarning yagona birlikda  
bo‘lishini ta‘minlash tizimi faoliyat olib borishi va rivojlanishini hamda  
uning xalqaro o‘lchov tizimi va boshqa mamlakatlarning o‘lchovlar  
tizimlari bilan uyg‘unlashuvini ta‘minlash;

➤ iste‘molchilar huquqlarini, fuqarolarning sog‘lig‘i va xavfsiz-  
ligini, atrof-muhitni hamda davlat manfaatlarini noto‘g‘ri o‘lchov nati-  
jalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni  
amalga oshirish.

O‘lchovlarning yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlashga oid, metro-  
logiya normalari va qoidalarini belgilovchi hamda O‘zbekiston Respub-  
likasi hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan normativ hujjatlarni  
tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni “O‘zstandart” agentligi  
amalga oshiradi.

Ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, unda metrologik faoliyatning asosiy yo'nalishlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra metrologik faoliyat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o'lchashlar birligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat bo'lib, asosan, iqtisodiy munosabatlar muvozanatini ta'minlashga, mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar xavfsizligini ta'min-



lashga hamda mahsulot va xizmatlar sifatini ta'minlashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining korxonalari, tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar birlashmalari metrologiya sohasidagi davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiradan tashqaridagi

normalar va qoidalarni belgilaydigan, o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlarni aniqlashtiradigan va ularga zid bo'lmagan normativ hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqishlari hamda tasdiqlashlari mumkin.

### **6.3. Metrologiya bo'yicha xalqaro tashkilotlar**

Xalqaro yuridik metrologiya tashkiloti (fransuzcha: Organization Internationale de Métrologie Légale – **OIML**) 1955-yilda xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlaydigan va osonlashtiradigan huquqiy metrologiya tartiblarini global uyg'unlashtirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan hukumatlararo tashkilotdir. Bunday uyg'unlashtirish bir mamlakatda o'lchov vositalarini sertifikatlash, boshqa mamlakatda sertifikatlash bilan mos kelishini ta'minlaydi va shu bilan o'lchov asboblari va o'lchov vositalariga asoslangan mahsulotlar savdosini osonlashtiradi. Bunday mahsulotlarga tortish moslamalari, taksi hisoblagichlari, tezlik o'lchagichlar, don namlik o'lchagichlari kabi qishloq

xo‘jaligi o‘lchash asboblari, egzoz o‘lchovlari va ichimliklardagi alkogol miqdori kabi sog‘liq bilan bog‘liq qurilmalar kiradi .

Tashkil etilganidan buyon OIML a‘zolarga, xususan, rivojlana-yotgan mamlakatlarga jamiyatning barcha jabhalarida metrologiyaga oid tegishli qonunchilikni va yangi mahsulotlarni sertifikatlash va kalibrlash talablari bo‘yicha ko‘rsatmalarni ishlab chiqishda yordam berish uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqdi, ayniqsa, bunday kalibrlash savdo, sog‘liqni saqlash va soliqqa tortish kabi qonuniy ta’sir ko‘rsatadigan sohalarda namoyon bo‘ladi. OIML har bir tashkilotning ishi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash uchun Xalqaro vazn va



o‘lchovlar byurosi (BIPM) va Xalqaro stan-dartlashtirish tashkiloti (ISO) kabi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Tashkilot o‘z a‘zolariga qarorlar yuk-lash uchun qonuniy vakolatga ega emas, lekin uning tavsiyalari ko‘pincha a‘zo dav-latlar tomonidan o‘z ichki qonunchiligining

bir qismi sifatida qo‘llaniladi.

2021-yil fevral oyi holatiga ko‘ra, 61 ta davlat a‘zo davlat sifatida, yana 65 tasi muxbir (ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan) a‘zo sifatida, shu jumladan, G20, Yevropa ittifoqi va BRIKSning barcha mamlakatlari sifatida ro‘yxatdan o‘tgan. Ular orasida OIML a‘zolari dunyo aholisi-ning 86 foizini va iqtisodiyotining 96 foizini qamrab oladi. OIML shtab-kvartirasi Fransiyaning Parij shahrida joylashgan.

### **Xalqaro elektrotexnika komissiyasi**

International Electrotechnical Commission (IEK) 1906-yil 26 – 27-iyunda Londonda (Buyuk Britaniya) tashkil etilgan. 1880-yillardayoq olimlar umumiy atamalar, o‘lchovlar va reytinglarning yetishmasligi elektrotexnika fanining rivojlanishini sekinlashtirayot-ganini va bozorlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotganini tushuna boshladilar.



1904-yilda Sent-Luisdagi Butunjahon yarmarkasida Xalqaro elektr kongressi chaqirilganda, Elektr saroyini egallagan eksponatlar ko'p sonli turli xil kuchlanishli elektr energiyasidan, to'g'ridan-to'g'ri tok yoki 1, 2 yoki 3 fazali o'zgaruvchan tokdan foydalangan. Turli chastotalar, shuningdek, turli xil ulagichlar va vilkalar.

Natijada, Kongress elektr jihozlari va mashinalarining reytinglari uchun shartlar va o'lchovlarni belgilash bilan shug'ullanadigan doimiy xalqaro komissiyani tuzish taklifini kiritdi. Keyinchalik, IEC (Xalqaro elektrotexnika komissiyasi) Londonda tashkil etilgan.

### **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO)**

YuNIDO Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi bo'lib, qashshoqlikni qisqartirish, inklyuziv globallashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun sanoat rivojlanishiga yordam beradi. 2008-yil 3-dekabrda OIML, Xalqaro vazn va o'lchovlar byurosi (BIPM) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (YuNIDO) o'zaro anglashuv memorandumini imzolash orqali metrologiya bo'yicha strategik hamkorlikni yulga qo'yishga kelishib oldilar.

*Memorandum quyidagilarni ta'minlaydi:*

– OIMLning jahon miqyosidagi texnik tuzilmasi, u o'z a'zolariga huquqiy metrologiya qo'llanmalarida o'lchov vositalarini baholash va ulardan foydalanishga oid milliy va mintaqaviy talablarni ishlab chiqish bo'yicha metrologik yo'riqnomalarni taqdim etadi;

– BIPMning ilmiy metrologiya bo'yicha tajribasi, bu butun dunyo bo'ylab yagona, izchil o'lchovlar tizimi uchun asos bo'lib, Xalqaro birliklar tizimiga (SI) kuzatilishi mumkin; va

– YuNIDO ning muhim tajribasi va standartlar, metrologiya, sinov, sertifikatlashtirish va akkreditatsiya sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarning katta portfelidir.

Hamkorlikning maqsadi sanoat rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirish va rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davridagi

iqtisodiyot bo'lgan mamlakatlarning eksporti uchun hali ham asosiy to'siq bo'lgan savdodagi texnik to'siqlarni (TBT) minimallashtirishdan iborat.

**Xalqaro vazn va o'lchovlar byurosi (fransuzcha: Bureau international des poids et mesures, BIPM BIPM)** hukumatlararo tashkilot bo'lib, uning 63 a'zo davlati to'rtta sohada o'lchov standartlari bo'yicha birgalikda harakat qiladi. BIPM 1875-yil 20 mayda, 17 ta a'zo davlat o'rtasida tuzilgan Meter konvensiyasi imzolanganidan so'ng tuzilgan Hozirgi vaqtda BIPMning asosiy ishiga quyidagilar kiradi:

✓ Ilmiy va texnik faoliyat uning to'rtta bo'limida amalga oshiriladi: kimyo, ionlashtiruvchi nurlanish, fizik metrologiya va vaqt.



✓ Aloqa va muvofiqlashtirish ishlari, shu jumladan, CIPM maslahat qo'mitalari va ularning ayrim ishchi guruhlari va CIPM MRA uchun kotibiyatni ta'minlash va xalqaro sifat infratuzilmasini qo'llab-quvvatlovchi boshqa organlar va boshqa xalqaro organlar bilan institutsional aloqalarni ta'minlash.

✓ Ushbu a'zo davlatlarning butun dunyo bo'ylab metrologiya hamjamiyatida va rivojlanayotgan metrologiya tizimlari bilan hamkorlikda samaradorlikni oshirish uchun salohiyatni oshirish va bilimlarni uzatish dasturlari.

✓ Xalqaro metrologiya bo'yicha ma'lumotlar bazasi va nashrlarni taqdim etuvchi resurs markazi.

U Sen-Kluda, Parijda, Fransiyada joylashgan. 2022-yil 8-fevraldan beri 63 ta a'zo davlatlar va 40 ta assotsiatsiyalangan davlatlar va iqtisodlar mavjud.

1. Argentina
2. Avstraliya
3. Avstriya
4. Belorussiya
5. Belgiya
6. Braziliya
7. Bolgariya
8. Kanada
9. Chili
10. Xitoy
11. Kolumbiya
12. Xorvatiya
13. Chexiya
14. Daniya
15. Ekvador
16. Misr
17. Estoniya
18. Finlyandiya
19. Fransiya
20. Germaniya
21. Gretsiya
22. Vengriya
23. Hindiston
24. Indoneziya
25. Eron (Islom Respublikasi)
26. Iroq
27. Irlandiya
28. Isroil
29. Italiya
30. Yaponiya
31. Qozog‘iston
32. Keniya
33. Koreya (Respublika)
34. Litva
35. Malayziya
36. Meksika
37. Chernogoriya
38. Marokash
39. Niderlandiya
40. Yangi Zelandiya
41. Norvegiya
42. Pokiston
43. Polsha
44. Portugaliya
45. Ruminiya
46. Rossiya Federatsiyasi
47. Saudiya Arabistoni
48. Serbiya
49. Singapur
50. Slovakiya
51. Sloveniya
52. Janubiy Afrika
53. Ispaniya
54. Shvetsiya
55. Shveytsariya
56. Tailand
57. Tunis
58. Kurka
59. Ukraina
60. BAA
61. Birlashgan Qirollik
62. AQSH
63. Urugvay

## IMEKO



Xalqaro o‘lchovlar konfederatsiyasi (qisqartirilgan IMEKO, Internationale Meßtechnische Konföderation dan) – metrologik tashkilotlarning nodavlat federatsiyasi. Tashkilot 1958-yilda Budapeshtda (Vengriyada) tashkil etilgan. Texnologiya va asboblarni o‘lchash bo‘yicha xalqaro Konfederatsiya (IMEKO; xalqaro o‘lchov Konfederatsiyasi) texnologiya va asboblarni o‘lchash bo‘yicha 19 ta milliy ilmiy-texnik jamiyatlarni birlashtiradi. Konfederatsiya o‘lchov texnologiyasi va asbobsozlik bo‘yicha xalqaro kongresslarni muntazam ravishda (3 yilda bir marta) chaqiradi. Kongresslar oralig‘ida metrologiya, o‘lchov uskunalari va asbobsozlik texnologiyasining ayrim muammolari bo‘yicha simpoziumlar o‘tkaziladi. Tashkiliy ishlar uchun mas’ul bo‘lgan IMEKO Bosh qo‘mitasi Vengriyada joylashgan.

### **Nazorat va munozara uchun savollar:**

1. Metrologiya tushunchasini yoriting.
2. Metrologiya faoliyatini kim olib boradi?
3. Metrologiya qaerda qo‘llaniladi?
4. Metrologiya borasida xalqaro tashkilotlar faoliyatini yoriting.

## **VII BOB. MAHSULOTNI SERTIFIKATLASHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **7.1. Mahsulotni sertifikatlash sohasidagi asosiy tushunchalar**

### **7.2. Sertifikatlash bo'yicha davlat idoralari va ularning vazifalari**

### **7.3. Sertifikatlash obykti va subyekti**

### **7.4. Import va eksport mahsulotlarini sertifikatlash**

**Tayanch iboralar:** sifatni boshqarishda sertifikatlashtirish asoslari, sertifikatlash sohasidagi asosiy tushunchalar.

### **7.1. Mahsulotni sertifikatlash sohasidagi asosiy tushunchalar**

Sertifikatlashtirish so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "to'g'ri ishlab chiqarilgan", degan ma'noni bildiradi. Mahsulotning to'g'ri ishlab chiqarilganligini bilish uchun uning me'yoriy hujjatlaridagi me'yorlarga mosligini tekshirish zarur. Bunday vazifani sertifikatsiya amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish jarayoni va taqdim etilgan materiallar standart va texnik talablarga javob bergan holda xizmat yoki mahsulotga kafolatni ta'minlash maqsadida sertifikatlanadi.<sup>31</sup>

Belgilangan me'yorlarga mos kelishini tekshirish uchun sinovlar o'tkazishi lozim. Sinovlar texnik operatsiyalar bo'lib, mahsulotning bir yoki bir necha tavsifnomalarini aniqlashdop iboratdir. Sinovlar sinov laboratoriyalarida amalga oshiriladi.

Me'yorlarga moslik darajasini sistematik tarzda tekshirish me'yorlariga moslikni baholash deyiladi. "3-tomon" amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>31</sup>Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NW Washington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.

Sertifikatlash mahsulotning (jarayonning, xizmatning) berilgan talablariga mosligini isbotlovchi asosiy ishonchli usuli hisoblanadi. Sertifikatlash jarayonining tashkil etuvchilari, qoidalar, sinovlar va boshqalar quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi: Bu omillarga standartlash, sifat va bevosita sertifikatsiyaga taalluqli bo‘lgan qonunchilik, sertifikatsiya obyektining o‘ziga xos xususiyatlari.

Sertifikatlash termini uning markaziy organi amalga oshiradi va bu organning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tizim ustidan boshqaruvni amalga oshirish;
- faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirish va boshqa organlarga sertifikatsiyani o‘tkazish bo‘yicha huquqni berish;
- sertifikatsiyani o‘tkazishning qoidalari va tartibini belgilash;
- sertifikatsiyani amalga oshirish uchun me‘yoriy hujjatlarni tayyorlash;
- sertifikatsiya jarayonini amalga oshirish;
- sertifikatsiya jarayoni ustidan nazorat o‘tkazish tartibini belgilash.

Real sektor korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko‘rsatkichlariga javob berishi kerak. Sifat ko‘rsatkichlari esa ma‘lum belgilangan talablarga ma‘lum standartga yoki boshqa me‘yoriy hujjatlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish mumkin. Sertifikatlashtirish deganda kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

“Sertifikatlashtirish” tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha maxsus qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning “Sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalar va ularning qoidalari” qo‘llanmasiga kiritilgan.

Qayta ishlangan Xalqaro standartlashtirish tashkilotining qo‘llanmasida “sertifikatlashtirish” atamasining faqatgina izohlari berilgan:

– sertifikatlashtirish umumiy atama bo‘lib, mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlashtirishda (muvofiqlikni sertifikatlashtirish) uchinchi tomoning qatnashishi tushuniladi;

– sifat tizimini baholash sohasidagi taraqqiyot sifat tizimini sertifikatlashtirish bo‘yicha yangi (ta‘minlovchining imkoniyatlarini sertifikatlashtirish) tushuncha zaruriyatini to‘g‘dirmoqda.

Qo‘llanmaning qayta ishlangan nusxasida muvofiqlikni “sertifikatlashtirish” tushunchasi tegishli atamalar guruhiga kiritilgan.

Muvofiqlik atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o‘z tarkibiga oladi. Bunda muvofiqlikni uchta ko‘rinishi – muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatlash, muvofiqlikni sertifikatlash belgilaydi. Muvofiqlik bayonoti deb yetkazib beruvchining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me‘yoriy hujjatga to‘la-tukis muvofiqlik haqida butun ma‘suliyatni o‘z ustiga olganligini bayon etishga aytiladi. Bu atamani so‘ngi vaqtlarda “o‘z-o‘zini sertifikatlashtirish” tushunchasi bilan almashinayotgani qayd qilinmoqda.

O‘z-o‘zini sertifikatlashtirish deganda mahsulot ishlab chiquvchi tomon butun mas‘uliyatni o‘ziga olgan holda sertifikatlashtirishni o‘zini o‘tkazadi va mahsulotning kerakli darajada sifatligi haqidagi kafolatini o‘z ichiga oladi. Bunday sertifikatlashtirish faoliyatini o‘z-o‘zini sertifikatlashtirish deb yuritiladi.

Muvofiqligini attestatsiyalash uchinchi tomon tarafidan “sinov laboratoriyasining bayonoti” tushunilib, ma‘lum namuna mahsulotga bo‘lgan talablarni belgilovchi ma‘lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishga aytiladi.

Sertifikatlashtirish deganda mahsulot (buyum) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o‘tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyumning) sifati haqida iste‘molchini ishontiradigan tegishli hujjat-sertifikat beriladi.

Yana zarur atamalardan biri – “sertifikatlashtirish tizimi” u quyidagicha ta’riflanadi:

Sertifikatlash tizimi – muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o‘tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqalariga ega bo‘lgan tizimdir. “Sertifikatsiyalashtirish tizimi” atamasidan tashqari sertifikatlashtirish sxemasi tushunchasi kiritilib, quyidagicha ta’riflanadi: “muvofiqlikning sertifikatlashtirilishini o‘tkazishdagi uchinchi tomon faoliyatining tarkibi va tartibi”.

Sertifikatlashtirish tizimlarida qatnashuvchi uchta tushuncha to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz; sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi a‘zosi.

Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish deganda, sertifikatlashtirish tizimining qoidalariga muvofiq guvohnoma talabgoriga berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyatlari tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi deb ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko‘rsatadigan, lekin tizimi boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmagan sertifikatlashtirish idorasi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimi a‘zosi deganda ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko‘rsatadigan va tizimni boshqarishda qatnashadigan sertifikatlashtirish idorasi tushuniladi.

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- odamlarning hayoti, sog‘lig‘i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfli bo‘lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;

- mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta‘minlash;
- mamlakat korxonalari, qo‘shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;

- iste‘molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdonsizligidan himoya qilish;



– mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta’kidlagan sifat ko‘rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari bo‘lib qo‘yidagilar hisoblanadi:

## **7.2. Sertifikatlash bo‘yicha davlat idoralari va ularning vazifalari**

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda “O‘zstandart” agentligi deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

“O‘zstandart” agentligi sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi, sertifikatlashtirish o‘tkazish yuzasidan umumiy qoidalarni belgilaydi, ular to‘g‘risida rasmiy axborotlar e’lon qilib boradi.

– sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish dasturlarining loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni hukumat muhokamasiga taqdim etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo‘shilish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi, shuningdek, sertifikatlashtirish natijalarini o‘zaro e’tirof etish to‘g‘risida bitimlar tuzadi, sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

– majburiy ravishda sertifikatlanadigan mahsulotlarning ro‘yxatini belgilaydi va uni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiq‘iga kiritadi;

– bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlarini, sinov laboratoriyalarini (markazlarini), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlarini, shuningdek, sifat bo‘yicha ekspert-auditorlarni akkreditatsiya qiladi;

– sertifikatlangan mahsulotlarning, sifatni boshqarish tizimlarining, akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlarining, sinov

laboratoriyalarining (markazlarining), sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning Davlat reestrini yuritadi;

– bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishi ustidan va sertifikatlangan mahsulotlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi;

– qonun hujjatlarining normalari buzilganligi uchun muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarini bekor qiladi hamda amal qilishini to'xtatib qo'yadi, sertifikatlashtirish organlarining akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarini bekor qiladi, sinov laboratoriyalarining (markazlarining) faoliyatini tugatadi.

“O‘zstandart” agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyatini moliyaviy ta'minlash manbai – davlat byudjeti mablag'i, shuningdek, “O‘zstandart” agentligi ko'rsatayotgan xizmat uchun olinadigan haqdan iborat.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar:

– bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini tuzadilar va ularning amal qilishini ta'minlaydilar;

– sertifikatlashtirishni tashkil etadilar va o'tkazadilar;

– milliy muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtiradilar yoki chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etadilar;

– sertifikatlangan mahsulotlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Sinov laboratoriyalarini (markazlarini) va sertifikatlashtirish organlarini akkreditatsiya qilish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni arizachi qoplaydi.

Tegishli sertifikatlashtirish tizimi belgilagan tartibda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) muayyan mahsulotlarning sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshiradilar hamda sertifikatlashtirish maqsadlari uchun bayonnomalar beradilar.

“O‘zstandart” agentligi o‘z vazifalarining bir qismini bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga va sinov laboratoriyalariga (markazlariga) o‘tkazishga haqlidir.

### **7.3. Sertifikatlash obykti va subyekti**

Mahsulotlar (shu jumladan, dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek, sifat tizimlari sertifikatlashtirish obyektlari hisoblanadi.

“O‘zstandart” agentligi, akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish bo‘yicha inspeksiya organlari, sifat bo‘yicha ekspert-auditorlar, muvofiqlikni baholash faoliyatida ishtirok etadigan xodimlar, shuningdek, mahsulotlari sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish subyektlaridir.

Sertifikatlashtirish subyektlari – yuridik shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari “O‘zstandart” agentligi belgilagan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart.

Odamlarning hayoti, sog‘ligi, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfli bo‘lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish, mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta‘minlash, mamlakat korxonalari, qo‘shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqiyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish, iste‘molchini (sotuvchini, ijrochini) himoya qilish, mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta‘kidlagan sifat ko‘rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi va “Oziq-ovqat mahsuloti sifati va xavfsizligi to‘g‘risida” gi qonunlari qabul qilindi.

Ushbu qonun va hujjatlarda mahsulotlarni sertifikatlash, bu boradagi vakolatli organlar, sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlari,

sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar va boshqa qator masalalar belgilab qo'yilgan.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish – mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi – “O'zdavstandart” agentligi O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

“O'zdavstandart” agentligi “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida” gi qonunga muvofiq:

– sertifikatlashtirish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi, sertifikatlashtirish o'tkazish yuzasidan umumiy qoidalarni belgilaydi, ular to'g'risida rasmiy axborotlar e'lon qilib boradi;

– sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish dasturlarining loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni hukumat muhokamasiga taqdim etadi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo'shilish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, shuningdek, sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro e'tirof etish to'g'risida bitimlar tuzadi, sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

– majburiy ravishda sertifikatlanadigan mahsulotlarni ro'yxatini belgilaydi;

– bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlarini, sinov laboratoriyalarini (markazlarini), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlarini, shuningdek, sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni akkreditatsiya qiladi;

– sertifikatlangan mahsulotlarning, sifatni boshqarish tizimlarining, akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlarining, sinov laboratoriyalarining (markazlarining), sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning Davlat reestrini yuritadi, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotini

hamda bunday mahsulotni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi;

– bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishi ustidan va sertifikatlangan mahsulotlar ustidan davlat tekshiruv va nazoratini amalga oshiradi;

– qonun hujjatlarining nomlari buzilganligi uchun muvofiqlik belgilarini bekor qiladi hamda amal qilishini to'xtatib qo'yadi, sertifikatlashtirish organlarining akkreditatsiya qilganlik to'g'risidagi guvohnomalarini bekor qiladi, sinov laboratoriyalarining (markazlarining) faoliyatini tugatadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra mahsulotlar (shu jumladan, dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek, sifat tizimlari sertifikatlashtirish obyektlari, ya'ni sertifikat talab qilinishi mumkin bo'lgan obyektlar hisoblanadi.

Agentligining o'zi, uning tomonidan akkreditatsiya qilingan yoki e'tirof etilgan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, shuningdek, mahsuloti sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish subyektlaridir.

Sertifikatlashtirish obyekti bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, ularning xavfsizligini ta'minlash, bu sohadagi davlat boshqaruvini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsuloti sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

Qonunga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari, ularning texnologiyalariga gigiyena sertifikati talab qilinadi, ya'ni gigiyena sertifikati oziq-ovqat mahsuloti, texnologiya, uskuna va boshqa jarayonlar amaldagi sanitariya normalari va qoidalariga mos ekanligini tasdiqlaydigan hujjat.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni

saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Bosh davlat veterinariya boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa organlar (bundan keyin matnda davlat nazorati organlari deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- davlat tomonidan normalash;
- oziq-ovqat mahsulotini hamda uni tayorlashga mo‘ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- oziq-ovqat mahsulotini sertifikatlash;
- davlat nazorati va tekshiruvi;
- oziq-ovqat mahsulotining sifatini va xavfsizligini ta’minlash tadbirlarini rejalashtirish.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash borasidagi davlat boshqaruvining turlaridan biri oziq-ovqat mahsulotini sertifikatlashdir.

Aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan taminlashning huquqiy asoslarini yaratish, tadbirkorlik faoliyati subyektlari qulay shart-sharoitlar shakllantirishni davom ettirish, mahsulotlarni sertifikatlashtirish jarayonini soddalashtirish va bu boradagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyuldagi, 318-sonli “Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

#### *Majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.*

O‘zbekiston Respublikasi milliy sertifikatlashtirish tizimi mahsulotni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishni ko‘zda tutadi. Dunyo

amaliyotida tovarlarni tanlashda iste'molchiga ko'maklashishning samarali vositasi bo'lib ixtiyoriy sertifikatlashtirish hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi uchun, uning mahsulotini nufuzli tashkilot tomonidan sertifikatlashtirilishi, mazkur mahsulotni sotib olinishi ehtimolini bildiradi. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi va tovar aylanishi jarayonini tezlashtiradi.

#### **7.4. Import va eksport mahsulotlarini sertifikatlash**

O'zbekistonda ixtiyoriy sertifikatlashtirish eksportga jo'natiladigan mahsulotlar uchun qo'llanilmoqda. Ichki bozorda ixtiyoriy sertifikatlashtirishga bo'lgan talab hozircha past darajada, biroq ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan foydalanish bo'yicha ma'lum bir qiziqishlar mavjud.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish obyektlarini muvofiqligini mustaqil tasdiqlashga manfaatdor bo'lgan xohlagan milliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar (tovar yetkazib beruvchilar), sotuvchilar, mahsulotlarni (xizmatlarni) ishlab chiquvchilar va ijrochilar va boshqa xo'jalik faoliyati subyektlari, hukumat organlari ixtiyoriy sertifikatlashtirishda ariza beruvchi bo'lishlari mumkin.

Har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

Chetdan keltiriladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- ishlab chiqariladigan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi (amalda bor bo'lgan taqdirda);
- mahsulot yorlig'idan namuna yoki mahsulot to'g'risida ma'lumot;
- mahsulotning O'zbekiston Respublikasi bojxonasi hududiga kelganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan tovarga qo'shib jo'natiladigan hujjat nusxasi (tovar-transport yukxati, invoys, hisob-faktura);

– amalda bor bo‘lgan taqdirda, davlat sanitariya nazorati idorasining laboratoriyasida o‘tkazilgan sinovlarning natijalarini o‘z ichiga olgan sanitariya-epidemiologiya xulosasi va sinov bayonnomalari, me‘yoriy hujjatlarda belgilangan boshqa talablar (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza);

– olib kirilayotgan mahsulotning aniq hajmi (soni) ko‘rsatilgan tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) va mahsulotni yetkazib beruvchi hamda qabul qiluvchi o‘rtasida tuzilgan kelishuv(lar) nusxasi (mahsulotlarni 7A chizmasi asosida sertifikatlashtirilganda).

Agar arizachi ayni vaqtda sanitariya-epidemiologiya xulosasini va muvofiqlik sertifikatini olishga ariza bergan bo‘lsa, bunday holda sanitariya-epidemiologiya xulosasining nusxasi uni belgilangan tartibda rasmiylashtirgandan keyin beriladi.

Majburiy tartibda sertifikatlashtiriladigan, chetdan keltirilgan mahsulotga respublikada me‘yoriy hujjatlarda mavjud bo‘lmagan taqdirda, sifat ko‘rsatkichlari va xavfsizlik bo‘yicha sertifikatlash sinovlari o‘xshash turdagi mahsulotga bo‘lgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Arizachi tomonidan chetdan keltirilgan mahsulotga zarur bo‘lgan me‘yoriy hujjtlar yoki xavfsizlik bo‘yicha texnik tavsiflar taqdim etilmasa, mazkur mahsulotni sertifikatlash o‘xshash turdagi mahsulot hujjatlari bo‘yicha yoki identifikatsiya qilish orqali sanitariya-epidemiologiya xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Me‘yoriy hujjlarga ega bo‘lmagan, sanitariya-epidemiologiya xulosasi talab etilmaydigan, shuningdek, sinovlarni amalga oshirish uchun akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalari mavjud bo‘lmagan taqdirda mahsulotlarni sertifikatlash identifikatsiya yo‘li bilan o‘tkaziladi.<sup>32</sup>

---

<sup>32</sup> O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligi bosh direktorining 2005-yil 25-fevraldagi “Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari to‘g‘risida”gi 59-son buyrug‘i. <https://lex.uz>



Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-apreldagi “Sertifikatlash-tirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 122-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqaruvchi korxonalariga qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga yordam berish maqsadida ‘O‘zstandart’ agentligida Mahsulotlarni eksport qilishga ko‘maklashish Byurosi tashkil etildi.

Mahsulotni eksport qilishga ko‘maklashish byurosi “O‘zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi” DM tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar ilmiy sinov va sertifikatlash markazlarida bittadan vakilga ega (Toshkent viloyatidan tashqari).

Byuro o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish” agentligining qarorlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi

Byuro o‘z faoliyatini “O‘zstandart” agentligining boshqa tarkibiy bo‘linmalari hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

*Byuroning vazifalari, funksiyalari va huquqlari.* Quyidagilar Byuroning asosiy vazifalari hisoblanadi:

❖ eksportga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga standartlar, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlash, o‘rash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo‘yicha bepul maslahat xizmatlari ko‘rsatish;

❖ ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan eksportga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda xalqaro va mamlakatlararo standartlar talablarini joriy etish va ularga erishish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

❖ ishlab chiqaruvchi korxonalariga ishlab chiqarilayotgan mahsulotni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha zarur axborotlar olish uchun axborot-maslahat yordami ko'rsatish;

❖ standartlar, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha doimiy yangilab turiladigan ma'lumotnomani ishlab chiqish va joriy etish, keyinchalik uni agentligining Internet tarmog'idagi saytiga joylashtirish.

Byuro o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalaridan tushgan masalalarni o'rganadi va ularga zarur axborotlar taqdim etadi;

- mahsulot eksporti masalalari bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish yuzasidan bajarilgan ishlar to'g'risidagi materiallarni umumlashtiradi, tayyorlaydi va "O'zstandart" agentligiga taqdim etadi;

- mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritishga doir mavjud muammolarni tahlil qiladi va ularni hal etish yuzasidan "O'zstandart" agentligiga takliflar kiritadi;

- mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha dasturlar va tadbirlar tayyorlashda qatnashadi.

### **Nazorat savollari**

1. Sertifikatlashning mohiyati nimadan iborat?
2. Korxonada mahsulotlarini sertifikatlash qanday ishlardan iborat?
3. Sertifikatlash qanday amalga oshiriladi?
4. Sertifikatlashning vazifalari nimadan iborat?
5. Sertifikatlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qaysi?
6. Sertifikatlash mazmuni nimadan iborat?

## **VIII BOB. SIFAT TIZIMI VA ISHLAB CHIQRISHNI SERTIFIKATLASHNI TASHKIL ETISH**

- 8.1. Sifat tizimini sertifikatlashning mazmuni**
- 8.2. Mahsulotni sertifikatlashning axborot ta'minoti**
- 8.3. Sertifikatlash ishlarining qiymati va ularni to'lash tartibi**
- 8.4. Sifat tizimini sertifikatlashning xalqaro tajribasi (Germaniya, Fransiya va Yaponiya misolida)**

**Tayanch iboralar:** sifat tizimini sertifikatlash, sifatni boshqarishda sertifikatlash, xalqaro tajribalar.

### **8.1. Sifat tizimini sertifikatlashning mazmuni**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 22-iyuldagi 349-sonli «Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2009-yil 19-iyundagi 173-sonli «Respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining sifatni ta'minlash tizimlarini joriy etishga yunaltilgan. Bu hujjatning mamlakatda iqtisodiy siyosatni shakllantirishdagi o'rni juda katta. ISO-9000 seriyali xalqaro standartlar asosida sifat tizimlarini joriy etish davlat boshqaruv idoralarining va tadbirkorlik subyektlarining eng muhim vazifasi deb qaraladi.

Bugungi kunda tovarlar va xizmatlarni sertifikatlash muvaffaqiyatli biznes uchun zarur shartdir. Biroq sertifikatlash va har bir tizimni individual sertifikatlashtirish, sifatli tizimlarni sertifikatlash xarajatlarini kamaytirish uchun juda ko'p vaqt talab etiladi. Mahsulotlarni sertifikatlash – bu har bir mahsulot yoki xizmat turi uchun standart sifat tizimi ishlab chiqilgan bir qator chora-tadbirlardir. Bunday tizimga ega

bo‘lgan korxonada bir necha kun ichida audit o‘tkazishi mumkin. Bundan tashqari, mahsulot yoki xizmatni emas, balki mahsulot ishlab chiqaradigan yoki ma’lum ishlarni bajaradigan tashkilotni sertifikatlash mumkin. Tashkilotni sertifikatlashda ekspert uning barcha faoliyati eng yuqori sifatga mos kelishiga amin bo‘lishi mumkin.

Sifat tizimini sertifikatlash, qachonki tashkilot ISO-9001 ga mos holda ishlaydigan sifat tizimini taqdim eta olsagina amalga oshiriladi. Sertifikatlash jarayonining o‘zi quyidagi jihatlarga asoslanadi:

- ❖ shartnoma tahlili, unda mutaxassis kompaniya faoliyati to‘g‘risida ma’lumot to‘playdi va auditni rejalashtiradi;

- ❖ dastlabki audit kompaniyaning boshqaruv xodimlarini tekshirishdan iborat va ular bilan birgalikda o‘zlarining sifat sertifikatlash tizimini tanlaydi;

- ❖ agar kompaniya faoliyatining ba’zi jihatlari o‘tkazilgan tadqiqotlarga mos kelmasa, tavsiyalar mutaxassis tomonidan beriladi;

- ❖ sertifikat berish to‘g‘risidagi qaror ekspert yoki ekspertlar guruhi tomonidan vaziyatni tahlil qilgandan so‘ng qabul qilinadi;

- ❖ sifat tizimidagi har qanday o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida nazorat auditi yiliga bir marta takrorlanadi;

- ❖ takroriy audit sertifikat muddati tugagandan so‘ng amalga oshiriladi.

Sifat tizimlarini sertifikatlashni amalga oshirish uchun ma’lum bir ekspert tashkilotini tanlash kerak, ammo tanlov kompaniyaning o‘ziga xos faoliyatiga asoslangan bo‘lishi kerak. Ya’ni har bir ekspert tashkiloti ma’lum bir sertifikatlash sohasi bilan shug‘ullanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, sifat tizimlarini sertifikatlash ham kompaniya egalari, ham auditorlar uchun juda qulaydir.

9000 seriyali ISO standartiga mos keluvchi sifatni ta’minlash tizimlarini sertifikatlashtirish chet mamlakatlarida keng rivojlangan hisoblansa, ayni paytda Rossiyada oxirgi 2 yil mobaynida bu muam-moga jiddiy e’tibor berilmoqda. Balki bunday ortda qolishning sabab-laridan biri mahalliy ishlab chiqarish sur’ati tushib ketganligi va ishlab

turgan korxonalarining o'z mahsulotlarini eksportga chiqarishga bo'sh yo'nalganligidir.

Hozirgi kunda Rossiyaning juda oz miqdordagi ishlab chiqarish korxonalari sifat tizimlarini sertifikatlashtirish ahamiyati va zarurligini angladilar xolos. Faqat bir necha o'n Rossiya korxonalari sifat tizimlari bo'yicha sertifikatga egadirlar. Chet elda esa bir necha o'n minglab firmalar va korxonalar shunday sertifikatlarga ega.

Chet el mutaxassislari sifatni ta'minlash tizimiga mos keluvchi sertifikat firmaga juda katta yutuq va ustunlik beradi deb hisoblaydilar. U biznes bo'yicha sherikning ishonchliligini, shuningdek, sifat tizimi sertifikatlashtirilgan firmalarga bajonidil kredit beruvchi banklar bilan aloqada ishonchlilikni ta'minlaydi.

Sifat tizimiga sertifikat – mahsulot yetkazib berish shartnomasini tuzishda asosiy omillardan biri bo'lib, g'arb ekspertlarining fikricha, yaqin kelajakda Yevropa bozorlarida 95% gacha shartnomalar mahsulot yetkazib beruvchi firmada sifat tizimi sertifikati bo'lgandagina tuzilishi ko'zda tutilmoqda. Sifatsiz mahsulot bilan bog'liq bo'lgan sud da'volari vujudga kelganda, tizim sertifikati sud tomonidan firmaning aybsizligini isboti sifatida baholanadi.

Sifat tizimiga sertifikatning mavjudligi turli xil tenderlarda ishtirok etish uchun zaruriy shart bo'ladi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish firmaning (korxonaning) ichki ishlarida ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi: sifat tizimini sertifikatlashtirishga tayyorgarlik jarayonida ishlab chiqish va korxonani boshqarishni tartibga solib bozor iqtisodiyotiga mos kelishi uchun zamin yaratiladi, mahsulotni sertifikatlashtirish ishlari yengillashadi.

Sertifikatlashtirilgan sifat tizimi korxonani kerakli mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish qobiliyatini xarakterlaydi va firmani ham ichki, ham tashqi bozorlarda raqobatbardoshligining muhim omillari deb qarash mumkin. Endilikda o'z mahsulotlarini eksport qilishni rejalashtirgan mahalliy korxonalar uchun sifat tizimini sertifikatlashtirish – shartnoma tuzish va mahsulotni munosib sotish imkoniyatlarini belgilovchi muhim shart hisoblanadigan alohida bir atmosfera vujudga

kelmoqda.

Hozirgi vaqtda shunday muammoga duch kelgan korxonalar kam emas. Achinarlisi shuki, chet el strukturalari bilan kontraktlar tuzish borasidagi bo‘lgan muzokaralarda, sifat tizimiga sertifikatning mavjud emasligi shartnoma tuzmoqchi bo‘lgan korxonalar uchun ko‘zlangan imkoniyat doirasida qoniqarli bo‘lmagan holda yakunlanishi mumkin.

Rossiyada bozor munosabatlarining rivojlanishi, shuningdek, uning tashqi iqtisodiy vazifalari, RF Davstandartini 1995-yilda RFda sifat tizimlarini sertifikatlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha ishlar dasturini qabul qilishga rag‘batlantirdi.

Bu dasturga mos ravishda «Sifat tizimlarini registri» deb ataluvchi «Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish tizimi» ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Bu ko‘ngilli sertifikatlashtirish tizimidir, ammo u, ma’lum bo‘lgan majburiy sertifikatlashtirish tizimini o‘zida namoyish etgan davlat Rossiya GOST RF tizimining bir qismini tashkil etadi. RF uchun yangi bo‘lgan kungilli tizimni GOST RF tizimiga kirish haqidagi qarori qabul qilingan va GOST RF tizimini Rossiyada va uning sertifikat va mos kelish belgisi e’tiborga ega bo‘lib borayotgan chet davlatlarida ma’lumligiga asoslangan. Tasodif emaski sifat tizimi registrli mos kelish belgisi GOST RF tizimi belgisidan fa.at belgi oldida «Registr» yozuvi va belgi tagida ISO standarti nomerini ko‘rsatish bilan farqlanadi.

Bularning barchasi sifat tizimlariga beriladigan Rossiya sertifikatlarini RF da va chet elda tanilishini tezlashtirishga yo‘naltirilgan.

Xalqaro mustaqil sertifikatlashtirish tashkiloti (II OS) ham mavjud bo‘lib, bu tashkilot mahsulotlar va sifat tizimlari sertifikatlashtirishi bo‘yicha 7 ta katta-katta xalqaro firmalarni Det Norske Veritas, Registr Lloyda, TYuF – SERT va boshqalarni o‘z tarkibiga olgan. Tashkilotning asosiy vazifasi ISO-9000 seriyasidagi xalqaro standarti bo‘yicha sifat tizimlarini tatbiq etish va sertifikatlashtirishdan, eng muhimi, qayta sertifikatlashtirishlar o‘tkazilishini oldini olish va sertifikatlashtirishga

katta nufuz berishdan iborat<sup>33</sup>.

Xalqaro akkreditlash bo'yicha forum (IAF)19 ta akkreditlash bo'yicha milliy idoralarni birlashtirgan bo'lib, uning tarkibiga Avstriya, Kanada, AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Xitoy va rivojlangan davlatlarning akkreditlash bo'yicha milliy idoralari kiritilgan.

1994-yilda ISO Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish uchun ixtisoslashtirilgan bo'lim (QSAR) tashkil qilish tashabbusini ko'tarib chiqqan edi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – ko'proq yagona tartiblar asosida o'tkaziladigan auditor tekshiruvlari bo'yicha yagona shakldagi sertifikat berishni keng ravishda tatbiq etish.

MEK ham o'z sertifikatlashtirish tizimiga ega bo'lib, bunda ISO-9000 seriyasidagi standartlardan foydalaniladi. Shuning uchun ham QSAR ning sertifikatlashtirish tizimi MEK tizimi bilan o'zaro uyg'un hisoblanadi. QSAR sifat tizimini sertifikatlashtirishidan o'tgan firmalar QSAR belgisini ishlatishlari mumkin.

Sanoati rivojlangan davlatlarda sertifikatlashtirish o'tgan asrning 20–30-yillarida paydo bo'ldi. Lekin milliy sertifikatlashtirish tizimlari keyinroq yaratildi. Qator mamlakatlarda ular faqat eksport qilinadigan mahsulot sifatini oshirish uchun bunyod qilingan edi (Yaponiya, Hindiston, sobiq Yugoslaviya va boshqalar).

## **8.2. Mahsulotni sertifikatlashning axborot ta'minoti**

Sertifikatlash jarayonining axborot ta'minoti deganda – ushbu jarayon uchun asos bo'la oladigan huquqiy, iqtisodiy va boshqa turdagi axborot manbalari tushuniladi. Masalan, sertifikatlashtirish jarayoniga tegishli qonun va qarorlar, normativ hujjatlar, xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirishga doir talab va taklif normalari va boshqalar bo'lishi mumkin. Bugungi kunda bu kabi axborotlarni izlash, topish va undan foydalanishni internet sahifalari orqali amalga oshirish imkoni

---

<sup>33</sup>Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NW Washington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.

mavjud. Ammo axborotning ishonchliligi nuqtai nazardan har qanday internet sahifalaridan foydalanish sertifikatlash jarayonining sifatiga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin.

Sertifikatlashning huquqiy asosi bo'lmish O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonuni 1993-yil 28-dekabrda qabul qilindi. Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa obyektlarni shu jumladan ishlab chiqarish jarayonlarini, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash sohasida xodimlar sifatida ishtirok etishga talabgor mutaxassislarni (matnda bundan keyin «mahsulotlar» deb yuritiladi) sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek, sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi. Qonun 4 ta bob, 23 ta moddadan iborat bo'lib, qonunning bo'limlari quyidagicha nomlanadi:

- I bob. Umumiy qoidalar;
- II bob. Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar;
- III bob. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish;
- IV bob. Nizolarni qarab chiqish. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Qonunga muvofiq, sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish «O'zstandart» agentligiga yuklatilgan. O'rnatilgan qoidalarga ko'ra bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sertifikatlashtirish ishlarini bajaradi va bu idoralar majburiy ravishda akkreditatsiyalanadi. Majburiy sertifikatlashtirish subyektlariga «O'zstandart» agentligi, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinash laboratoriyalari (markazlari), nazorat idoralari, mahsulotni tayyorlovchilar kiradi. Sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar bir turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish tizimlarini yaratish, sertifikatlashtirish tarzi va so'rovchilarga sertifikatlashtirilgan mahsulotga muvofiqlik belgisini qo'llashga ruxsat berish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi «Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan



takomillashtirish to‘g‘risida» PF-6240-son Farmoniga asosan O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Texnik jihatdan tartibga solish agentligi) tashkil etildi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya sohalarida davlat siyosatini amalga oshiruvchi respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi «O‘zstandart» agentligining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

1997-yil 8-avgustda O‘zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni ham sertifikatlashtirishning huquqiy asosi bo‘ladi. Bu qonun gigiyenik sertifikatlarni rasmiylashtirish zarurligini belgilaydi. Bunday sertifikat asosida oziq-ovqat mahsuloti davlat ro‘yxatiga kiritiladi va muvofiqlikka sertifikatlashtirish o‘tkaziladi.

Shuningdek, respublikamizda ekologik sertifikatlashtirish ham mavjud bo‘lib, uning maqsadi – atrof-muhitni juda kam darajada iflos qiluvchi va iste’molchiga uning hayoti va sog‘lig‘i uchun mahsulotning xavfsizligiga kafolat beruvchi mollarni tayyorlash va texnologik jarayonlarni joriy etishda ishlab chiqaruvchini rag‘batlantirishdan iborat.

### **8.3. Sertifikatlash ishlarining qiymati va ularni to‘lash tartibi**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyuldagi 318-sonli «Mahsulotni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Bu qaror tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishdagi burokratik to‘siqlarni olib tashlash va soddalashtirishga yo‘naltirilgan. Bu qarorning muhimligi shundaki, 2004-yil

1-oktabrdan boshlab mahsulotlarning oʻrnatilgan talablarga muvofiq-  
ligini deklaratsiya yuli bilan tasdiqlash tizimi kiritilgan.

Sertifikatlashtirish tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan  
iborat:

- sertifikatlashtirishda qoʻllaniladigan hujjatlarning yagona tizimi-  
ni tashkil qilish;
- yagona atama va taʼriflarni ishlab chiqish;
- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishning qoida va tartib-  
larini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish uchun oʻtkaziladigan sinovlarning qoidalarini  
ishlab chiqish (bundan keyin sertifikatlashtirish sinovlari);
- sertifikatlashtirish qatnashchilarining davlat boshqaruv idoralari  
bilan oʻzaro hamkorlik tartiblarini aniqlash.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi Oʻzbekiston Respublikasining  
qonuniy va meʼyoriy hujjatlariga muvofiq faoliyat olib boradi. Oʻzbekis-  
ton Respublikasida sertifikatlashtirish tizimining quyidagi sertifikatlash-  
tirish turlari amalga oshiriladi:

- majburiy sertifikatlashtirish;
- ixtiyoriy sertifikatlashtirish.

Oʻzbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida  
quyidagi faoliyat turlari olib boriladi:

- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;
- sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish;
- majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi ustidan  
nazorat olib borish;
- yuqoridagi keltirib oʻtilgan faoliyat yunalishlari boʻyicha  
ekspert-auditorlarni tayyorlash va attestatsiyalash kabi faoliyat turlarini  
yuritadi.

#### **8.4. Sifat tizimini sertifikatlashning xalqaro tajribasi**

Fransiyada NF belgili milliy sertifikatlashtirish tizimi uchinchi tomon sertifikatlashtirishiga mansub va:

- ishlab chiqaruvchi korxonalar buyurtma berishini;
- korxonalarining sifatni ta'minlovchi tizimlarini baholashni o'tkazishni;
- mahsulot namunalari sinovdan o'tkazishni;
- mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini beradigan sertifikat yoki litsenziyalarni berishni;
- ishlab chiqarish yoki savdo doirasidan olingan mahsulotni davriy nazorat qilish hamda korxonalarda nazoratni amalga oshirishni nazarda tutadi.

1983-yilda mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini bir necha ming xil mahsulotni chiqaradigan 2000 korxonaga olgan. Muvofiqlik belgisi bilan chiqarilgan mahsulotning umumiy hajmi 40 mlrd. frankka yetgan.

1981-yildan boshlab Fransiya hukumati 18 milliy tashkilotni sertifikatlashtirish bo'yicha vakolatli organ sifatida tan oldi, ularning ichida eng nufuzligi AFNOR dir.

Germaniyada standartlarga muvofiqlik belgisi (DIN) 1920-yil nemis standart instituti tomonidan ta'asis qilingan. U mahsulotning barcha turlariga (namunalarni sinovini o'tkazish va ishlab chiqarishni nazorat qilishning maxsus tartibiga ega bo'lgan gaz jihozlari, suv bilan ta'minlash jihozlari va boshqa ayrim mahsulotlar bundan istisno) tarqalgan.

DIN standartlariga muvofiqlikni sertifikatlashtirish tizimi mahsulotning 110 guruhini qamrab olgan. Unga mahsulotni DG-WK (mahsulotni tamg'alash Nemis assotsiatsiyasi) belgisi bilan tamg'alash uchun 15000 dan ortiq litsenziya berilgan. Bu sertifikatlashtirish tizimida amaldagi qoidalarga rioya qilish majburiyatini olish sharti bilan xorijiy yetkazib beruvchilar ishtirok etishlari mumkin.

Germaniyada mahsulotning aniq turlarini, masalan, elektrotexnik va elektron jihozlarni sertifikatlashtiradigan tizimlar ham mavjud.

Elektron jihozlarni sertifikatlashtirish nemis elektrotexnika assotsiatsiyasi (VDE) qaramog'i ostida faoliyat ko'rsatadi. DIN bilan kelishib VDE elektrotexnika, elektronika va aloqa doiralarida milliy standartlar ishlab chiqadi.

Buyuk Britaniyada boshqa rivojlangan mamalatlardagidek bir necha milliy sertifikatlashtirish tizimlari amal qiladi. Ularning ichida eng kattasi Britaniya standart instituti (BSI) yaratgan tizimdir.

U milliy standartlariga muvofiqlik maxsus belgisiga ega. Mazkur tizim doirasida sertifikatlashtirish ishlariga rahbarlikni sifatini ta'minlash Boshqarmasi BSI QUAD amalga oshiradi. Mahsulotni sertifikatlashtirish tartibi Fransiya va Germaniyada qo'llanadigan tartibga o'xshaydi.

Korxonalar BSI ni ogohlantirmasdan mahsulotni o'zgartirmaydilar. Mahsulotga kiritiladigan o'zgartirishlar faqat o'zgartirilgan mahsulot standart talablariga javob berishini tasdiqlaydigan sinovlar o'tkazgandan keyingina QUAD tomonidan tan olinadi. Litsenziyaning muddati bir yil, undan keyin u cho'zilishi kerak.

Britaniya tizimi 250 milliy standartlarni qamrab oldi, milliy va xorijiy firmalarga mingdan ortiq litsenziya berilgan. BSI muntazam ravishda sertifikatsion mahsulotlar ro'yxatini chop etadi hamda xaridorlar uchun qo'llanma nashr etadi, unda har bir milliy standart bo'yicha berilgan sertifikat haqida ma'lumot beradi.

AQSHda, G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan farqli ravishda sertifikatlashtirishning yagona qoidalari yo'q. Ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyalari va xususiy kompaniyalar qoshida yuzlab tizimlar amal qiladi. Standartlashtirish sohasida ham holat shunday, ya'ni standartlarni turli mavqega ega yuzlab tashkilotlar ishlab chiqadi. Shuning uchun mavjud sertifikatsiyalash tizimlari uchun umumiy mezonlar yaratish bo'yicha harakat qilinmoqda. Shu maqsadda sinov laboratoriyalarini

akkreditatsiyasi milliy tizimi yaratilgan va sertifikatsiyalash tizimlarini ro'yxatga olish tizimi yaratilmoqda<sup>34</sup>.

AQSHda sertifikatlashtirish milliy miqyosda ham, xalqaro miqyosda ham mahsulot sifatining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bu mamlakatda sertifikatlashtirish majburiyligi haqidagi qonun amalda. Sertifikatlashtirishning zarurati esa ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotning yuqori darajada raqobatbardoshligini ta'minlashga erishishni talab qiladi.

AQSHda Sug'urta kompaniyalari milliy laboratoriyasi, Amerika gaz sanoati korxonalari laboratoriyasi, Nebraska shtatidagi qishloq xo'jaligi texnikasini sinash markazi qoshida yaratilgan sertifikatlashtirish tizimlari katta obro'ga ega. Ular bilan bir qatorda 2000 dan ortiq tijorat sinov laboratoriyalari mahsulotning keng assortimentini standart talablariga muvofiqligini sinash bo'yicha o'z xizmatlarini taklif qiladilar.

Sertifikatlashtirish amalga oshiriladigan standartlar sifatida Amerika standartlar instituti UL standartlari, yong'indan saqlash Milliy assotsiatsiyasi standartlari va boshqalar xizmat qiladi. Odatda, AQSH me'yoriy hujjatlari talablarini hisobga olmagan xalqaro standartlar va boshqa mamlakatlarning standartlari sertifikatsiya o'tkazish uchun qabul qilinmaydi, ya'ni import qilinadigan mahsulotning ma'lum diskriminatsiyasi mavjud<sup>35</sup>.

Yaponiyada 1949-yilda mamlakat olimlari va muxandislari uyushmasi qoshida sifatni nazorat qilish muammosini o'rganish bo'yicha maxsus guruh tashkil qilingan. 60- yillarning oxirida esa mamlakatda ishlab chiqarishda sifat nazorati to'la hajmda tatbiq etilgan.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash asosiy tamoyillari quyidagilardir:

---

<sup>34</sup>Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NW Washington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.

<sup>35</sup>Quality systems and standards for a competitive edge. J. Luis Guasch, Jean-Louis Racine, Isabel Sánchez, Makhtar Diop. 2007. NWWashington, DC 20433. ISBN-13: 978-0-8213-6894.

- korxonada barcha bo‘linmalari va hamma xodimlari ishtirok etadigan mahsulot sifatining to‘la nazorati;
- sanoat tarmoqlari bo‘yicha mahsulot sifati nazorati sohasida o‘qitish;
- sifat to‘garaklari faoliyati;
- sifat nazoratining statistik usullarini qo‘llash;
- sifat g‘oyalarini targ‘ibot qilish bo‘yicha milliy kompaniya.

Sifat muammolariga bunday fundamental yondashishda Yaponiyada sertifikatlashtirish yapon tovarlarning yuqori sifat darajasini ta‘minlash va jahon bozorida ular raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida ko‘riladi.

Sanoat standartlashtirish qonuniga binoan mahsulotni yapon industrial standartlari JIS talablariga muvofiqligi belgisi bilan tamg‘alash ko‘rsatilgan. U mamlakatda sanoat standartlarini ommalashtirish samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi hamda firmalar darajasida sifat nazorati usullari tarqalishiga ko‘maklashadi.

JIS belgisidan foydalanish huquqini sanoatning tegishli tarmoqdar vazirlari beradi. Muvofiqlik belgisi ikki shaklda bo‘ladi: “A” va “V” shakllari, ular mahsulot va texnologik jarayonlar milliy standartlarga muvofiqligini belgilash uchun qo‘llanadi. Hukumat JIS belgisi bilan tamg‘alangan mahsulot va texnologik jarayonlar sifatini kafolatlaydi.

1980-yilgacha xorijiy ishlab chiqaruvchilarga JIS belgisini qo‘llash man etilar edi. Keyinchalik xorijiy yetkazib beruvchilar yapon ishlab chiqaruvchilari bilan bir qatorda sertifikatlashtirish protsedurasida qatnashish huquqiga ega bo‘ldilar.

Ko‘rib chiqilgan muvofiqlik belgisi JIS bilan bir qatorda Yaponiyada ishlov berilgan oziq-ovqatlar, qishloq xo‘jalik va baliq mahsulotlari uchun JIS belgisi ta‘sis qilingan. U oziq-ovqat, qishloq xo‘jalik va o‘rmon mahsulotlarini standartlashtirish va tegishli ravishda tamg‘alash bo‘yicha qonun asosida kiritilgan.

Sertifikatlashtirish tizimlari yapon sanoatining barcha tarmoqlari: mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati va boshqalarni qamrab

oladi. 1983-yil martida yapon va xorijiy korxonalariga tegishli ravishda tamgʻalangan mahsulot chiqarish huquqini beradigan 16000 va 20000 litsenziya berilgan.

Hozirgi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlarda sertifikatlashtirish barcha sohalarda tatbiq etilmoqda. Bu ikki omil bilan belgilanadi:

1) iste'molchiga mahsulot sifatining barqaror darajasini ta'minlashga intilish;

2) ichki va tashqi bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga intilish. Agar ratsiblardan biri u ishlab chiqqan mahsulot sertifikatlashdan o'tdi desa, boshqa raqobat qiluvchi firmalar zudlik bilan o'xshash choralarni ko'rishga majbur.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi sertifikatlashtirish. Sertifikatlashtirish rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keng tarqalgan. Milliy sertifikatlashtirish tizimlarining tashkiliy tamoyillari uchinchi tomon sertifikatlashtirish tamoyillariga mos keladi. Bunday holat rivojlanayotgan mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanishi tufaylidir.

Hindistonda sertifikatsion belgisi 1952-yilda kiritilgan. Mahsulotni tamgʻalash tizimi, muvofiqlik belgisini boiqarish hindiston standartlar instituti (ISI) zimmasiga yuklatilgan.

Har qanday ishlab chiqaruvchi korxonaga mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamgʻalash huquqini beradigan litsenziya olish uchun ISI ga murojaat qilishi mumkin. Buyurtma olgandan keyin ISI korxonaga hamma bo'linmalarini, korxonaga kirib keladigan material, jamlovchi uzal va detallardan boshlab oxirgi mahsulotgacha o'lchash va sinash jihozlanganligani tekshiradi. Tekshirish natijalari ijobiy bo'lsa, korxonaga o'z mahsulotini tamgʻalash huquqini oladi. ISI tomonidan berilgan har bir litsenziya tarkibida mahsulot namunalarini sinash va nazorat qilish shakli bor.

Litsenziya amalda bo'lgan muddat ichida ISI:

– korxonalariga ISI nazoratchilari muntazam ravshida tashrif buyuradilar, shu paytlarda nazorat sinovlarini o‘tkazish maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulot namunalari ajratib olinadi;

– savdo doirasidan olingan mahsulot namunalarini sinaydi;

– xaridorlar yoki iste’molchilar muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alangan mahsulot sifati ustidan qilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqadi.

Litsenziya amalining muddati bir yil, undan keyin litsenziya muddati cho‘zilishi kerak. Buning uchun korxonalar litsenziya muddati tutashiga bir oydan kam vaqt qolmaganda ISI ga murojaat qilishi kerak. ISI ning muvofiqlik belgisi xorijiy mahsulotga berilishi mumkin emas, chunki u birorta boshqa mamlakatda ro‘yxatga olinmagan.

Hindistonda mashinasozlik, kimyo, elektrotexnik va elektron sanoat va boshqa korxonalariga o‘z mahsulotini tamg‘alash huquqini beradigan 10000 dan ortiq litsenziya berilgan.

Tailandda sertifikatlashtirish tizimi 1968-yilda tashkil qilingan. Tailand sanoat standartlari instituti (TISI) boshqaradi.

TISI sertifikatlashtirish tizimi ishlab chiqarish holatini doimiy nazorat qilish va mahsulot sinovlarini o‘tkazishga moslangan.

Majburiy sertifikatlashtirishda import qilinadigan buyumlar milliy korxonalar buyumlari bilan bir sharoitlarda tamg‘alanadi.

Milliy sertifikatlashtirish tizimlari milliy standartlashtirish tizimi bor boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ham (masalan, Turkiya, Kolumbiya va boshqalar) mavjud.

**O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish.** O‘zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar (ISO, ILAK, YeOK va boshq.) bilan hamkorligi mamlakatda bozor munosabatlari shakllanish davrida, ayniqsa, zarur bo‘lib qoladi. Yevropa hamjamiyatining yagona bozor “ichki chegaralarsiz fazo” yaratish niyati bu tashkilotlar oxirgi yillardagi strategiyasini aniqlab berdi. Uning bosh yo‘nalishi bo‘lib YeI komissiyasi bilan hamkorlikda xalqaro savdodagi texnikaviy to‘siklarni bartaraf qilishdir.



O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish me‘yoriy negizini O‘zRST5.0-98, O‘zRST 5.1-95, O‘zRST 5.2.-93, O‘zRST 5.3-92, O‘zRST 5.4-93, O‘zRST 5.5-93 va Milliy sertifikatlashtirish tizimining (O‘zRMST) rahbarlik hujjatlari majmui tashkil qiladi.

O‘zRMSTda quyidagi faoliyat turlari nazarda tutilgan:

- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;
- sifat tizimlari va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish;
- sinov laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlash;
- bir jinsli mahsulotni sertifikatlashtiruvchi organlarni akkreditlash;
- sifat tizimlari va ishlab chiqarishni sertifikatlashtiruvchi organlarni akkreditlash;
- nazorat organlarini akkreditlash;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat tizimlari va ishlab chiqaruvchilar, akkreditlangan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) ustidan inspeksiya nazorati;
- majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan nazorat;
- aytib o‘tilgan faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ekspert-auditorlarni tayyorlash va attestatsiyalash.

Sertifikatlashtirish mahsulot, jarayonlar va xizmatlar:

- davlatlararo standartlar (MDH mamlakatlari);
- O‘zbekiston Respublika standartlari va boshqa mahsulotga bo‘lgan talablarni joriy qilgan chizmaviy nashr etilgan hujjatlar;
- O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish organi (O‘z-davstandart) nomida qo‘shilgan sertifikatlashtirish xalqaro va xorijiy milliy standartlari talablariga muvofiqligi tasdiqni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida sifat tizimlarini sertifikatlashtirish me‘yoriy negizini ISO-9000 seriyali xalqaro standartlari va O‘zRMSTning rahbarlik hujjatlari majmui tashkil qiladi.

ISO-9000 seriyali standartlar nomi:

ISO-9000. Sifat umumiy boshqaruvi va sifatni ta'minlovchi standartlar. Tanlash va qo'llash bo'yicha rahbarlik ko'rsatmalari.

ISO-9001. Sifat tizimi. Loyihalash yoki ishlab chiqish, ishlab chiqarish, montaj va xizmat qilishda sifatni ta'minlash modeli.

ISO-9002. Sifat tizimi. Ishlab chiqarish va montaj paytida sifatni ta'minlash modeli.

ISO-9003. Sifat tizimi. Yakuniy nazorat va sinovlarda sifatni ta'minlash modeli.

ISO-9004. Sifatning umumiy boshqaruvi va sifat tizimi elementlari. Rahbarlik ko'rsatmalari.

ISO-9000 seriyali xalqaro standartlari tashilot (korxonaga) sifat sohasida quyidagi masalalarni yechishga yordam beradi:

➤ mahsulot yoki xizmat sifatini iste'molchilar aniqlangan yoki taxmin qilingan ehtiyojlarini doim qondirilishi ta'minlaydigan darajaga erishish va uni saqlab turish;

➤ o'z rahbariyatida muljallangan sifatga erishilmoqda va u berilgan darajada saqlanib turganligi haqida ishonchni ta'minlash;

➤ iste'molchida mo'ljallangan mahsulot sifati va taqdim etilayotgan xizmat sifatiga erishilganlik yoki erishilishi lozimligi haqidagi ishonchni ta'minlash.

Ishonchni ta'minlash agar kontraktda nazarda tutilgan bo'lsa, isbotlarni taqdim etish haqida o'zaro kelishilgan talablar bo'lishi mumkin.

### **Nazorat va mulohaza uchun savollar**

1. Xalqaro sertifikatlashtirish tizimining xususiyatlari nimada ?
2. Xalqaro sertifikatlashtirish tizimining asosiy afzalliklari qanday?
3. Xalqaro sertifikatlashtirish tizimining asosiy ko'rsatkichlarini sanab bering.
4. Xalqaro sertifikatlashtirishning qanday turlari mavjud?

## **IX BOB. MAHSULOT SIFATINI OSHIRISHDA EAN SHTRIX KODLARNI JORIY ETISH**

**9.1. Mahsulot sifatining kontrafakt mahsulot bilan kurashishdagi roli**

**9.2. Shtrix kodlarning yaratilishi va uning xalqaro savdoga ta'siri**

**9.3. "EAN International" tovarlarni raqamlash bo'yicha Xalqaro Uyushma faoliyati**

**Tayanch iboralar:** mahsulot sifati va raqobatbardoshligi, sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligi, sifatni boshqarish usullari.

### **9.1. Mahsulot sifatining kontrafakt mahsulot bilan kurashishdagi roli**

Kontrafakt mahsulot – bu intellektual mulk huquqlarini buzgan holda ishlab chiqarilgan va sotiladigan tovarlar. Kontrafakt tovarlarni ishlab chiqarish va sotish nafaqat original ishlab chiqaruvchilarning intellektual mulkka bo'lgan huquqlarini buzadi, balki iste'molchilarning hayoti va sog'lig'iga ham xavf soladi.

"Kontrafakt" atamasi har qanday shaxsning intellektual mulk huquqlarini buzgan holda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotga tegishli. Kontrafakt ishlab chiqaruvchilar taniqli brendlar va logotiplarni qonuniy brend egasi tomonidan ishlab chiqarilmaydigan soxta mahsulotlarga joylashtirish orqali xaridorlarni yo'ldan ozdiradi. Ushbu mahsulotlar xavfsiz va o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lishi mumkin, ammo ularni ishlab chiqarish va sotish noqonuniy hisoblanadi.

Qonunchilik darajasida kontrafakt mahsulot O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 267-II-sonli "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" va 2006-yil 20-iyuldagi O'RQ-42-sonli "Mualliflik huquqi va turdosh

huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunlarda keltirilgan.

№267-II, 27-moddasi: “Tovar belgisidan yoki adashtirib yuborish darajasida u bilan o‘xshash bo‘lgan belgidan tovarlarda, tovarlarning etiketkalarida, o‘rovlarida qonunga zid ravishda foydalanilganda ular soxtalashtirilgan (kontrafakt) bo‘ladi”.

O‘QR-42, 62-moddasi: “Asarlarning va turdosh huquqlar obyekt-larining takrorlanishi yoki tarqatilishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan holda amalga oshiriladigan nusxalari kontrafakt nusxalardir. Ushbu qonunga muvofiq muhofaza qilinadigan asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining bunday asarlarni va turdosh huquqlar obyektlarini muhofaza qilish to‘xtatilgan yoki hech qachon muhofaza qilinmagan davlatlardan huquq egalari-ning roziligisiz import qilinadigan nusxalari ham kontrafakt nusxalardir”.<sup>36</sup>

Ko‘p holatlarda kontrafakt mahsulotlar asl mahsulot sifatiga mos ravishda ishlab chiqariladi, bu firibgarlarga ularni ko‘p miqdorda sotish va shu bilan iste‘molchini aldashga imkon beradi.

Endilikda har yili O‘zbekistonda 15-fevraldan 15-martgacha “Kontrafakt mahsulotsiz bir oy” tadbiri o‘tkaziladi. Uning maqsadi butun respublika bo‘ylab kontrafakt mahsulotlar sotilishiga qarshi samarali kurashishdan iborat.

Ushbu davlat organlarining zimmasiga kontrafakt mahsulotlar aylanmasiga qarshi kurashish vazifasi yuklatilgan:

➤ O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti “xufiya iqtisodiyot”ning shakllanish faktlarini aniqlash, yashirin sexlar faoliyatiga va kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqarilishiga chek qo‘yish bilan shug‘ullanadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi kontra-bandaga qarshi va kontrafakt mahsulotlar o‘tishi, shu jumladan, parallel import o‘tishiga qarshi kurashish vakolatiga ega;

---

<sup>36</sup> O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi huzuridagi Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi rasmy veb sayti. <https://consumer.gov.uz/agentlik>

➤ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi chakana savdo joylarida kontrafakt, qalbakilashtirilgan va noqonuniy olib kiritilgan mahsulotlar savdosiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilishi uchun mas‘ul;

➤ Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasini ta‘minlash, mualliflarning va boshqa huquq egalari huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilishini amalga oshiradi.

O‘zbekiston tovarlarining ichki va xorijiy bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, tovar ishlab chiqaruvchini tovarlarni raqamlashning xalqaro tizimlari doirasida identifikatlashtirish, iste‘molchi huquqlarini himoya qilish, tovarlar ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan hisobini yuritishni ta‘minlash maqsadida joriy etdi.

1. Quyidagilar:

– “EAN International” tovarlarni raqamlash Xalqaro Uyushmasi (Belgiya) tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga 478 raqamli identifikatlashtirish kodi berilganligi;

– O‘zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan xalqaro talablarga muvofiq, tovarlari YeAN shtrixli kodlari bilan tamg‘alanadigan tadbirkorlik faoliyati subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish hamda tovarlarni identifikatlashtirish tizimidan foydalanuvchilar faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish uchun “EAN Uzbekistan” tovarlar va xizmatlarni avtomatik identifikatlashtirish markazi tashkil etilganligi;

– “O‘zdavstandart” markazi tomonidan shtrixli kodlarning original-maketlarini tayyorlash markazi tashkil etilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlarni shtrixli kodlash to‘g‘risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “O‘zstandart” agentligiga:

– O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlarni shtrixli kodlash tizimini joriy etish bo‘yicha yagona siyosatni amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlar shtrixli kodlarining davlat reestrini yuritish;

– O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq shtrixli kodlash tizimi qo‘llash tartibini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlarni va uslubiy materiallarni ishlab chiqish;

– tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlarni turli manbalardagi shtrixli kodlar original-maketlari bilan ta‘mirlash funksiyalari yuklandi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi O‘zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi hamda “O‘zdavstandart” markazi bilan birgalikda 1999-yil sentyabr oyida Toshkent shahrida sanoat, qishloq xo‘jaligi va savdo korxonalarini vakillarini ko‘rsatib o‘tilgan tizimni qo‘llash xususiyatlari bilan tanishtirish uchun “O‘zbekiston Respublikasida tovarni raqamlash (shtrixli kodlash)” mavzusida respublika seminari o‘tkazildi.

5. Mulkchilikning barcha shakllaridagi yuridik shaxslarga tovarlarni shtrixli kodlashni:

– eksport qilinayotgan mahsulotlarni, yangi tovarlarni va ular uchun yangi etiketkalar yoki o‘rash-joylash buyumlari buyurtma qilinayotgan tovarlarni tamg‘alashni 2000-yil 1-martgacha;

– boshqa barcha tovarlarni tamg‘alashni 2000-yil oxirigacha joriy etish tavsiya qilindi.

Belgilab qo‘yilsinki, o‘z mahsulotiga “EAN International” shtrixli kodini uchinchi mamlakatlarda olgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari undan ushbu qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil mobaynida foydalanishlari mumkin.

## 9.2. Shtrix kodlarning yaratalishi va uning xalqaro savdoga ta'siri

**Shtrix kod** – bu qora va oq ranglardan iborat bo'lgan, texnika vositalari orqali ma'lum bir axborotni hisob-kitob qilishga yordam beradigan jarayon hisoblanadi.

Shtrix kodlash tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1948-yili Drekselya (Filadelfiya) universiteti aspiranti Bernard Silver (1924–1962) mahalliy oziq-ovqatlar ishlab chiqaradigan kompaniyasining prezidenti universitet dekanidan yangi avtomatik tarzda mahsulotlar haqidagi axborotni o'qiydigan va hisoblaydigan tizim yaratishini so'raganini eshitib qoldi.

B. Silver bu haqda do'stlari – Djordin Djoxenson va Norman Djozef Vudlandlarga so'zlab berdi. Ular birgalikda markirovka tizimi ustida izlanishga kirishdilar.

Ular tomonidan birinchi ishlab chiqilgan tizim ultrafiolet siyohlardan iborat bo'lib u juda qimmat hamda vaqt o'tishi bilan uchib ketardi. Tizimni amalga oshirish mumkinligiga ishongan N.D.Vudland ishni davom ettirish uchun Floridaga bordi.

Keyingi urinishlarida Morze alifbosi unga yordam berdi. U o'zining birinchi shtrix-kodini dengiz qirg'og'idagi qumdan tuzdi: “Men faqatgina pastdagi nuqta va tirelarni kengaytirdim va ulardan qisqa va uzun vertikal chiziqlar hosil qildim”, deb ta'riflagan.


✦ Shtrixlarni o'qish uchun u optik sauntrek va kinofilimlar ovozini yozib oladigan texnologik qo'rilmalaridan foydalandi.

✦ 1949-yili oktyabr oyida N.Vudland va B.Silver patent byurosiga ariza berishdi.

✦ 1952-yili 7-oktyabrda o'zlarining ixtirolari uchun №2612994 amerika patentini olishdi.



29-rasm. Chiziqli shtrix kod



5-rasm. Ikki o'lchamli shtrix kod.

- ✦ 1 – Mamlakat kodi.
- ✦ 2 – Tayorlovchi kodi.
- ✦ 3 – Tovar kodi.
- ✦ 4 – Nazorat raqami.
- ✦ 5 – Tovar belgisi, Litsenziya asosida ishlab chiqaruvchi.



6-rasm. 13 raqamli shtrix kod.



### 9.3. “EAN International” tovarlarni raqamlash bo‘yicha Xalqaro Uyushma faoliyati

**European Article Number, EAN** (Evropa mahsulot raqami), keyinchalik Xalqaro mahsulot raqami (International Article Number) sifatida keng tarqalgan, mahsulot va ishlab chiqaruvchining identifikatorini kodlash uchun mo‘ljallangan Yevropa shtrix-kod standarti. Bu Amerika UPC standartining yuqori to‘plamidir.

UPC kodlarini standartlashtirish va ro‘yxatdan o‘tkazish UCC (Uniform Code Council, Inc.) tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi. Aqshda va YeCC (Kanada yelektron tijorat Kengashi) Kanadada. 2005-yilda ushbu tashkilotlar Yevropa YeAN assotsiatsiyasi bilan birlashdilar va GS1 standartlashtirish bo‘yicha global tashkilotni tuzdilar.

GS1 neytral, notijorat, xalqaro tashkilot bo‘lib, standartlarni, shu jumladan, shtrix kodlarni ishlab chiqadi va qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu standartlardan eng mashhuri shtrix-kod bo‘lib, elektron skanerlash mumkin bo‘lgan mahsulotlarga bosilgan belgidir. 100 milliondan ortiq mahsulot GS1 shtrix-kodlarini olib yuradi va ular har kuni olti milliarddan ortiq marta skanerlanadi.

GS1 ning 115 ta mahalliy a‘zo tashkilotlari va 2 milliondan ortiq foydalanuvchi kompaniyalari mavjud. GS1 standartlari, xizmatlari va yechimlari turli sohalarda jismoniy va raqamli kanallar bo‘ylab ta‘minot zanjirlarining samaradorligi, xavfsizligi va ko‘rinishini yaxshilash uchun mo‘ljallangan. 1969-yilda AQSHda chakana savdo sanoati do‘konlarda ro‘yxatdan o‘tish jarayonini tezlashtirish yulini qidirdi. Yechim topish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yagona identifikatsiya kodi bo‘yicha maxsus qo‘mita tashkil etildi.



1973-yilda Universal Product Code (UPC) ushbu guruh tomonidan noyob mahsulotni identifikatsiyalash uchun birinchi yagona standart sifatida tanlangan va 1974-yilda standartni boshqarish uchun

Yagona Kod Kengashi (UCC) tashkil etilgan. 1974-yil 26-iyun kuni Vrigleyning saqich to'plami do'konda skanerdan o'tkazilgan shtrix-kodli birinchi mahsulot bo'ldi.

1976-yilda 12-raqamli asl kod 13-raqamgacha kengaytirildi, bu esa AQSHdan tashqarida foydalanish uchun identifikatsiya tizimi uchun eshiklarni ochdi. 1977-yilda Bryusselda Yevropa Mahsulotlarni raqamlash assotsiatsiyasi (EAN) tashkil etildi va 12 mamlakatdan ta'sischi a'zolari mavjud edi.

1990-yilda YeAN va UCC global hamkorlik shartnomasini imzoladi va umumiy ishtirokini 45 mamlakatga kengaytirdi. 1999-yilda YeAN va UCC RFID uchun GS1 standartlarini qo'llash imkonini beruvchi Elektron mahsulot kodini (EPC) ishlab chiqish uchun avtomatik idintifikatsiya markazini ishga tushirdi.

2004-yilda EAN va UCC global ma'lumotlarni sinxronlashtirish tarmog'ini (GDSN) ishga tushirdi, bu global, internetga asoslangan tashabbus bo'lib, savdo hamkorlariga mahsulotning asosiy ma'lumotlarini samarali almashish imkonini beradi.

2005-yilga kelib, tashkilot 90 dan ortiq mamlakatlarda mavjud bo'lib, ular butun dunyo bo'ylab GS1 nomidan foydalanishni boshladilar. "GS1" qisqartma bo'lmasa-da, u yagona global standartlar tizimini taklif qiluvchi tashkilotga ishora qiladi.

Hamma bir xil standartlardan foydalansa, ishlarni bajarish osonroq bo'ladi. Tasavvur qiling, agar bizda vaqt yoki masofani o'lchashning standart usuli bo'lmasa. Bu bizning ta'minot zanjiri standartlari bilan bir xil masala. Ular ma'lumotlarni saqlash va uzatish usullarini belgilaydi, shunda tashkilotlar ma'lumotni muammosiz almashishi mumkin. Ta'minot zanjiri standartlari ma'muriyatni qisqartirish va qog'ozbozlikni qisqartirish orqali vaqt va pulni tejaydi. Ko'p ko'rinmaydigan, ammo nihoyatda muhim bo'lgan GS1 standartlari dunyodagi eng yirik sanoat tarmoqlarida asosiy jarayonlar muammosiz ishlashini ta'minlaydi.

Masalan, misol uchun:

❖ *Chakana savdo.* GS1 standartlari samarali “vaqt ichida” tizimlarining markazida yotadi. Chakana sotuvchilar mahsulotlarni etkazib berish zanjirining har bir bosqichida kuzatib borishlari mumkin, iste'molchilarning o'zgaruvchan talablarini minimal isrof va maksimal pul oqimi bilan qondirishadi.

❖ *Sog'liqni saqlash.* Standartlar favqulodda yordam ko'rsatish va bemorlar xavfsizligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Dori-darmonlarni monitoring qilishdan tortib MRI skanerlari kabi muhim resurslardan optimal foydalanishni ta'minlashgacha, sog'liqni saqlash xizmatlarini inqilob qiladigan GS1 standartlari.

❖ *Transport va logistika.* Qanday qilib narsalar o'z vaqtida to'g'ri joyda ekanligiga ishonch hosil qilasiz va keyin bu holatni mijozlarga etkazishingiz mumkin? GS1 standartlari real vaqt rejimida kuzatish, kuzatib borish va ta'minot zanjirini optimallashtirish uchun asos yaratadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Shtrix kod haqida so'zlab bering.
2. Shtrix kod qanday usullar bilan o'rganiladi?
3. Respublikamiz iste'molchilariga shtrix kodning qanday qulayligi mavjud?
4. Ikki o'lchamli shtrix kod siyosati qanday o'rin tutadi?

## **X BOB. ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINING DAVLAT TOMONIDAN HIMOYALANISHI**

**10.1. Iste'molchilar huquqlari va ishlab chiqaruvchilar hamda tovar to'g'risidagi axborot**

**10.2. Iste'molchi tomonidan talablarni qo'yish shartlari**

**10.3. Mahsulot xavfsizligiga bo'lgan iste'molchilar huquqlari**

**10.4. Iste'molchilar huquqini himoya qilishni davlat tomonidan ta'minlash**

**Tayanch iboralar:** iste'molchilar huquqini himoya qilish, mahsulot xavfsizligi, iste'molchilar huquqi.

### **10.1. Iste'molchilar huquqlari va ishlab chiqaruvchilar hamda tovar to'g'risidagi axborot**

Xalqaro miqyosda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish kuni 1983-yildan boshlab nishonlanadigan bo'ldi. Iste'molchilar huquqini himoyalash kuni nishonlanishiga asos bo'luvchi Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Djon Kennedi 1961-yil 15-martdagi AQSH kongresida qilgan ma'ruzasida iste'molchilarning 4 ta asosiy huquqlarini ta'kidlab o'tadi. Ular: iste'molchilarning tanlash huquqlari, iste'molchilar xavfsizligini ta'minlash, axbotor erkinligi, o'z fikrlarini bayon etish huquqlari edi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 9-aprel 1985-yildagi kengashida "Iste'molchilar huquqlarini himoyalash tamoyillari" haqida qaror qabul qilinadi va AQSH prezidenti Dj. Kennedi aytganlariga quyidagilar qo'shimcha qilinadi: bilim olish, oziq-ovqat mahsulotlaridan qoniqish, uy-joyga ega bo'lish, kiyinish, ichish, sifatli xizmatga va huquqlari paymol bo'lgan taqdirda ularning o'rnini qoplash qo'shimcha holda tavsiya etildi va bu haqda BMT qaror qabul qildi.

Rossiya federatsiyasida "Iste'molchilarning huquqlarini himoya

qilish” to‘g‘risidagi qonun 1992-yilda qabul qilinadi va 1994-yil 15-mart kuni “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish” kuni bayram sifatida nishonlanishi belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun 1996-yil 26-aprelda qabul qilinadi. Ushbu qonunga 2002-yil 5-aprelda 364-II – sonli, 2003-yil 25-aprelda 482-II–sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni asosida qo‘shimchalar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasida “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun har tomonlama mukammal ishlab chiqilgan va 30 ta moddani o‘z ichiga oladi. Qonunda qo‘llaniladigan barcha asosiy tushunchalar aniq, tushunarli va xalqaro normalarga to‘la javob beradigan holda o‘z ifodasini topgan.

“Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi qonun qabul qilingan bo‘lib, mazkur qonunda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

- iste‘molchi – foyda chiqarib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsiy iste‘mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan fuqaro (jismoniy shaxs);

- ishlab chiqaruvchi – iste‘molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor;

- ijrochi – maishiy xizmat, uy-joy-kommunal, ta‘mirlash-qurilish, transport xizmati va xizmat ko‘rsatishning boshqa sohalarida shartnoma bo‘yicha iste‘molchi uchun ishlar bajaradigan yoki xizmatlar ko‘rsatadigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor;

- sotuvchi – oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha iste‘molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor;

- shartnoma – tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa

shartlar to'g'risida iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi og'zaki yoki yozma kelishuv;

- tovar – ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun mo'ljallangan mahsuli, shu jumladan, import mahsuloti;

- normativ hujjatlar – standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (qurilish normalari va qoidalari, dori-darmonlar xususidagi davlat farmokopeyasi hamda muvafaqiat farmokopeya qoidalari va boshqalar), texnik shartlar, texnik tavsiflar, retseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsizligiga nisbatan belgilangan talablarni o'z ichiga oluvchi boshqa hujjatlar;

- tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi – tovarni iste'mol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek, ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga va atrof-muhitga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq xavf-xatarning yo'qligi;

- muvofiqlik sertifikatini – sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

- tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni – tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo'yiladigan talablarga nomuvofiqligi;

- tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni – tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bo'lmaydigan qilib qo'yadigan yoxud bartaraf etish uchun ko'p mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik;

- kafolat muddati – tovardan (xizmatdan) foydalanishning (oylar hisobidagi) normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, nechta ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o'tib va h.k) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddati bo'lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish

(xizmatdan foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bo'lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta'minlaydi;

- xizmat muddati – tovardan foydalanishning belgilangan muddati bo'lib, u tamom bo'lgach, tovarning texnik holatidan qat'i nazar, undan foydalanish to'xtatilishi lozim;

- yaroqlilik (saqlash) muddati – muayyan davr bo'lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo'ladi va u tamom bo'lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin;

- kassa cheki – tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana va kassa apparatining nomeri ko'rsatilgan hujjat;

- tovar cheki – tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma'lumot ko'rsatilgan hujjat.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Qonun hujjatlari ushbu qonunda belgilangan iste'molchilarning huquqlarini cheklab qo'yishi, ularni himoya qilishning kafolatlarini kamaytirishi mumkin emas.

Agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnoma yoki bitimda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llaniladi.

*Iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:*

- tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

– tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo‘lishi;

– tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi; hayoti, sog‘lig‘i va molmulki uchun xavfli nuqsoni bo‘lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g‘ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma’naviy zararning to‘liq hajmda qoplanishi;

– buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so‘rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

– iste’molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste’molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlar uchun qonun hujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko‘rsatishning boshqa turlari bo‘yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchi o‘z korxonasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili haqida iste’molchini xabardor qilishi shart. Bunday ma’lumot ishlab chiqarish markasi yoki tovar belgisida ko‘rsatilgan bo‘lishi yoxud boshqa usulda taqdim etilishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) o‘z tashkilotining firma nomi, uning joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibini iste’molchiga ma’lum qilishi shart. Bunday ma’lumot lavhada aks ettirilishi lozim.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma’lumot savdo va xizmat ko‘rsatish muvaqqat binolar, yarmarkalar, ko‘chma do‘konchalar orqali amalga oshirilgan yoki savdo va xizmat ko‘rsatish sotuvchi (ijrochi)ning doimiy joylashgan manzilidan tashqarida amalga oshirilgan boshqa hollarda ham iste’molchilar e’tiboriga yetkazilishi kerak.

Sotuvchi (ijrochi) iste’molchiga tovarlar savdosi, maishiy va boshqa turdagi xizmat ko‘rsatishning qoidalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berishi shart.



Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

– tovar (ish, xizmat) majburiy talablarga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi;

– tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan, o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati;

– bahosi va sotib olish shartlari;

– ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;

– ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari;

– tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;

– tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

– ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning nomi va mulkchilik shakli, ro'yxatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri;

– ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek, ta'mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarining manzillari;

– tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari;

– teatr-konsert tadbirlari o'tkazilayotganda fonogrammadan foydalanilishi to'g'risidagi axborot.

## 10.2. Iste'molchi tomonidan talablarni qo'yish shartlari

Sertifikatlanishi shart bo'lgan tovar haqida iste'molchiga uning sertifikatlanganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi zarur axborotning yo'qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma'lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasi bo'yicha to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot berilganligi:

– zarur iste'mol xossalariga ega bo'lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olinishiga sabab bo'lsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga haqlidir;

– sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo'lsa, iste'molchi tegishli ma'lumot oqilona qisqa (ko'pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararining qoplanishini talab qilishga haqlidir;

– iste'molchining hayotiga, sog'lig'iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Iste'molchining tovar (ish, xizmat) haqidagi noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablari sotib olingan tovar (ish, xizmat)ning xossalari va jihatlari haqida iste'molchi maxsus bilimga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Iste'molchi shartnoma tuzish yo'li bilan tovarni (ish, xizmatni) erkin sotib olish huquqiga ega bo'lib, bu shartnomaga ko'ra sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) iste'molchiga muayyan miqdordagi va

maqbul sifatli tovarni mulk qilib topshirish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) majburiyatini, iste'molchi esa, shartlashilgan pulni to'lash majburiyatini o'z zimmalariga oladi.

Narxnoma bilan qo'yilgan tovarlar hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida keluvchilar e'tiboriga havola etiladigan ma'lumot tegishli shartnomani tuzish uchun taklif deb hisoblanadi.

Tomonlar o'rtasida shartnoma narsasi, miqdor, narx va boshqa muhim shartlar to'g'risida kelishuvga erishilsa, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o'rtasida shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Tuzilgan zahoti bajariladigan shartnoma, qoida tariqasida, og'zaki shaklda tuziladi, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno. Tuzilgan vaqtdan boshqa paytda (oldindan beriladigan buyurtmalar bo'yicha, jo'natma savdoda va boshqa hollarda) bajariladigan shartnoma yozma shaklda tuziladi.

Iste'molchi sotib olingan tovar (ish, xizmat) sifatini, butligini, vazni va narxini tekshirish huquqiga ega, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) esa, nazorat-o'lchov asboblarini, narxga doir hujjatlarni taqdim etishi, tovarni ishlatib ko'rsatishi, undan xavfsiz va to'g'ri foydalanishni o'rgatishi, zarurat bo'lsa, tovarni ekspertizaga yuborishi shart.

Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar, shuningdek, ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish qoidalari O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlanadi.

Tovar (ish, xizmat)lar uchun haq to'lash shakli hamda tartibi iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Tovarlarni kreditga sotish O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlanadigan tovarlarni kreditga sotish qoidalari bilan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Oldi-sotdi amalga oshirilganda iste'molchiga kassa yoki tovar cheki beriladi. Tovarni kassa yoki tovar chekini bermasdan sotish taqiqlanadi.

Uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdagi tovarlar va xizmatlarga ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati belgilashi lozim. Kafolat muddati tovar iste'molchiga sotilgan yoki xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar tovar sotilgan kuni aniqlashning imkoni bo'lmasa, bu muddat tovar ishlab chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati mobaynida tovar (xizmat)ning, shu jumladan, butlovchi buyumlarning normal ishlashini (qo'llanilishini, ulardan foydalanilishini) ta'minlashi shart.

Butlovchi buyumlarning kafolat muddati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, asosiy buyumning kafolat muddatidan kam bo'lmasligi lozim.

Kafolat muddati tovar (xizmat)ning pasportida yoki tovarni sotish yoxud xizmat ko'rsatish paytida tovar bilan birgalikda iste'molchiga beriladigan boshqa hujjatda ko'rsatiladi.

Ishlab chiqaruvchi tovardan kafolat muddati va xizmat muddati mobaynida foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, tovarning ta'mirlanishini va unga texnik xizmat ko'rsatilishini tashkil etishi, tovarni ishlab chiqarish muddati mobaynida hamda u ishlab chiqarishdan olib tashlanganidan keyin tovarning xizmat muddati mobaynida, bunday muddat bo'lmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarishdan olib tashlangan paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yetarli hajmda va turda ehtiyot qismlari ishlab chiqarishi hamda savdo va ta'mirlash tashkilotlariga yetkazib berishi shart.

Dori-darmon, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida ular ishlab chiqarilgan sana va yaroqlilik muddati hamda saqlash shartlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Sotuvchilarning yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan yoki bu muddati o'tib ketgan tovarlarni qabul qilishi va realizatsiya qilishi man etiladi.

Iste'molchi o'zi sotib olgan tovar (ish, xizmat) sanitariya-gigiyena, shu jumladan radiologiya, epidemiyaga qarshi talablarga va amaldagi boshqa normalar hamda qoidalarga rioya etgan holda ishlab chiqarilgan

yoki bajarilgan bo‘lishiga va uning hayoti, sog‘lig‘i, atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishiga, shuningdek, uning mol-mulkiga zarar yetkazmasligiga kafolat berilishini talab qilish huquqiga ega.

### **10.3. Mahsulot xavfsizligiga bo‘lgan iste’molchilar huquqlari**

Tovar (ish, xizmat)ning iste’molchilar hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishiga doir talablar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tovar (ish, xizmat)ning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo‘lsa, tovar iste’molchiga sotilgan (ish bajarilgan) kundan e’tiboran o‘n yil mobaynida uning xavfsiz bo‘lishini ta’minlashi shart.

Iste’molchilarning hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavf tug‘diruvchi tovar ishlab chiqarganlik (ish bajarganlik, xizmat ko‘rsatganlik) uchun qonun hujjatlariga muvofiq:

- ishlab chiqaruvchi (ijrochi);
- normativ hujjatlarni tasdiqlagan organ;
- muvofqlik sertifikat bergan organ;
- sog‘liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, veterinariya xizmati organlari yoki xavfli tovar (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoxud realizatsiya qilishga ruxsat bergan boshqa organlar javobgar bo‘ladi.

Tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi ta’minlanmaganligi oqibatida iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar ushbu qonunning 20-moddasiga muvofiq qoplanishi lozim.

Agar tovar (ish, xizmat)dan xavfsiz foydalanish yoki uni shu tarzda tashish va saqlash uchun maxsus qoidalarga rioya etish zarur bo‘lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday qoidalarni ishlab chiqishi, sotuvchi (ijrochi) esa, ularni iste’molchilar e’tiboriga yetkazishi shart.

Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish, ish (xizmat) natijalari iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulkiga yoki atrof-muhitga zarar yetkazayotganligi yoxud zarar

yetkazishi mumkinligi aniqlansa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etilgunga qadar ularni ishlab chiqarishni (bajarishni, uni realizatsiya qilishni) darhol to'xtatishi, muomaladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish choralari ko'rish shart.

Zararning sabablarini bartaraf etish mumkin bo'lmagan taqdirda, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlashi, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni to'xtatishi shart, shu bilan birga, oziq-ovqat mahsuloti sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan albatta, utilizatsiya qilinishi kerak. Bu majburiyatlar ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan bajarilmagan taqdirda tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni to'xtatib qo'yish, muomaladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining ko'rsatmasi bilan amalga oshiriladi.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan tovarlarning partiyalarini muomaladan chiqarish, ishlarni bajarishni va xizmatlar ko'rsatishni taqiqlab qo'yish tartibi O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi.

Tovarni qaytarib olish, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni taqiqlab qo'yish munosabati bilan iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Agar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) xavfli xossalarga ega bo'lgan tovarni qaytarib olish yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rgan bo'lsa, u iste'molchi mazkur tovardan foydalanishni davom ettiraverishi tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

Nuqsonli tovar sotilgan iste'molchi, agar bu hol shartnoma tuzish paytida aytib o'tilmagan bo'lsa, o'z xohishiga qarab quyidagilardan birini talab qilishga haqli:

– tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli

tovarga almashtirib berish;

– tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilish;

– tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yoxud uchinchi shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash;

– xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish;

– shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplash.

*Agar nuqsonlar:*

– tovarning kafolat muddati yoxud yaroqlilik muddati mobaynida;

– kafolat muddati va yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar bo'yicha olti oy mobaynida;

– ko'chmas mulk iste'molchiga o'tkazilgan kundan e'tiboran ikki yil mobaynida, agar shartnomada bundan uzoqroq muddat nazarda tutilmagan bo'lsa;

– mavsumiy tovarlar uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan muddat mobaynida aniqlangan bo'lsa, iste'molchi mazkur huquqlarini ro'yobga chiqarishi mumkin.

Iste'molchi o'ziga sotilgan, to'plamlar, garniturlar, komplektlar va komplekslarning mustaqil tarkibiy qismi bo'lgan va mustaqil narxga ega bo'lgan buyumlarda nuqsonlar borligini aniqlagan taqdirda, butun to'plam, garnitur, komplekt va kompleksga nisbatan ham, ularning nuqsonlari bor mustaqil tarkibiy qismlariga nisbatan ham ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Ushbu moddaning birinchi qismida bayon etilgan talablarni iste'molchi sotuvchiga qo'yadi.

Iste'molchining talablari u kassa yoki tovar chekini, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa, tegishlicha rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko'rib chiqiladi.

Iste'molchi texnik pasportni yo'qotib qo'ygan taqdirda, uni qayta tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovarda aniqlangan nuqsonlar ishlab chiqaruvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ishlab chiqaruvchi bilan sotuvchining o'zaro munosabatlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

Iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho'l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste'molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchining roziligi bilan sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilishi shart.

Tovarda kafolat muddatida topilgan nuqsonlarni sotuvchi iste'molchi tegishli talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, o'n kun ichida bepul bartaraf etishi lozim.

Iste'molchi kafolat muddati tugaganidan keyin tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchiga talab qo'yishga haqli. Bunday talab, basharti tovarda ishlab chiqaruvchining aybi bilan yo'l qo'yilgan jiddiy nuqsonlar aniqlangan bo'lsa, belgilangan



xizmat muddati mobaynida, agar xizmat muddati belgilanmagan bo'lsa, o'n yil mobaynida qo'yilishi mumkin.

Uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarni ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste'molchining talabiga binoan nuqsonli tovar qaytarib berilganidan keyin uch kun ichida unga ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar berib turiladi (sotuvchining hisobidan uning o'zi yoki vakili eltib beradi). Buning uchun ishlab chiqaruvchi sotuvchi bilan birgalikda shartnoma asosida Tovarlarning almashuv fondini nazarda tutishlari shart. Mazkur talablar tatbiq etilmaydigan uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi hukumati belgilaydi.

Tovardagi nuqsonlarni bartaraf etish xususida talab qo'yilgan taqdirda, undan foydalanishning kafolat muddati iste'molchining Tovaridan foydalana olmagan davrga teng muddatga uzaytiriladi. Mazkur muddat iste'molchi nuqsonlarni bartaraf etish talabi bilan murojaat etgan kundan e'tiboran hisoblana boshlaydi.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanish uchun shunday tovarni berib turish haqidagi talabini bajarish kechiktirilgan har bir kun uchun, shuningdek nuqsonlarni bartaraf etishning shartnomadan kelib chiqadigan muddatlaridan ortiq kechiktirilgan har bir kun uchun tovar narxining bir foizi miqdorida iste'molchiga neustoyka (penya) to'laydi.

Agar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining tovarni almashtirib berish yoki undagi nuqsonlarni bartaraf etish haqidagi talablarini bajarmagan bo'lsa, iste'molchi tovarning xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilib, yetkazilgan ziyon va ma'naviy zararni ushbu qonunning 20- va 22-moddalariga muvofiq qoplashni talab qilishga haqli.

Nuqsonli tovar ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilgan vaqtda tovarning narxi o'zgargan bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Nuqsonli tovar boshqa markali (modelli, artikulli) tovarga

almashtirib berilayotganda, agar almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan past bo'lsa, iste'molchi narxlardagi farqni qo'shimcha ravishda to'lashi lozim, almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan yuqori bo'lsa, iste'molchiga narxlardagi farq qaytariladi. Bunday hisob-kitob chog'ida almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi oshgan taqdirda, uning talab qo'yilgan paytdagi narxi, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi narxi qo'llaniladi.

Shartnoma bekor qilinayotganda tovar narxi oshgan bo'lsa, iste'molchi bilan hisob-kitob tovarning tegishli talab qo'yilgan paytdagi qiymatiga qarab, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi qiymatiga qarab amalga oshiriladi.

Tovar iste'molchilarga kreditga sotilgan bo'lsa, shartnoma bekor qilingan taqdirda, pul summasi tovar qaytarilayotgan paytga qadar uzilgan kredit miqdorida qaytarib beriladi, shuningdek, kredit berganlik haqi to'lanadi.

Hajmi katta yoki vazni besh kilogrammdan ziyod tovarni ta'mirlash, narxini tushirish, almashtirish uchun eltish va iste'molchiga qaytarib keltirib berish sotuvchining (ishlab chiqaruvchining) kuchi bilan va uning hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu majburiyat bajarilmagan taqdirda tovarni eltish va qaytarib olib kelish iste'molchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda iste'molchining tovarni eltish va qaytarib olib ketish bilan bog'liq xarajatlarini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) qoplashi shart.

Iste'molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini xarid qilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo'lmasa, pulini qaytarib olishga haqli.

Almashtirib olish tartibi va almashtirib berilmaydigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi hukumati tasdiqlaydigan qoidalar bilan belgilanadi.

Ijrochi ayrim turdagi ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish)

qoidalarida yoki shartnomada belgilangan muddatda, hajmda va sifatda ishni bajarishi (xizmat ko'rsatishi) shart.

Ishni bajarish (xizmat ko'rsatish) muddati ish bajarilishi (xizmat ko'rsatilishi) lozim bo'lgan sanaga (davrga), shuningdek, ijrochi ishni bajarishga (xizmat ko'rsatishga) kirishishi lozim bo'lgan sanaga (davrga) qarab belgilanishi mumkin. Agar ish bajarish, xizmat ko'rsatish shartnomaning amal qilish muddati davomida qismlarga bo'lib-bo'lib ado etiladigan bo'lsa (vaqtli matbuotni yetkazib berish, texnik xizmat ko'rsatish va boshqalar), ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish)ning bosqichma-bosqich muddatlari (davrlari) nazarda tutilishi kerak.

Agar ijrochi shartnomani ijro etishga o'z vaqtida kirishmasa yoki shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo'lib qolsa, iste'molchi ishni bajarish, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomadan voz kechishga va yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga haqli.

Agar ijrochi shartnoma shartlarini ish (xizmat)ni yomonlashtirgan darajada jiddiy buzgan bo'lsa, yoxud ishda (xizmatda) boshqa jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'ygan bo'lsa, iste'molchi o'z xohishiga ko'ra nuqsonlar bepul bartaraf etilishini, bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) bahosi nuqsonlarga mutanosib ravishda kamaytirilishini, xuddi shunday sifatli shu xildagi materialdan boshqa buyum bepul tayyorlab berilishini yoxud ishning takroran bajarilishini yoki shartnoma bekor qilinib, ko'rilgan zarar to'liq qoplanishini talab qilishga haqli.

Iste'molchi ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan huquqlarni:

– ishni (xizmatni) qabul qilib olish vaqtida yoki uning bajarilishi jarayonida nuqsonlar aniqlangan taqdirda;

– kafolat muddati davomida, kafolat muddati bo'lmagan taqdirda esa, ish (xizmat) qabul qilib olingan kundan e'tiboran olti oy davomida;

– imorat yoki boshqa ko'chmas mulkda nuqsonlar aniqlangan kundan e'tiboran ikki yil davomida ro'yobga chiqarishi mumkin.

Ish bajarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish muddatlari shartnomada belgilab qo'yiladi. Bajarilgan ish

(ko'rsatilgan xizmat)dagi nuqsonlar, agar shartnomada birmuncha qisqaroq muddat belgilanmagan bo'lsa, iste'molchi talab qilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida ijrochi tomonidan bartaraf etilishi kerak. Nuqsonlar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan, shuningdek, ish bajarishni (xizmat ko'rsatishni) boshlash va tugallash kechiktirilgan taqdirda, ijrochi iste'molchiga har bir kechiktirilgan kun, soat (agar muddat soatlarda belgilangan bo'lsa) uchun ish (xizmat) qiymatining yoki buyurtma qiymatining (agar uning qiymati alohida belgilanmagan bo'lsa) bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchi undirib olgan neustoyka (penya) summasi ish bajarish (xizmat ko'rsatish)ning alohida turi bahosidan yoki buyurtmaning umumiy bahosidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Bajarilgan ishdagi nuqsonlarni bartaraf etish kechiktirilganligi uchun ijrochi to'lagan neustoyka (penya) qoplanishi lozim bo'lgan zarar hisobiga kirmaydi.

Ijrochining majburiyatni umuman yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka (penya) to'lashi va zararni qoplashi uni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi.

Iste'molchidan qabul qilib olingan ashyo (material) yo'qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda yoki iste'molchining materialidan foydalanib bajarilgan ishda jiddiy nuqsonlar bo'lsa yoki u buzib bajarilgan taqdirda ijrochi iste'molchiga aynan o'xshash sifatli ashyoni qaytarishi (o'zining aynan o'xshash sifatli materialidan ish bajarishi yoki xizmat ko'rsatishi), buning imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa, ashyoning (materialning) talab qo'yilgan paytdagi qiymatini ikki baravar qilib to'lashi shart.

Ijrochi tomonidan ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun qabul qilib olinayotgan ashyo (material) qiymati shartnoma tuzish paytida tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Ishda (xizmatda) jiddiy nuqsonlar mavjud bo'lganida yoki shartnoma talablari jiddiy buzilganida, shuningdek, ashyo (material) yo'qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda iste'molchi bilan

hisob-kitob ishning (xizmatning) yoki materialning shartnomani bekor qilish paytidagi oshgan narxini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Sifatsiz bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar uchun ijrochi ushbu qonunning 20, 22, 27, 29-moddalariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish to'g'risida tuzilgan shartnomalar bo'yicha iste'molchilar bilan ijrochi o'rtasidagi munosabatlarning o'z mohiyatiga ko'ra ushbu moddaga mos kelmaydigan hususiyatlari, shuningdek, shartnomalarning umuman yoki lozim darajada ijro etilmaganligi tufayli kelib chiqadigan oqibatlar bunday shartnomalarning alohida turlari to'g'risida qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan qoidalar bilan aniqlanadi.

Tovar (ish, xizmat)ning tuzilishiga, ishlab chiqarilishiga, tarkibiga bog'liq bo'lgan va boshqa nuqsonlari, shuningdek, iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkining xavfsizligini ta'min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo'llanilishi oqibatida iste'molchining hayotiga, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan-kirishmaganidan qat'i nazar, har qanday iste'molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yuzaga kelgan bo'lsa, qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki foydalanish, saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari iste'molchi tomonidan buzilishi tufayli yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Shartnomaning iste'molchi huquqlarini cheklab qo'yadigan va qonun hujjatlariga zid bo'lgan talablari haqiqiy emas deb hisoblanadi. Agar ularni qo'llanish natijasida iste'molchiga zarar yetkazilgan bo'lsa, bu zarar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) iste'molchini haq evaziga qo'shimcha tovarlar sotib olishga yoki qo'shimcha xizmatlardan foydalanishga qistashga haqli emas.

Iste'molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma'naviy zarar uchun uni yetkazgan shaxs, basharti u aybdor bo'lsa, haq to'lashi lozim. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi.

Ma'naviy zarar uchun haq to'lash mulkiy ziyon va iste'molchi ko'rgan zararining o'rni qoplanishidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.

#### **10.4. Iste'molchilar huquqini himoya qilishni davlat tomonidan ta'minlash**

Davlat iste'molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste'molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, sudlar ta'minlaydilar.

Quyidagilar iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir: O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi; O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda "O'zstandart" agentligi deb yuritiladi); O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi; O'zbekiston

Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o‘z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari.

### **Nazorat va mulohaza uchun savollar**

1. Iste’molchilarning huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishining ahamiyati va mohiyati nimalardan iborat ?
2. Iste’molchilarning huquqlarini davlat tomonidan himoya qilish to‘g‘risida nimalarni bilasiz ?
3. Iste’molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishi to‘g‘risida fikrlaringiz qanday ?
4. Iste’molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishining asosiy yo‘nalishlari qanday ?
5. Respublikamizda iste’molchilarning huquqlarini davlat tomonidan himoya qilish qanday yo‘lga qo‘yilgan ?

## XULOSA

Korxonalarda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarilishi hamda ularni xalqaro standartlarga muvofiq bo'lishini ta'minlashi aynan eksportni o'sishida hamda mintaqalarda iqtisodiy jihatdan baquvvat korxonalarining ortib borayotganligi hisoblanadi.

Korxonalarda xalqaro standart talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga uzviy ravishda bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti yo'lidan borayotgan davlatlarning barchasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar aynan ularni doimiy sifatini boshqarish va xalqaro standartlashtirishga bo'lgan e'tiborning oshayotganligidan dalolat beradi. Har bir davlatda xalqaro standart talablari asosida mahsulotlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni xalqaro standart talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlashi aynan mamlakat eksport salohiyatini o'sishida hamda baquvvat korxonalarining ortib borayotganligi shubhadan holi emas.

Korxonalarda 16 ta sifatni boshqarish tizimlari joriy etilishi, shulardan 2 ta korxonada ISO-9001 standartiga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlari va 14 ta korxonada ISO-22000 standartiga muvofiq bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimlari joriy etilib, sertifikatlanadi. Real sektor korxonalarida sifat menejmenti ISO – standartining joriy etilishiga juda katta ahamiyat qaratilmoqda.

Global G.A.P. standartini joriy qilish orqali sertifikat olgan tashkilotlar soni dunyo bo'yicha 2004-yilda 18000 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilga kelib 110 ta davlatda 130000 dan ortiq sertifikatlashtirilgan ishlab chiqaruvchilar: Ispaniyada – 31560, Polshada – 2152, Gruzniyada –18, O'zbekistonda – 2 ta mavjud.

Mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash strategik muammo bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi bu muammolarning hal etishiga bog'liqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki xizmatlar ko'rsatishda faqatgina ko'proq foyda olish uchungina emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun ham zarurdir.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2016-y. 76 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. 28.12.1993-y.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 30.08.1997-y.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Iste‘molchilarni haq-huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. 26.04.1996-y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. “Xalq so‘zi” G.// 08.02.2017-y. №28 (6722).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 28-aprel kuni “O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatliya agentligining faoliyatini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi Qarori. // Xalq so‘zi, G. 29.04.2017-yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 11-fevraldagi “2015-2019 yillarda tayyor mahsulot, butlovchi qismlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli “2015 – 2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta‘minlash chora-tadbirlari Dasturi” to‘g‘risidagi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martdagi PP-2313-sonli “2015 – 2019-yillarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish Dasturi” to‘g‘risidagi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2012 – 2015-yillarda respublika oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishni va boshqaruvini tashkillashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 201-yil 31-oktyabr, PQ-1633-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari axborot-tahlil departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”. 2017-yil 3-yanvar, 1-son.

12. “Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017-yil 1-fevral.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘ar-masi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 16-mart, PQ-2507-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. 2016-yil 28-oktyabr, PQ-2646-son.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2016-yil 26-oktyabr, PF-4853-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida. 2017-yil 12-yanvar, PF-4931-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 18-fevraldagi PQ-2492-son “Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qildish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. Xalq so‘zi. № 72(6507) 13.04.2016-y.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 18-fevraldagi PQ-2492-son “Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2012 – 2015-yillarda respublika oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishni va boshqaruvini tashkillashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi. 2011-yil 31-oktyabr, PQ-1633-son.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so‘zi, 23-dekabr 2017-yil.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi.// Xalq so‘zi, 2017-yil 16-yanvar.

23. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligi bosh direktorining 2005-yil 25-fevraldagi” Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari” to‘g‘risidagi 59-son buyrug‘i. <https://lex.uz>.

24. Магомедов Ш.Ш., Беспалова Г.Э. Управление качеством продукции. Учебник. – М.: «Дашков и К», 2010. – 336 стр.

25. Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление качеством. Москва. 2008, 400 стр.

26. Мишин В.М. Управление качеством. М. 2008, 463 стр.

27. Ржевская С.В. Управление качеством. М. 2009, 286 стр.

28. Огвоздин В.Ю. Управление качеством. М. 2009, 297 стр.

29. Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управления качеством: Учебное пособие; Под общ. Ред. И.И. Мазура. 2- е изд. М.: Омега – Л, 2005 г. 400с.

30. Окрепилов В.В. Управление качеством. М. 1998, 634 стр.

31. Джейм Эванс. Управление качеством (Тотал Куалитй). УСА. 2008, 586 стр.

32. Дж Хант, Р. Кантер, Д. Котс. Тотал Қуалитй Менежмент. Лондон. 1999 й.

33. Журан Ж.М. Журан он лидершип фор қуалитй. Нью Ёрк. 1998 й.

34. Ким Виктор Владимирович Аналитический обзор в области менеджмента качества в странах СНГ.

35. G‘.X. Хожiahmedov, biologiya fanlari doktori, professor “Sifatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, sentyabr, 2011-yil

36. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

37. <https://www.iso.org>

38. <https://iec.ch/homepage>

39. <https://www.unido.org>

40. <https://www.bipm.org>

41. <http://www.imeko.org>

42. [www.standart.uz](http://www.standart.uz)

43. <https://consumer.gov.uz>

44. <https://www.gs1.org/standards>

## **Sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

### **TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH, STANDARTLASHTIRISH, SERTIFIKATLASHTIRISH VA METROLOGIYA TIZIMLARINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya milliy tizimini yanada rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash, sog‘liqni saqlash va iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 11-sentyabrdagi PQ-3939-son Qaroriga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va «O‘zstandart» agentligining (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) 2019-yil 1-yanvardan quyidagilarni nazarda tutuvchi tartibni o‘rnatish takliflari ma’qullansin:

Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish tashkiloti (ILAC) va Xalqaro akkreditatsiya qilish forumi (IAF) to‘laqonli a‘zolari hisoblangan davlatlarning sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari yoki sinov bayonnomalari taqdim etilganda, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ko‘p miqdorda bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari (erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari bundan mustasno) o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiradigan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan ixtisoslashgan va qishloq xo‘jaligi texnikasi, texnologik uskunalari va ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, shuningdek, majburiy sertifikatlanishi lozim bo‘lgan

mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan nooziq-ovqat xomashyo, materiallar va buyumlar majburiy sertifikatlashtirishdan ozod qilinadi;

– tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan o‘lchash vositalariga muvofiqlik sertifikatini taqdim etmagan holda, uni bojxona hujjatlari rasmiylashtirilgan kundan boshlab ikki oy davomida o‘rnatilgan tartibda olish sharti bilan bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishga yo‘l qo‘yiladi;

– Milliy o‘lchash etalonlari va milliy metrologiya institutlari tomonidan beriladigan kalibrlash va o‘lchash sertifikatlarini o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi kelishuvni (CIPM MRA) imzolagan mamlakatlarning Milliy metrologiya organlari tomonidan rasmiylashtirilgan amaldagi kalibrlash (yoki tekshirish) sertifikatlari taqdim etilganda, o‘z ehtiyojlari uchun texnologik jarayonlarda foydalaniladigan import bo‘yicha olib kiriladigan o‘lchash vositalarini metrologik attestatsiyalash (turini tasdiqlash) soddalashtirilgan tartibda, bir kun muddatda tan olish tartibotlari yo‘li bilan amalga oshiriladi.

## **2. Belgilab qo‘yilsinki:**

– mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan soddalashtirilgan tartibda olib kiriladigan tovarlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ta‘minlash, shuningdek, ularning maqsadli ishlatilishiga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan tadbirkorlik subyektlarining mansabdor shaxslari mas‘ul hisoblanadi;

– mazkur qarorning 1-bandida ko‘zda tutilgan soddalashtirilgan tartib, davlat bojxona xizmati organlariga (shu jumladan uchinchi shaxslar tomonidan) tovarlar ularni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kirayotgan tadbirkorlik subyekti tomonidan ularni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun maqsadli ishlatilishi to‘g‘risidagi majburiyatlari, shuningdek, o‘rnatilgan tartibda bojxona hujjatlari rasmiylashtirilgan kundan boshlab ikki oy davomida o‘lchash vositalarini sertifikatlashtirish amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan kafolat xati taqdim etilishi sharti bilan qo‘llanadi;

– davlat bojxona xizmati organlari, bojxona hujjatlari rasmiylashtirilgandan so‘ng uch kun muddatda mazkur qarorning 1-bandiga muvofiq soddalashtirilgan tartibda olib kirilgan tovarlar importi to‘g‘risida idoralararo axborot almashinuvi vositasi orqali O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga va Agentlikka ma’lumot taqdim etadi;

– mazkur qarorning 1-bandida nazarda tutilgan soddalashtirilgan tartibda olib kiriladigan tovarlardan maqsadli foydalanish ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Sifat menejmenti tizimlarini joriy etgan va milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalardan foydalana-digan tadbirkorlik subyektlariga, ular tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan mahsulotning muvofiqligini deklaratsiyalash yo‘li bilan tasdiqlash huquqi berilsin.

#### **4. Quyidagilar:**

– 2019 – 2020-yillarda texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» 1-ilovaga muvofiq;

– 29 ta umumiy va 13 ta maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini ko‘zda tutadigan 2019 – 2021-yillarda texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi 2-ilovaga muvofiq;

– uyg‘unlashuv darajasini 47 foizga yetkazishni nazarda tutuvchi 2019 – 2021-yillarda standartlashtirish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

– sinov va o‘lchash bazasini takomillashtirish bo‘yicha loyihalar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

#### **5. Quyidagilarga shaxsiy javobgarlik yuklansin:**

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripovga – “Yo‘l xaritasida” ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini ta’minlash ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilishi uchun;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari N.S. Otajonovga — Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturining o‘z vaqtida, to‘liq va samarali amalga oshirilishi uchun;

Agentlik bosh direktori D.N. Sattarovga – standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlarning uyg‘unlashuv darajasini belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga, shu jumladan 2023-yilgacha 80 foizga yetkazish, Agentlik tizimi tashkilotlarining samarali ishlashi, respublikaning barcha hududlarida sinov laboratoriyalarining keng tarmog‘ini, shu jumladan xususiy sinov laboratoriyalari mavjud bo‘lmagan joylarda davlat-xususiy sheriklik asosida yaratish va modernizatsiya qilishni ta‘minlash uchun;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining raisi M.B. Azimovga – chegara bojxona postlarida nazorat tartibotlarini bajarishda sanitariya-epidemiologiya, fitosanitariya va veterinariya nazorati organlari faoliyatining samarali va operativ muvofiqlashtirilishini ta‘minlash uchun.

6. Vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari — mazkur qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar bir hafta muddatda ekspert kengashlarini shakllantirsin va texnik reglamentlar ishlab chiqish bo‘yicha tarmoq jadvallarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, 2019-yil 1-yanvardan:

– 5-ilovada keltirilgan ro‘yxatga muvofiq olib kiriladigan iste‘mol tovarlarini majburiy sertifikatlash faqat Agentlik tizimidagi sertifikatlashtirish organlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazi tomonidan yangidan akkreditatsiya qilingan boshqa sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshiriladi;

– muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirishda takrorlanuvchi sinovlar o‘tkazilishi taqiqlanadi va sertifikatlarni berishda, idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan



laboratoriyalar tomonidan o‘tkazilgan sinovlarning ijobiy natijalari asos qilib olinadi.

Agentlik va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazi ikki oy muddatda sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning samarali mexanizmini tashkil etish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan hamda muntazam yangilanadigan sanitariya-epidemiologiya va fitosanitariya vaziyati nomaqbul bo‘lgan davlatlarning ro‘yxatiga kiruvchi mamlakatlardan sanitariya-epidemiologiya va fitosanitariya nazoratidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mahsulotlarning olib kirilishi taqiqlansin.

9. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya nazorati chegara xizmatlarining faoliyatini tanqidiy o‘rganish natijalari bo‘yicha ular tomonidan nazorat funksiyalarining bajarilishini takomillashtirish, samaradorligi va tezkorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritsin.

10. O‘zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq texnik reglamentlarga rioya etish barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiyligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Texnik reglamentlar amalga kiritilishi bilan, mazkur texnik reglamentlar bilan xavfsizligiga majburiy talablar qo‘yiladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirish majburiy tusga ega bo‘lishi belgilansin.

11. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar standartlashtirish va metrologiya boshqarmalarini tugatgan holda, «O‘zstandart» agentligi qoshida Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta’minlash departamenti (keyingi

o‘rinlarda – Departament) tashkil etilsin va unga quyidagi asosiy vazifalar yuklansin:

– texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun buzilishlarini oldini olish va profilaktika qilishni amalga oshirish;

– texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya masalalarida tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama yordam ko‘rsatish;

– texnik reglamentlar, standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishi, o‘lchov birliklari yagonaligi va ishonchliligini ta‘minlash, majburiy sertifikatlashtirish qoidalari talablari bajarilishi ustidan davlat nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish.

Belgilansinki, Departament yuridik shaxs hisoblanadi, uning faoliyati ustidan umumiy rahbarlik va nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

12. Agentlikning Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti va «Axborot-ma’lumot markazi» davlat korxonasi negizida «O‘zstandart» agentligi huzuridagi Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti standartlashtirish bo‘yicha tarmoq texnik qo‘mitalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlarni, shu jumladan, shartnoma asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va boshqa tashkilotlarning arizalari bo‘yicha ishlab chiqish va realizatsiya qilish, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha bazaviy tashkilot etib belgilansin.

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutining ishchilariga O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari bo‘yicha ishchilar

uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari qo‘llanilsin.

Agentlik bir oy muddatda Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi hukumat qarori loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

13. Quyidagilar:

– «O‘zstandart» agentligining tashkiliy tuzilmasi 6-ilorvaga muvofiq;

– «O‘zstandart» agentligi markaziy apparatining tuzilmasi 7-ilorvaga muvofiq;

– Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta‘minlash departamentining tuzilmasi 8-ilorvaga muvofiq;

– Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta‘minlash departamentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi inspektorlari cheklangan soni 9-ilorvaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan Agentlik boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 153 nafar, shu jumladan, markaziy apparati — 69 nafar etib belgilansin.

14. Agentlik Bosh direktoriga quyidagi huquqlar berilsin:

– zarurat bo‘lganda, boshqaruv xodimlarining belgilangan shtat soni doirasida Agentlik apparati va uning quyi tashkilotlari tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish;

– moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqib, o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, quyi tashkilotlar boshqaruv xodimlarining cheklangan sonini belgilash;

– vazirliklar, idoralar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar texnik qo‘mitalarining mutaxassislarini, ilg‘or loyiha institutlari, ilmiy va ta‘lim muassasalarining mutaxassislarini jalb etish, shuningdek, yuqori

malakali xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish hamda ularga erkin ayirboshlanadigan valyutada ish haqi va boshqa to'lovlar miqdorlarini belgilash;

– o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan va samarali bajarayotgan, Agentlik va Departamentning yuqori malakali, tashabbuskor ishchilariga Agentlik qoshidagi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lash fondining ikki baravari miqdorigacha qo'shimcha haq to'lash.

Agentlikka sifatsiz hamda odamlar hayoti, salomatligi, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlarni olib kirish, ishlab chiqarish va sotish xavfi monitoringini yuritish vazifasi yuklansin.

15. Quyidagilar Agentlik faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari etib belgilansin:

– Agentlik bo'linmalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini qoniqarli baholovchi arizachilar, shuningdek, ularning xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar soni;

– interaktiv shaklda xizmatlar ko'rsatish uchun kelib tushayotgan murojaatlar soni;

– qabul qilingan va qayta ko'rib chiqilgan texnik reglamentlar va standartlar soni, shu jumladan, xalqaro talablarni inobatga olgan holda;

– sifatsiz va xavfli bo'lgan mahsulotlarni olib kirish, ishlab chiqarish va sotish xavfini monitoringi bo'yicha ishlar natijadorligi;

– texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish va profilaktika qilish bo'yicha ishlar natijadorligi.

16. Agentlik bir oy muddatda quyidagilar bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va amalga oshirsin:

– idoraning yangi logotipi va farqlash belgilari yaratilishini ko'zda tutgan holda imidjni yaxshilash;

– ko'rsatiladigan xizmatlar darajasini oshirish maqsadida quyi tashkilotlar faoliyatini baholash amaliyotini joriy etish;

– samaradorlikni baholash natijalari, shu jumladan, korrupsion omillarning oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda axborotlarni tizimli yoritib borish.

17. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Markaziy banki, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa idoralarning statistik axborotlari majburiy jo'natmalar reestriga kiritilsin.

18. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan birgalikda 2019-yil 1-aprelga qadar texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida qonun buzilishi uchun javobgarlikning kuchaytirilishini ko'zda tutadigan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritilsin.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi Tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Agentlik va boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019-yil 1-sentyabrga qadar xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda sifat milliy infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilsin.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 28-apreldagi PQ-2935-son qaroriga 10-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

21. Agentlik, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritilsin.

Vazirlik va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2018-YIL  
12-DEKABRDAGI PQ-4059-SON QARORIGA**

**2-ILOVA**

**2019 – 2021-yillarda texnik reglamentlarni ishlab chiqish**

**DASTURI**

<b>T/r</b>	<b>Texnik reglament nomi</b>	<b>Texnik jihatdan tartibga solish obyektlari</b>	<b>Ishlab chiquvchilar</b>	<b>Yordamchi ijrochilar</b>	<b>Ishlab chiqish muddati</b>
<b>Umumiy texnik reglamentlar</b>					
1.	Ekologik xavfsizlik to‘g‘risida	Mahsulot ishlab chiqarish, saqlash, tashish va utilizatsiya qilish bo‘yicha faoliyat	Davlat ekologiya qo‘mitasi	Sog‘liqni saqlash vazirligi, «O‘zstandart» agentligi	2019-yil 30-martgacha
2.	Mineral o‘g‘itlarning xavfsizligi to‘g‘risida	Mineral o‘g‘itlar	«O‘zkimyosanoat» AJ	Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Sanoatgeokontexn azorat, Fanlar akademiyasi, IIV	2019-yil 30-sentyabr-gacha
3.	Tibbiy texnika va tibbiyot buyumlarining xavfsizligi to‘g‘risida	Tibbiyot buyumlari, tibbiy texnika	Farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi	Sog‘liqni saqlash vazirligi	2019-yil 30-sentyabr-gacha
4.	Sintetik yuvish vositalari va maishiy kimyo tovarlarining xavfsizligi to‘g‘risida	Idish-tovoq, oyna, qattiq yuzalarni yuvish uchun tozalash va yuvish vositalari, sayqallovchi vositalar, kir yuvish uchun qo‘shimcha vositalar	«O‘zkimyosanoat» AJ	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Davlat ekologiya qo‘mitasi	2019-yil 30-sentyabr-gacha

5.	Mevalar va sabzavotlardan olingan sharbat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	Mevalar va/yoki sabzavot sharbatlari va nektarlari, tarkibida sharbat bo'lgan ichimliklar, morslar, mevalar va/yoki sabzavotli pyure, konsentratlangan tabiiy hushbo'yantiruvchi mevalar va/yoki sabzavotli moddalar, sitrus mevalar hujayralari, mevalar va/yoki sabzavot eti	«O'zbekoziqovqat-xolding» XK	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, «O'zstandart» agentligi	2019-yil 30-sentyabrgacha
6.	Bolalar o'yinchoqlarining xavfsizligi to'g'risida	Barcha turdagi bolalar o'yinchoqlari	«O'zstandart» agentligi	Sog'liqni saqlash vazirligi	2019-yil 30-sentyabrgacha
7.	Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to'g'risida	Alkogolsiz, gazlangan, kuchsiz gazlangan, gazlanmagan, alkalogolsiz energetik ichimliklar	«O'zbekoziqovqat-xolding» XK	Sog'liqni saqlash vazirligi	2019-yil 30-sentyabrgacha
8.	Mebel mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	Barcha turdagi mebel mahsulotlari	«O'zstandart» agentligi	Sog'liqni saqlash vazirligi	2019-yil 30-dekabrgacha
9.	Konservalangan oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	Konservalangan mevalar-sabzavotli oziq-ovqat mahsulotlari	«O'zbekoziqovqat-xolding» XK	Sog'liqni saqlash vazirligi	2019-yil 30-dekabrgacha
10.	Foydalanishga topshiriladigan harakatdagi temir yo'l sosti xavfsizligi to'g'risida	Lokomotivlar, motor-vagonli harakatdagi sosti va uning vagonlari, lokomotiv tyagasining yo'lovchi tashuvchi vagonlari, yuk tashuvchi vagonlar, maxsus harakatlanuvchi sosti	O'zdavtemiryo'l nazorati	«O'zbekiston temir yo'llari» AJ	2020-yil 30-sentyabrgacha

11.	Uglevodorodli suyultirilgan gazlarning xavfsizligi to'g'risida	Texnik va avtomobil propani, texnik va avtomobil propan-butani, texnik butan	«O'zbekneftgaz» AJ	O'zneftgazinspektsiya	2020-yil 30-sentyabrigacha
12.	Transport vositalari va qishloq-xo'jaligi texnikasi uchun shinalarning xavfsizligi to'g'risida	Avtotransport vositalari, qishloq-xo'jaligi texnikasi va yuk avtomobillari uchun shinalar	«O'zkimyosanoat» AJ	«O'zavtosanoat» AJ	2020-yil 30-sentyabrigacha
13.	Ozuqa bo'yoqlari, qo'shimchalar, biologik faol qo'shimchalar, yordamchi vositalar va xushbo'ylantiruvchilarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ozuqa, biologik faol ta'm beruvchi va xushbo'ylantiruvchi qo'shimchalar, bo'yoqlar va yordamchi xomashyo	Fanlar akademiyasi	Sog'liqni saqlash vazirligi, «O'zbekoziqovqat xolding» XK	2020-yil 30-iyungacha
14.	Past voltli uskunalarning xavfsizligi to'g'risida	50 — 1000 V o'zgaruvchan tok va 75 — 1500 V o'zgarmas tok kuchlanishda ishlaydigan past voltli uskuna	«O'zeltexsanoat» AJ	«O'zbekenergo» AJ, Fanlar akademiyasi, Quyosh energiyasi xalqaro instituti	2020-yil 30-dekabrigacha
15.	Parfyumeriya-kosmetika mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida	Parfyumeriya-kosmetika mahsulotlari	«O'zstandart» agentligi	Sog'liqni saqlash vazirligi, «O'zkimyosanoat» AJ	2020-yil 30-dekabrigacha
16.	Sintetik tolalarning xavfsizligi to'g'risida	Sintetik tola	«O'zkimyosanoat» AJ	«O'zto'qimachilik-sanoat» uyushmasi	2021-yil 30-martgacha
17.	Tabiiy gazning xavfsizligi to'g'risida	Magistral gaz quvurlariga uzatiladigan va ular orqali tashiladigan tabiiy gaz	«O'zbekneftgaz» AJ	O'zneftgazinspektsiya	2021-yil 30-iyulgacha



18.	Qurilish komplekslari konstruksiyasining xavfsizligi to'g'risida	Yaxlit qurilish konstruksiyalari, qurilish komplekslari	Qurilish vazirligi	«O'zqurilishmateriallari» AJ	2021-yil 30-iyungacha
19.	Ixtisoslashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari, funksional parhez, davolash va parhez-profilaktika ovqatlar xavfsizligi to'g'risida	Sport ovqatlari, homilador va emizikli ayollar uchun mahsulotlar, funksional, parhez, davolash va parhez-profilaktika ovqatlanish bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari	Sog'liqni saqlash vazirligi	«O'zbekoziqovqatxolding» XK	2021-yil 30-martgacha
20.	Tosh, gips va keramikadan tayyorlangan mahsulotlar xavfsizligi to'g'risida	Tosh, gips va keramikadan tayyorlangan mahsulotlar	Qurilish vazirligi	«O'zqurilishmateriallari» AJ	2021-yil 30-martgacha
21.	Kombikorm mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	To'liq ratsionli kombikormlar, kombikorm-konsentratlar, yem aralashmalari, oqsil-vitaminli mineral premikslar va amido-vitaminli mineral konsentratlar	«O'zdonmahsulot» AJ	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat veterinariya qo'mitasi	2021-yil 30-iyulgacha
22.	Ko'mir va uni qayta ishlash mahsulotlariga qo'yiladigan talablar	Ko'mir, ko'mir mahsulotlari	«O'zbekko'mir» AJ	«O'zbekiston temir yo'llari» AJ	2021-yil 30-dekabr-gacha
23.	Organik kimyo mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	Organik kimyo mahsulotlari	«O'zkimyosanoat» AJ	«O'zbekneftgaz» AJ	2021-yil 30-dekabr-gacha
24.	Temir-beton, beton konstruksiyalar xavfsizligiga qo'yiladigan talablar	Temir-beton, beton konstruksiyalar	Qurilish vazirligi	«O'zqurilishmateriallari» AJ	2021-yil 30-dekabr-gacha

25.	Avtotransport vositalari uchun ehtiyot qismlar va buyumlar xavfsizligi to'g'risida	Avtotransport vositalari uchun ehtiyot qismlar va buyumlar	«O'zavtosanoat» AJ	Avtomobil transporti agentligi	2021-yil 30-dekabr-gacha
26.	Shaxsiy himoya vositalarining xavfsizligi to'g'risida	Shaxsiy himoya vositalari	Mehnat vazirligi	FVV, Sanoatgeokontexn azorat	2021-yil 30-dekabr-gacha
27.	Bino va inshootlarning xavfsizligi to'g'risida	Bino va inshootlar	Qurilish vazirligi	IIV	2021-yil 30-dekabr-gacha
28.	Gigiyena mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	Gigiyena mahsulotlari	«O'zstandart» agentligi	Sog'liqni saqlash vazirligi	2021-yil 30-dekabr-gacha
29.	Sanitar-texnik mahsulotlarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari	Sanitar-texnik mahsulotlar	Qurilish vazirligi	«O'zqurilishmateriallari» AJ	2021-yil 30-dekabr-gacha
<b>Maxsus texnik reglamentlar</b>					
30.	Asbestning xavfsizligi to'g'risida	Asbest	Qurilish vazirligi	«O'zqurilishmateriallari» AJ	2019-yil 30-sentyabr-gacha
31.	Fotoelektr stansiyalarning xavfsizligi to'g'risida	Fotoelektr stansiyalar	«O'zbekenergo» AJ	Quyosh energiyasi xalqaro instituti	2020-yil 30-iyungacha
32.	Qovushqoq materiallarning xavfsizligi to'g'risida	Qovushqoq materiallar	Qurilish vazirligi	«O'zqurilishmateriallari» AJ	2020-yil 30-martgacha
33.	Shakar va undan tayyorlanadigan mahsulotlar xavfsizligi to'g'risida	Shakar va undan tayyorlanadigan mahsulotlar	«O'zbekoziqov-qat-xolding» XK	Sog'liqni saqlash vazirligi	2019-yil 30-sentyabr-gacha
34.	Qurilgan mevalar, sabzavotlar va ularni qayta ishlash mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	Qurilgan mevalar, sabzavotlar va ularni qayta ishlash mahsulotlari	«O'zbekoziqov-qat-xolding» XK	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Fermerlar kengashi	2020-yil 30-dekabr-gacha

35.	Polimerlar va ulardan olinadigan mahsulotlarning xavfsizligi to'g'risida	Polimerlar va polimer mahsulotlar	«O'zbekimiyosanoat» AJ	«O'zbekneftgaz» AJ «O'zqurilishmateriallari» AJ	2021-yil 30-iyungacha
36.	O'simliklarni rostlovchi pestitsidlar va o'simliklarni himoyalovchi boshqa kimyoviy vositalarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari	O'simliklar o'sishini rostlagichlar	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Davkiyokomissiya), Fanlar akademiyasi	Sog'liqni saqlash vazirligi	2021-yil 30-martgacha
37.	Baliq va baliq mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	Baliq va baliq mahsulotlari	«O'zstandart» agentligi	Sog'liqni saqlash vazirligi	2020-yil 30-dekabr-gacha
38.	Lak-bo'yoq materiallarining xavfsizligi to'g'risida	Bo'yoqlar, emallar, laklar	Qurilish vazirligi	Sog'liqni saqlash vazirligi, «O'zqurilishmateriallari» AJ	2020-yil 30-dekabr-gacha
39.	Bolalar ovqatlarining xavfsizligi to'g'risida	Barcha turdagi bolalar ovqatlari	Sog'liqni saqlash vazirligi	«O'zbekoziqovqat xolding» XK, Sog'liqni saqlash vazirligi	2020-yil 30-dekabr-gacha
40.	Yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida	Yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlari	Qishloq xo'jaligi vazirligi	«O'zbekoziqovqat zaxira» uyushmasi	2019-yil 30-dekabr-gacha
41.	Qandolat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida	Qandolat va xamir mahsulotlari	«O'zbekoziqovqat-xolding» XK	Sog'liqni saqlash vazirligi	2019-yil 30-oktyabr-gacha
42.	Choy va kofening xavfsizligi to'g'risida	Choy, kofe va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	«O'zbekoziqovqat-xolding» XK	Sog'liqni saqlash vazirligi	2020-yil 30-martgacha

*Izoh:* Ishlab chiqish paytida texnik reglamentlar va texnik jihatdan tartibga solish obyektlarining nomi o'zgartirilishi mumkin.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2018-YIL  
12-DEKABRDAGI PQ-4059-SON QARORIGA**

**3-ILOVA**

**2019 – 2021-yillarda standartlashtirish sohasidagi normativ hujjatlarni  
xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish  
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI**

<b>Ko‘rsatkich nomi</b>	<b>2019 yil</b>	<b>2020 yil</b>	<b>2021 yil</b>
<i>Uyg‘unlashtirilgan standartlar soni</i>	<i>6620</i>	<i>7650</i>	<i>10610</i>
<i>Uyg‘unlashtirish darajasi, %</i>	<i>29,3</i>	<i>33,9</i>	<i>47,0</i>
shundan sohalar kesimida:			
<b>Oziq-ovqat sanoati</b>	775	775	775
Uyg‘unlashtirilgan standartlar soni	370	444	639
<i>Uyg‘unlashtirish darajasi, %</i>	<i>47,8</i>	<i>57,3</i>	<i>82,5</i>
<b>To‘qimachilik va charm-poyabzal sanoati</b>	739	739	739
Uyg‘unlashtirilgan standartlar soni	288	346	498
<i>Uyg‘unlashtirish darajasi, %</i>	<i>39,0</i>	<i>46,8</i>	<i>67,3</i>
<b>To‘qimachilik sanoati</b>	114	114	114
Uyg‘unlashtirilgan standartlar soni	32	37	48
<i>Uyg‘unlashtirish darajasi, %</i>	<i>27,8</i>	<i>32,0</i>	<i>42,3</i>
<b>Metallurgiya</b>	905	905	905
Uyg‘unlashtirilgan standartlar soni	212	243	322
<i>Uyg‘unlashtirish darajasi, %</i>	<i>23,4</i>	<i>26,9</i>	<i>35,6</i>
<b>Qurilish sanoati</b>	821	821	821
Uyg‘unlashtirilgan standartlar soni	186	242	408
<i>Uyg‘unlashtirish darajasi, %</i>	<i>22,6</i>	<i>29,4</i>	<i>49,7</i>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING 2018-YIL  
12-DEKABRDAGI PQ-4059-SON QARORIGA**

**ILOVA**

**Majburiy sertifikatlashtirilishi 2019-yil 1-yanvardan boshlab faqat «O‘zstandart» agentligi tizimidagi sertifikatlashtirish organlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazi tomonidan yangidan akkreditatsiya qilingan boshqa sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshiriladigan, chetdan olib kiriladigan iste‘mol tovarlari**

**RO‘YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Nomi</b>	<b>TIF TN kodi</b>
1.	Go‘sh t va ozuqaviy ikkilamchi, shu jumladan, qadoqlangan go‘sh t mahsulotlari	0201 — 0210
2.	Baliq va qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va boshqa suv umurtqasizlari	0301 — 0308 (0301 11 000 0, 0301 19 000 0 dan tashqari)
3.	Sut mahsulotlari (tayyorlanadigan sutdan tashqari); parranda tuxumlari (inkubatsiyalash uchun mo‘ljallangan tuxumlardan tashqari); tabiiy asal; hayvonlardan (faqat ozuqa sifatida iste‘mol qilish uchun) olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari	0401 — 0406, 0407 00, 0408 (0408 11 200 0, 0408 19 200 0, 0408 91 200 0, 0408 99 200 0 dan tashqari), 0409 00 000 0
4.	Sabzavotlar (urug‘lik materialidan tashqari) va ba‘zi yeyiladigan ildizmevalar va tugunak mevalar.	0701 — 0712, 0714 (0709 60 910 0, 0709 60 950 0 dan tashqari)
5.	Yeyiladigan mevalar va yong‘oqlar; sitruslar yoki qovunlarning po‘stlog‘i va ildizlari	0801 — 0814 00 000 0
6.	Qahva, choy va ziravorlar	0901 — 0910
7.	Sharbatlar va o‘simlik ekstraktlari; pektin moddalar, pektinatlar va pektatlar; agar-agar va o‘simliklardan olinadigan turi o‘zgartirilgan yoki turi o‘zgartirilmagan quyultirgichlar	1302
8.	Hayvon yoki o‘simlikdan olinadigan yog‘lar va moylar, ularni parchalash mahsulotlari, tayyorlangan ozuqaviy yog‘lar; hayvon yoki o‘simlikdan olinadigan mumlar	1501 — 1517 (1501 10 100 0, 1501 20 100 0, 1502 10 100 0, 1502 90 100 0, 1503 00 110 0, 1503 00 300 0, 1507 10 100 0, 1507 90 100 0, 1508 10 100 0, 1508 90 100 0, 1511 10 100 0, 1511 90 910 0, 1512 11 100 0, 1512 19 100 0, 1512 21 100 0, 1512 29 100 0, 1513 11 100 0, 1513 19 300 0, 1513 21 100 0, 1513 29 300 0 1514 11 100 0, 1514 19 100 0, 1514 91 100 0, 1514 99 100 0, 1515 21 100 0, 1515 29 100 0, 1515 50 110 0, 1515 50 910 0, 1515 90 210 0, 1515 90 310 0, 1515 90 400 0, 1515 90 600 0 dan tashqari), 1521 90 910 0, 1521 90 990 0
9.	Go‘sh t, baliq yoki qisqichbaqasimon yoxud boshqa suv umurtqasizlaridan tayyor mahsulotlar	1601 00 — 1605
10.	Shakar va shakardan tayyorlangan qandolat mahsulotlari	1701 — 1704

11.	Boshqoli don urug'i, un, kraxmal yoki sutdan tayyor mahsulotlar, undan tayyorlangan qandolat mahsulotlari	1901 — 1905
12.	Sabzavotlar, mevalar, yong'oqlar va o'simliklarning boshqa qismlarini qayta ishlashdan olingan mahsulotlar	2001 — 2009
13.	Alkogolli va alkogolsiz ichimliklar va sirka	2201 — 2209 00
14.	Savdo tarmog'i orqali aholiga sotish uchun umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidan ishlab chiqariladigan oziq-ovqat, oshpazlik mahsulotlari va yarimfabrikatlar.	0201 dan 2106 gacha tovar pozitsiyalarida nomlab chiqilgan mahsulotlardan tayyorlangan
15.	Charmdan tayyorlangan mahsulotlar	4203 21 000 0
16.	Yog'ochdan ishlangan oshxona anjomlari (oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda ishlatiladigan)	4419
17.	Daftarlar, kundaliklar, rasm chizish uchun albomlar (daftarlar)	4820 10 500 0, 4820 20 000 0
18.	Mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj kiyim-kechaklar (bolalar assortimenti)	6105, 6111, 6112, 6115
19.	Mashina yoki qo'lda to'qilgan (trikotajdan tashqari) kiyim-kechaklar (bolalar assortimenti)	6207 — 6211
20.	Poyabzal va shunga o'xshash mahsulotlar (bolalar assortimenti va boks poyabzali) (faqat tayyor poyabzal)	6401 — 6405
21.	Elektr maishiy texnika, elektr suv isitgichlar, lampalar va elektron trubkalar, cho'g'lanma lampalar (12 W dan ortiq)	8508 11 000 0 — 8508 60 000 0, 8509 (8509 90 000 0 dan tashqari), 8516 10 — 8516 80 800 0, 8528 (8528 41 000 0, 8528 51 000 0 dan tashqari), 8539 10 000 — 8539 49 000 0 (8539 10 000 1, 8539 21 300 1, 8539 29 300 1 dan tashqari), 8543 70 900 0
22.	Bolalar o'yinchoqlari, o'yinlari	9503 00

**Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish va qo‘llash tartibi to‘g‘risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy mamlakatlar standartlarini (keyingi o‘rinlarda Standartlar deb ataladi) O‘zbekiston Respublikasida qabul qilish va qo‘llash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

– xalqaro standart – standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot doirasida qabul qilingan standart;

– mintaqaviy yoki davlatlararo standart – standartlashtirish sohasida mintaqaviy tashkilot doirasida qabul qilingan standart;

– xorijiy mamlakatning standarti – xorijiy davlatning standartlashtirish bo‘yicha vakolatli organi tomonidan qabul qilingan standart;

– manfaatdor tomonlar – Standartlarni qabul qilish va (yoki) ularni qo‘llashdan manfaatdor bo‘lgan mahsulotlarning (xizmatlarning) tegishli turlarini ishlab chiqaruvchi yoki iste‘mol qiluvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar.

3. Standartlarni qabul qilish uchun quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:

– O‘zbekiston Respublikasi hukumatining topshiriqlarini bajarish maqsadida ishlab chiqilgan Standartlarni qabul qilish bo‘yicha rejalar, dasturlar va tadbirlar;

– «O‘zstandart» Agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Respublika standartlashtirish yillik dasturi;

– standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalarining ish rejalari;

– manfaatdor tomonlarning «O‘zstandart» Agentligiga buyurtmanomolari (murojaatlari).

Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarining standartlarini qabul qilish ushbu Nizomning ilovasidagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Standartlarni davlat tiliga tarjima qilish manfaatdor taraf tomonidan ta'minlanadi.

## **2-bob. Xalqaro standartlarni qabul qilish**

5. Xalqaro standartlar O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari shaklida, davlat tilida va standartning asli yozilgan tillardan birida qabul qilinadi.

6. Respublikada xalqaro standartlarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi davlat standartlari shaklida quyidagicha amalga oshiriladi:

– IDT qisqartirma bilan belgilangan, xalqaro standartlar bilan aynan o'xshash;

– MOD qisqartirma bilan belgilangan xalqaro standartga nisbatan modifikatsiyalangan;

– NEQ qisqartirma bilan belgilangan xalqaro standartlarga nisbatan ekvivalent bo'lmagan.

7. Xalqaro standartlarni O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari sifatida qabul qilishga tayyorgarlik bo'yicha ish standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari, ular bo'lmagan taqdirda – «O'zstandart» Agentligi huzuridagi standartlashtirish, sertifikatlash-tirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o'rinlarda Institut deb ataladi) tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

8. Agar O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan xalqaro standartda davlat standarti sifatida qabul qilinmagan standartlarga havolalar mavjud bo'lsa, ularni bir vaqtda qabul qilish ishlari olib borilishi zarur.

9. Havola qilinadigan xalqaro standartlarni bir vaqtda qabul qilish ishlari olib borilayotganida, birinchi o'rinda, qabul qilinayotgan xalqaro



standart bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va uning talablari bajarilishini ta’minlaydigan havola qilinadigan xalqaro standartlarning ahamiyati hisobga olinishi zarur.

10. O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti quyidagi hollarda xalqaro standartlar bilan aynan o‘xshash hisoblanadi:

– O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti texnik tarkibi, tuzilishi va mazmuni jihatidan aynan o‘xshash bo‘lsa;

– O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti texnik tarkibi jihatidan aynan o‘xshash, biroq unga tahririy o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

11. Xalqaro standartga aynan o‘xshash bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikatsiya raqami titul varaqda aynan o‘xshash xalqaro standartning raqami ko‘rsatilgan holda saqlab qolinadi.

Masalan, O‘z DSt ISO 5524:2017 (ISO 5524:1991, IDT).

12. O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti quyidagi shartlar bilan xalqaro standartga nisbatan modifikatsiyalangan hisoblanadi:

– identifikatsiyalangan va tushuntirish berilgan texnik og‘ishlarni o‘z ichiga olgan;

– identifikatsiyalangan va tushuntirish berilgan hamda har ikkala standart tuzilmasini oddiy taqqoslash imkoni bo‘lsagina o‘zgartirish kiritishga ruxsat beriladigan xalqaro standartning (xalqaro hujjatning) tuzilmasini aks ettiradi;

– xalqaro standartlarga havolalarni almashtirishi mumkin bo‘lgan normativ havolalar shaklida O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlari mavjud bo‘lmasa – har bir havola o‘rniga havola qilinadigan xalqaro standart mazmunini (uning bo‘limlari, bo‘linmalari, bandlarini, kichik bandlari, ilovalarini) muqobil almashtirishi mumkin bo‘lgan qoida keltiriladi;

– qo‘llaniladigan xalqaro standart matnida aynan o‘xshash yoki modifikatsiyalangan davlat standartlari sifatida qabul qilingan boshqa xalqaro standartlarga havolalar bo‘lsa – o‘zgartirilgan standart loyihasini

tayyorlashda xalqaro standartlarga havolalar o‘rniga ular bilan uyg‘unlashtirilgan davlat standartlariga havolalardan foydalanadi.

Modifikatsiyalangan standart matnida xalqaro standartga havola o‘rniga bir xil standartlashtirish obyektiga (mahsulot, jarayon yoki xizmat) tatbiq etiladigan, biroq havola qilinadigan xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilmagan davlat standartiga havola qilishga ruxsat etiladi.

13. Xalqaro standartga nisbatan modifikatsiyalangan O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikatsiya raqami titul varaqda aynan o‘xshash xalqaro standartning raqami ko‘rsatilgan holda saqlab qolinadi.

Masalan, O‘z DSt 9227:2015 (ISO 9227:2012, MOD)

14. O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti quyidagi shartlarda xalqaro standartga nisbatan noekvivalent hisoblanadi:

– identifikatsiyalanmagan va ularni kiritish sabablari tushuntirilmagan texnik og‘ishlarni o‘z ichiga olgan;

– identifikatsiyalanmagan va tushuntirilmagan, tuzilmasida xalqaro standart bilan oddiy taqqoslashni ta’minlamaydigan o‘zgarishlarga ega;

– xalqaro standart talablarining katta bo‘lmagan (miqdori va/yoki ahamiyati jihatidan) qismini o‘z ichiga olgan.

15. Xalqaro standartga nisbatan noekvivalent O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikatsiya raqami tartib raqamiga qo‘yilmaydi. Noekvivalent xalqaro standartning raqami titul varaqqa yozib qo‘yiladi.

Masalan. O‘z DSt 3722:2014 (ISO 3290-1:2008, NEQ).

### **3-bob. Mintaqaviy yoki davlatlararo standartlarni qabul qilish**

16. Respublikada mintaqaviy standartlarni qabul qilish standartning identifikatsiya raqamini davlat tilida va standartning asli yozilgan tillardan birida saqlangan holda bevosita qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

17. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zo – mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo kengashi doirasida qabul qilinadigan standartlar Davlatlararo kengashning standartlashtirish bo'yicha ishlarni olib borish qoidalariga muvofiq qabul qilinadi.

18. Agar qabul qilinadigan hududiy yoki davlatlararo standartlarda respublikada qabul qilinmagan boshqa xalqaro, mintaqaviy yoki davlatlararo standartlarga havolalar bo'lsa, ularni bir vaqtda qabul qilish bo'yicha ishlar olib borilishi kerak.

19. Xalqaro, mintaqaviy yoki davlatlararo standartlarni bir vaqtning o'zida qabul qilish bo'yicha ish olib borishda, birinchi navbatda qabul qilinayotgan mintaqaviy yoki davlatlararo standart bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va ularning talablari bajarilishini ta'minlaydigan havola qilingan standartlarni qabul qilish muhimligini hisobga olish kerak.

#### **4-bob. Xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish**

20. Respublikada xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish standartning identifikatsiya raqamini davlat tilida hamda standartning asli yozilgan tillardan birida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

21. Xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha vakolatli organlaridan olingan ushbu mamlakatlarning standartlarini qo'llash to'g'risidagi rozilik respublikada xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

22. Qabul qilinayotgan xorijiy mamlakatlar standartida respublikada qabul qilinmagan boshqa Standartlarga havolalar mavjud bo'lsa, ularning bir vaqtda qabul qilinishi bo'yicha ishlar olib borilishi kerak.

23. Havola qilingan Standartlarni bir vaqtning o'zida qabul qilish bo'yicha ish olib borishda, birinchi navbatda qabul qilinayotgan xorijiy mamlakatning standarti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va ularning talablari bajarilishini ta'minlaydigan havola qilingan Standartlarni qabul qilish muhimligini hisobga olish kerak.

## **5-bob. Standartlarni kelishish va qo‘llash tartibi**

24. Standartlarni qabul qilish bo‘yicha «O‘zstandart» Agentligiga ariza tushganidan so‘ng, «O‘zstandart» Agentligi besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatda xorijiy mamlakatlarning standartlarini qo‘llash to‘g‘risida roziligini olish uchun ushbu mamlakatlarning vakolatli organlariga so‘rov yuboradi.

25. Qabul qilinayotgan Standartlarni manfaatdor tomonlar bilan kelishish standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalari, ular bo‘lmagan taqdirda – Institut tomonidan amalga oshiriladi.

26. Qabul qilinayotgan Standart manfaatdor tomonlar tomonidan o‘n besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqiladi va ushbu standartni respublikada qabul qilishning maqsadga muvofiqligi (maqsadga muvofiq emasligi) bo‘yicha takliflar kiritiladi.

27. Manfaatdor tomonlar tomonidan o‘n besh kun mobaynida takliflar kiritilmasa, ushbu Standart kelishilgan hisoblanadi.

28. Kelishish natijalariga ko‘ra standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalari (ular bo‘lmagan taqdirda – Institut) besh kun muddatda «O‘zstandart» Agentligiga ushbu Standartni respublikada qabul qilish maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi xulosani taqdim etadi.

29. Standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash maqsadga muvofiqligi yoki maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida «O‘zstandart» Agentligi tomonidan besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatda qaror qabul qilinadi.

Standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lmagan hollarda «O‘zstandart» Agentligi manfaatdor tomonlarga asoslangan rad javobini yuboradi.

30. Standartlar ularni amalga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab uch oydan kechikmay kuchga kiradi.

Amaldagi davlat standarti o‘rniga Standart qabul qilingan taqdirda o‘n ikki oydan ko‘p bo‘lmagan o‘tish davri nazarda tutiladi.

31. O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan Standartlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning Davlat fondi tarkibiga kiritiladi.

32. «O‘zstandart» Agentligi, qabul qilingan standartlar reestrini yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan Standartlar to‘g‘risidagi ma’lumot «O‘zstandart» Agentligi va Institutning rasmiy saytlarida qo‘llash haqidagi qaror qabul qilingandan so‘ng 5 kundan kech bo‘lmagan muddatda e’lon qilinadi.

33. Xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari ularni qo‘llash doirasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan qo‘llaniladi.

### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

34. Standartlar va ularga kiritilgan o‘zgarishlarni nashr qilish va qayta nashr qilish ularni tasdiqlagan xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo‘yicha milliy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

35. O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan standartlarni va ularga o‘zgarishlarni qabul qilish ularni tasdiqlagan tegishli xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning milliy organlari bilan tuzilgan bitimlarga va shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

# **Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida**

## **NIZOM**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning (keyingi o'rinlarda TQ deb ataladi) faoliyatini tashkil etish, tugatish tartibi, asosiy funksiyalarini, TQ doirasida ishlarni amalga oshirish va qarorlar qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

– standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita – faoliyatning birlashtirilgan sohasi bo'yicha milliy, mintaqaviy, davlatlararo va xalqaro standartlashtirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha manfaatdor tomonlarning hamkorlik qilish shakli;

– mas'ul kotib – TQ ishlarini yurituvchi shaxs;

– manfaatdor tomon – standartlarni qabul qilish va qo'llashdan manfaatdor bo'lgan tegishli mahsulot (xizmat) turlarini ishlab chiqaruvchi yoki iste'mol qiluvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar;

– standartlashtirish sohasi – standartlashtirishning o'zaro bog'liq obyektlari majmui;

– standartlashtirish tizimi – standartlashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga soluvchi tizim;

3. TQ o'z ishida:

– O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga;

– O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan standartlashtirish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning hujjatlariga;

– O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan standartlashtirish sohasidagi xalqaro shartnomalar va bitimlarga;

– O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (keyingi o'rinlarda Agentlik deb ataladi) tomonidan ushbu

Nizomga 1-ilovaga muvofiq shaklda tasdiqlanadigan standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita to'g'risidagi namunaviy nizomga amal qiladi.

4. TQ faoliyatiga umumiy rahbarlikni Agentlik, uning faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish, axborot-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash va kuzatib borish – Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan amalga oshiriladi (keyingi o'rinlarda Institut deb ataladi).

## **2-bob. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning tuzilmasi**

5. TQ tuzilmasiga quyidagilar kiradi: rais, rais o'rinbosari (zarur bo'lganda), mas'ul kotib, TQga a'zo-tashkilotlar.

6. TQga rais boshchilik qiladi.

Rais, rais o'rinbosari tashkilotlar rahbarlari, rahbar o'rinbosarlari, bosh konstruktorlar, bosh texnologlar va TQ a'zolari bo'lgan bo'limlar rahbarlaridan saylanadi.

7. TQ kotibiyati ishiga TQ mas'ul kotibi rahbarlik qiladi.

Mas'ul kotib TQ kotibiyatini boshqaruvchi tashkilot xodimlaridan tanlanadi.

8. TQ faoliyatiga tegishli tartibga solish sohasiga taalluqli bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruv organi vakili bo'lmagan TQ kotibiyati Institut tomonidan yuritiladi.

9. TQ tuzilmasida TQ faoliyatining ayrim sohalari bo'yicha ishlarning muayyan qismini bajarish uchun TQ faoliyati sohalari tegishli chegaralangan holda quyi qo'mitalar tuzilishi mumkin.

Standartlashtirish bo'yicha quyi qo'mitani tuzish uchun kamida uchta TQga a'zo tashkilot uning ishida ishtirok etishga tayyorligini bildirishi kerak.

10. Quyi qo'mitalarni tuzish, ularning raislari va mas'ul kotiblarini tayinlash ushbu Nizomning 53-bandiga muvofiq TQga a'zo tashkilotlarning ovoz berishi orqali amalga oshiriladi.

11. TQ doirasida aniq loyiha bo'yicha ishlarni tashkil etish uchun quyi qo'mita ushbu Nizomning 32-bandiga muvofiq TQga a'zo tashkilotlar va manfaatdor tomonlardan tashkil topgan ishchi guruhlarini tashkil etishi mumkin.

Ishchi guruhlarni tuzish, ularning rahbarlarini tayinlash ushbu Nizomning 53-bandiga muvofiq TQga a'zo tashkilotlarning ovoz berishi orqali amalga oshiriladi

Ishchi guruhning faoliyati loyiha tugagandan so'ng to'xtatiladi.

12. TQ tuzilmasi va tarkibining o'zgarishi to'g'risidagi axborot qaror qabul qilingan kundan boshlab o'n kun mobaynida Institutga yuboriladi.

### **3-bob. TQ faoliyatini tashkil etish va tugatish**

13. Har qanday manfaatdor tomon TQni tashkil etish tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega.

14. TQ faoliyatini ta'minlash TQ kotibiyati tomonidan amalga oshiriladi.

TQ kotibiyati faoliyatning Institut, muayyan sohalariga va mahsulot turlariga, uni ishlab chiqarish, ekspluatatsiya qilish (foydalanish), saqlash, tashish (transportda tashish), realizatsiya va utilizatsiya qilish jarayonlariga ixtisoslashgan yoki ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga hamda ushbu sohada eng yuqori ilmiy-texnik salohiyatga ega bo'lgan yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari yoki boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan yuritiladi.

15. TQ kotibiyatini yuritishni rejalashtirayotgan tashkilot quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

– TQ faoliyatining tegishli sohasida o'qigan va ish tajribasiga ega bo'lgan standartlashtirish sohasidagi mutaxassislar;

– zarur moddiy-texnik baza va aloqa vositalari;

– hujjatlarni chet tilidan davlat tiliga tarjima qilishni tashkil etish imkoniyati.

16. TQni shakllantirish uchun tashabbus ko'rsatuvchi standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ishida ishtirok etish uchun TQ va uning taxmin qilingan faoliyat sohasini tuzish zarurati asoslarini keltirgan holda ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitasining namunaviy ish dasturi loyihasiga va TQ to'g'risidagi nizom loyihasiga binoan standartlarning davlatlararo tasniflagichiga muvofiq kodlar bilan standartlashtirish obyektlarini o'z



ichiga olgan taklif-xatni Institutga, shuningdek, barcha manfaatdor shaxslarga yuboradi.

17. Manfaatdor tomonlarning ko'pchiligiga TQni tuzishni boshlash haqida ma'lumot berish uchun Institut, Agentlik va Institutning rasmiy saytida tegishli xabarnomani joylashtiradi.

18. TQ tarkibi manfaatdor shaxslarning manfaatlarini hisobga olgan holda quyidagilarning vakillaridan shakllantiriladi:

– TQ faoliyati sohasiga tegishli sohaga taalluqli bo'lgan tartibga solish doirasiga doir davlat va xo'jalik boshqaruv organlari;

– TQ faoliyati sohasiga tegishli mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar (iste'molchilar) bo'lgan tashkilotlar;

– TQ faoliyati sohasiga tegishli mahsulotlar iste'molchilari (buyurtmachilari) bo'lgan tashkilotlar;

– iste'molchilarning jamoat birlashmalari;

– ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'lim muassasalari;

– Institut;

– muvofiqlikni baholash organlari va boshqalar.

19. TQ kotibiyatini yuritishni rejalashtiradigan tashkilot TQ faoliyatida ishtirok etish istagini bildirgan manfaatdor shaxslar vakillarining tashkiliy yig'ilishini o'tkazadi, unda standartlarning davlatlararo tasniflagichi kodlari bilan standartlashtirish obyektlari, TQ to'g'risidagi nizom loyihasi, TQning ish dasturi ko'rsatilgan holda TQ faoliyati sohasi ma'qullanishi kerak hamda rais, rais o'rinbosar(lar)i va mas'ul kotib lavozimlariga nomzodlar ko'rsatiladi.

O'tkazilgan tashkiliy yig'ilish natijalariga ko'ra barcha ishtirokchilar tomonidan imzolangan bayonnoma tuziladi.

TQni tuzish to'g'risidagi taklif kamida beshta manfaatdor shaxs tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

TQ to'g'risidagi nizom loyihasi TQ raisi lavozimiga taklif etiladigan vakil tashkilotning boshlig'i (rahbar o'rinbosari) va TQ kotibiyatini yuritishni rejalashtirgan tashkilot rahbari (rahbar o'rinbosari) bilan kelishilishi kerak.

20. TQ kotibiyatini yuritishni rejalashtirgan tashkilot TQ to'g'risidagi nizom loyihasi (qog'oz va elektron tashuvchi) bilan TQni tuzish bo'yicha qaror qabul qilish haqida ma'qullangan materiallarni, TQning ish dasturini, TQ tarkibini (TQga a'zo tashkilotlar ro'yxati) Institutga yuboradi.

21. Institut Agentlikning TQni tashkil etish to'g'risidagi buyrug'i loyihasini bir haftalik muddatda tayyorlaydi va belgilangan tartibda tasdiqlashga taqdim etadi, unda TQning nomi mavjud bo'ladi, kotibiyatni yuritish vazifasi yuklangan tashkilot, TQ faoliyati sohasi, TQ nizomi, uning tarkibi belgilanadi.

22. Agentlik bir hafta muddatda buyruqni qabul qiladi va uning nusxasini Institut va TQ kotibiyatiga yuboradi.

23. Identifikatsiya va hisoblash maqsadlari uchun tuzilgan TQga «STQ» (Standartlashtirish texnik qo'mitasi) harflaridan, identifikatsiya (tartib) raqami va TQ nomidan tashkil topgan belgilar beriladi.

Identifikatsiya (tartib) raqamlari Agentlik tomonidan tuzilgan va TQ yagona reestriga kiritilgan tartibda beriladi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- TQni ro'yxatga olish tartib raqami;
- TQ nomi;
- qoshida TQ tuzilgan manfaatdor tomon nomi;
- TQ faoliyati sohasi;
- TQ faoliyati tugatilganda uning raqami boshqa TQga berilmaydi.

24. Har bir quyi qo'mita o'z identifikatsiya (tartib) raqami va nomiga ega bo'ladi. Quyi qo'mitaning belgilanishi «STQQ» harflari, quyi qo'mita raqami va uning nomini o'z ichiga oladi.

Quyi qo'mitalar tuzilgan tartibda raqamlanadi. Quyi qo'mitaning faoliyati tugatilganda uning raqami boshqa quyi qo'mitaga berilmaydi.

25. TQ to'g'risidagi tasdiqlangan nizom, TQ tarkibi va TQ ish dasturi Institutning saytiga joylashtiriladi.

26. TQ faoliyati quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

- tashkil etilish maqsadidagi ishlarni bajarilishi yakuniga yetganda;

- TQ faoliyati sohasida o‘n ikki oy davomida ishning mavjud emasligi;
- ushbu Nizomning 53-bandiga muvofiq ovoz berish;
- TQga a‘zo — tashkilotlarning soni beshtadan kamayganda;
- TQ faoliyatining samaradorligini baholashning salbiy natijalari.

TQ faoliyatining to‘xtatilishi TQ yig‘ilishi bayonnomasini taqdim etish yoki Institut taklifiga binoan Agentlikning qarori bilan rasmiylashtiriladi

27. TQ yagona reestri Agentlik va Institutning rasmiy saytlarida joylashtiriladi.

#### **4-bob. Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning tarkibi**

28. TQda a‘zolikning bir toifasi – teng huquqli a‘zolik belgilanadi.

29. Agar manfaatdor tomon TQga birlashtirilgan bir yoki bir nechta standartlarni ishlab chiqish, moliyalashtirishdan yoki TQ faoliyat sohasidagi ishlardan manfaatdor bo‘lsa, TQ tarkibiga kirish huquqiga ega.

Manfaatdor tomon TQ kotibiyatiga (agar TQ tashkil etish jarayonida bo‘lsa – TQ kotibiyatini yuritishni rejalashtirayotgan tashkilotga) TQ ishida ishtirok etish uchun tashkilotning doimiy vakolatli vakilining bog‘lanish ma‘lumotlari (F.I.Sh., lavozimi, telefon raqami, elektron pochta manzili) ko‘rsatilgan xatni yuboradi. Zarur bo‘lganda TQ ishida ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan boshqa vakillar ishtirok etishi mumkin.

TQga a‘zo tashkilot o‘n kun mobaynida TQning mas‘ul kotibiga doimiy vakolatli vakilining bog‘lanish ma‘lumotlarining o‘zgarganligi haqida xabar berishi kerak.

30. Doimiy vakolatli vakillar TQ kotibiyati bilan aloqada bo‘lib, tashkilotning rahbariyatiga kerakli ma‘lumotlar berib, TQga a‘zo tashkilot nomidan ovoz beradi.

31. Mavjud TQga tarkibiga kirish to‘g‘risidagi manfaatdor tomonlarning so‘rovlari olinganda uning mas‘ul kotibi TQning barcha a‘zo tashkilotlarga tanishish uchun axborot yuboradi.

TQ mas‘ul kotibi Institutga TQ tarkibiga o‘zgartirish kiritilganligi haqida axborot yuboradi.

32. TQ o‘tkazadigan ishlarda manfaatdor shaxslar, alohida mutaxassislar, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning vakillari ovoz berish huquqisiz ishtirok etishi mumkin.

33. Agar TQga a’zo tashkilot muntazam ravishda TQ faoliyatida ishtirok etmasa (ketma-ket uch marotabadan ko‘p), asosli sabablarsiz ishlab chiqilayotgan standartlar yuzasidan ovoz bermasa yoki TQ nizomida belgilangan boshqa tartib-taomillarga rioya qilmasa, kotibiyat unga ogohlantirish yuborish huquqiga ega. Agar ogohlantirishdan so‘ng bir yil davomida TQga a’zo tashkilot o‘zining majburiyatlarini tegishli bo‘lmagan ko‘rinishda bajarishda davom etsa, u ushbu Nizomning 53-bandiga muvofiq ovoz berish yo‘li bilan TQ tarkibidan chiqarib tashlanishi mumkin.

TQning mas’ul kotibi qabul qilingan qaror haqidagi axborotni Institutga yuboradi.

34. TQ tarkibidan chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilishda TQga a’zo – tashkilot chiqish sanasidan kamida ikki oy oldin TQ kotibiyatini ogohlantirishi kerak.

TQning mas’ul kotibi ushbu axborotni Institutga yuboradi.

35. TQ tarkibidagi o‘zgarishlar (qo‘shilish, chiqarib tashlash, chiqish) Agentlikning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi, nusxasi TQga va Institut kotibiyatiga yuboriladi.

### **5-bob. Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalarning vazifalari va funksiyalari**

36. Quyidagilar TQning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– standartlashtirish tizimlarining faoliyatini va rivojlanishini ta’minlashda qatnashish, xalqaro standartlarni qo‘llash asosida uni xalqaro, davlatlararo tizimlar bilan uyg‘unlashtirish;

– standartlarni ishlab chiqish, qabul qilish, qayta ko‘rib chiqishda ilg‘or xorijiy tajribani joriy qilish yo‘li bilan, shu jumladan, ularda an’anaviy texnologiyalarning oldinda boruvchi imkoniyatlarini, istiqbolga dastlabki talablarni belgilashni hisobga olgan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatdoshligi oshirilishini ta’minlashda ishtirok etish.

37. Quyidagilar TQning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- standartlarni ishlab chiqishda manfaatdor tomonlarning takliflarini ko‘rib chiqish;
- standartlarni ishlab chiqish, o‘zgartirishlar kiritish, qayta ko‘rib chiqish va bekor qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- TQning ish dasturiga muvofiq standartlarni ishlab chiqish, ko‘rib chiqish, va tasdiqlashga tayyorlash;
- O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan va ushbu TQga birlashtirilgan standartlarni tahlil qilish (keyingi o‘rinlarda standartlarni tekshirish deb ataladi);
- O‘zbekiston Respublikasi hududida xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni joriy etish va amaldagi davlat standartlarini bekor qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- xalqaro, mintaqaviy va boshqa davlatlarning milliy standartlarini qo‘llashda ko‘maklashish;
- TQ faoliyati sohasida standartlashtirish holati bo‘yicha tahliliy materiallar tayyorlash;
- standartlashtirish bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning TQ ishida ishtirok etish.

TQga a‘zo tashkilotlarning doimiy vakolatli vakillari, TQ, quyi qo‘mita, ishchi guruh yig‘ilishlarida, shuningdek, bevosita o‘z tashkiloti tomonidan yuklangan funksiyalarni masofadan turib bajaradi.

38. Quyidagilar TQ raisining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- TQning, jumladan, uning quyi qo‘mitalari va ishchi guruhlari ishini tashkil qilish va rahbarlik qilish;
- standartlashtirish maqsadlari va vazifalariga muvofiq TQ faoliyatining texnik siyosatini belgilash;
- TQ faoliyati sohasi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha barcha davlat va jamoat tashkilotlarida TQ nomidan vakillik qilish;
- TQning ish dasturini tasdiqlash;
- TQ yig‘ilishini o‘tkazish.

TQ raisining o‘rinbosari rais tomonidan berilgan vazifalarni, shuningdek, rais yo‘qligida uning vazifalarini bajaradi.

39. Quyidagilar TQ mas‘ul kotibining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- TQ yig‘ilishlarini o‘tkazishga tayyorlash va o‘tkazilishini ta‘minlash;
- TQ tarkibiga kiradigan quyi qo‘mitalar va ishchi guruhlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;
- TQ ish dasturlari loyihalarini tayyorlash va ushbu dasturlarning bajarilishini nazorat qilish;
- standartlar loyihalarini ishlab chiqishni tashkil etish;
- manfaatdor tomonlar tarafidan standartlar loyihalarini ko‘rib chiqishni tashkil etish, ularni ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etishga tayyorlash;
- manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish uchun standartlar loyihalarini internet tarmog‘iga joylashtirish;
- TQga a‘zo tashkilotlar tomonidan TQga tushgan materiallar va hujjatlar loyihalari ko‘rib chiqilishini ta‘minlash;
- TQga birlashtirilgan standartlar ro‘yxatini yangilash;
- TQ qarorlarini rasmiylashtirish;
- ish yuritish, hujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olish, shu jumladan, tashkilotlar bilan yozishmalar olib borish;
- ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning namunaviy yillik hisobotini tayyorlash;
- yillik hisobotni tasdiqlash uchun TQ raisiga taqdim etish va 1-fevraldan kechiktirmay Institutga va TQ ga a‘zo tashkilotlarga yuborish.

### **6-bob. Standartlashtirish bo‘yicha ishlarni rejalashtirishda ishtirok etish**

40. TQ Standartlashtirish davlat rejasini, standartlashtirish tarmoq dasturlarini shakllantirishda ishtirok etadi.

41. TQ kotibiyati TQ ga a‘zo tashkilotlarning takliflarini, TQ (quyi qo‘mita) qarorlarini va Agentlik tomonidan belgilangan ustuvor vazifalarni hisobga olgan holda standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning ish dasturini ishlab chiqadi. Standartni ishlab chiqish to‘g‘risida taklif tushsa, kotibiyat uni ishlab chiqishning maqsadga

muvofiqligini yig'ilishda yoki masofadan turib TQ a'zolari o'rtasida muhokama qilishi kerak.

42. TQga a'zo tashkilotlarning takliflari asosida TQ har yili standartlashtirish davlat rejasiga taklif-buyurtmanomalar tayyorlaydi.

43. Agar tasdiqlangan standartlashtirish davlat rejasiga o'zgartirishlar kiritish zarur bo'lsa, a'zo-tashkilotlar TQ doirasida ko'rib chiqish uchun qo'shimcha taklif-buyurtmanomalar beradi.

### **7-bob. Standartlarni ishlab chiqish va tekshirish**

44. TQ standartlashtirish tizimi talablariga muvofiq holda standartlarni ishlab chiqadi.

45. TQ standartlarning O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, texnik reglamentlarga, xalqaro (mintaqaviy) standartlarga muvofiqligini tahlil qilish maqsadida ularni tekshiradi, buning natijasida ularni qayta ko'rib chiqilmasdan va o'zgartirmasdan amalda saqlash yoki qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish zarurati to'g'risida xulosaga keladi.

46. Standartlarni tekshirishda TQ standartlashtirish tizimi talablariga amal qiladi.

47. Agar standartlarni tekshirish jarayonida standartni bekor qilish maqsadga muvofiqligi aniqlansa, u holda TQ kotibiyati standartlashtirish tizimi talablariga muvofiq ushbu standartni bekor qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi.

### **8-bob. Standartlashtirish bo'yicha xalqaro (mintaqaviy) tashkilotlarning standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari (quyi qo'mitalar, guruhlar) ishida ishtirok etish**

48. TQ standartlashtirish bo'yicha xalqaro (mintaqaviy) tashkilotlarning standartlari loyihalarini ko'rib chiqish va ushbu loyihalar bo'yicha ovoz berishda, O'zbekiston Respublikasi takliflarini tayyorlashda ishtirok etadi.

49. TQ ayni shunday faoliyat sohasi bo'lgan xalqaro (mintaqaviy) standartlashtirish tashkilotlarining TQ (quyi qo'mitalar, guruhlar) ishida qatnashadi.

50. Agentlik standartlashtirish bo'yicha xalqaro (mintaqaviy) tashkilotlarning TQ ishida ishtirok etish uchun TQga kirishni ta'minlaydi. TQ standartlashtirish bo'yicha tegishli xalqaro (mintaqaviy) tashkilotlarning ishlash qoidalariga muvofiq holda faoliyat yuritadi.

51. TQ kotibiyatini boshqarishda, xalqaro (mintaqaviy) tashkilotlarning yoki ularning TQ ishida ishtirok etishda TQ xalqaro (mintaqaviy) TQ nizomiga amal qiladi.

### **9-bob. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita ishida qaror qabul qilish**

52. TQga a'zo tashkilotlar doimiy vakolatli vakillarining bevosita TQ yig'ilishida yoki masofadan turib ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qiladilar.

53. Tartibotlar masalalari (TQ ish dasturiga qo'shimcha kiritish, tarkibga yangi a'zo tashkilotlarni qabul qilish, TQ faoliyatini tugatish, raisni, rais o'rinbosar(lar)ini, mas'ul kotibni saylash, ishchi guruh, quyi qo'mitalarni tuzish va tugatish) bo'yicha qaror TQga a'zo – tashkilotlarning doimiy vakolatli vakillarining ko'pchiligi uning uchun ovoz berganda qabul qilingan deb hisoblanadi.

54. Standart loyihalari bo'yicha qaror ovoz berishda ishtirok etuvchi TQga a'zo tashkilotlarning doimiy vakolatli vakillarining to'rt dan uch qismi uning uchun ovoz berganda qabul qilinadi. Bunda ovoz berish natijalari ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq shaklda ovoz berish byulleteni bilan rasmiylashtiriladi. Ovoz berish byulleteni asosida hisobot tuziladi, unda ovoz berish natijalari, ovoz berishda kelishmovchilikni bartaraf etish bo'yicha TQ harakati va mavjud e'tirozlar keltiriladi. Hisobot har bir TQga a'zo tashkilotlarga ovoz berish yakunlangach bir oy muddat mobaynida yuboriladi.

55. TQ faoliyati samaradorligini baholash standartlashtirish tizimining asos bo'luvchi normativ hujjatlari talablariga muvofiq holda Institut tomonidan amalga oshiriladi.

### **10-bob. Texnik qo'mitalar faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari**



56. Quyidagilar texnik qo‘mitalar faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- TQga birlashtirilgan standartlar fondining sifati;
- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlashtirish bo‘yicha ishlarda TQ faoliyatining samaradorligi;
- TQ faoliyatining uyushqoqligi va ochiqqligi.

57. TQga birlashtirilgan standartlar fondining sifati quyidagilardan kelib chiqib baholanadi:

- TQga birlashtirilgan va ishlab chiqilgan davlat standartlari soni;
- xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan standartlar soni.

58. Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlashtirish bo‘yicha ishlarda TQ faoliyatining samaradorligi quyidagilardan kelib chiqib baholanadi:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlashtirish kotibiyatini yuritish;
- TQga birlashtirilgan va ishlab chiqilgan xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarning umumiy soni.

59. TQ faoliyatining uyushqoqligi va ochiqqligi quyidagilardan kelib chiqib baholanadi:

- TQ ish dasturining o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishi ko‘rsatkichlari;
- TQ faoliyati haqidagi axborotning mavjudligi va sarmazmunligi;
- TQ faoliyati haqida taqdim etilgan yillik hisobotning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishi ko‘rsatkichlari.

60. TQ faoliyatining samaradorligini baholash ro‘yxatga olingan texnik qo‘mitalar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari qiymatlarining nisbiy yig‘indisidan kelib chiqib aniqlanadi.

61. TQ faoliyati samaradorligini baholashni TQning yakunlangan yilgi faoliyati bo‘yicha Institut amalga oshiradi. Bunda tashkil etilganiga ushbu baholash o‘tkazilishiga qadar bir yildan kam bo‘lgan TQ faoliyati baholanmaydi.

62. TQning faoliyati samaradorligini baholash natijalari bo‘yicha quyidagi rag‘batlantirish choralari ko‘riladi:

– standartlashtirish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondidan bepul yillik foydalanish;

– xalqaro grant mablag‘lari hisobiga xorijiy tajriba orttirish, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishda ustunlik.

63. TQ faoliyatining samaradorligini baholash natijalari bo‘yicha vakolatli shaxslarga quyidagi javobgarlik choralari ko‘riladi:

– TQga a‘zo – tashkilotlarning tarkibidan vakolatli shaxs(lar)ni chiqarish;

– standartlashtirish bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda TQ ishtirok etishini to‘xtatish.

### **11-bob. Standartlashirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar ishini moliyalashtirish**

64. TQ tomonidan bajariladigan ishlar va xizmatlar qiymati TQ ishi dasturiga muvofiq TQga a‘zo – tashkilotlar bilan kelishiladi va aniqlanadi.

65. TQning standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish ishlarini moliyalashtirishni Institut amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida amalga oshiradi.

66. TQ ish dasturini kelishish bosqichida qayd etilgan standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha buyurtmachining mablag‘lari Institutning standartlarni ishlab chiqish bo‘yicha moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

67. TQning ish dasturi doirasida ishlab chiqilgan standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlarni sotish ushbu TQga a‘zo – tashkilotlarga bepul amalga oshiriladi.

68. TQ ishida doimiy vakolatli vakillarning ishtirok etish xarajatlarini TQga a‘zo tashkilotlar qoplaydi.

### **12-bob. Yakunlovchi qoida**

69. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi  
nizomga  
1-ILOVA

Kelishildi	Tasdiqlayman
_____	O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi
(lavozimi, tashkilot nomi)	
_____	_____
(imzo) (imzoning yoyilmasi)	(imzo) (imzoning yoyilmasi)
20__ yil «__» _____	20__ yil «__» _____

**Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita to'g'risida  
NIZOM**

STQ \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_\_»  
(Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning belgilanishi va nomlanishi)

1. Qo'llanish sohasi

Ushbu Nizom standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning faoliyati sohasini, tuzilmasi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ishlarni bajarish qoidalarini belgilaydi va

\_\_\_\_\_ sohasida standartlashtirish bo'yicha faoliyatda ishtirok etuvchi tashkilotlarga qo'llaniladi.

2. Normativ havolalar

ushbu Nizomda quyidagi normativ va texnik havolalar qo'llanilgan: \_\_\_\_\_.

3. Umumiy qoidalar

3.1. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita «O'zstandart» agentligining buyrug'i bilan tashkil etilgan. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita kotibiyatini

\_\_\_\_\_ yuritadi.  
(tashkilot nomi)

3.2. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitani tashkil etishning maqsadi \_\_\_\_\_.

3.3. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning vazifalari \_\_\_\_\_.

3.4. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita o'z faoliyatida \_\_\_\_\_ amal qiladi.

4. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning faoliyati sohasi \_\_\_\_\_.

5. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning tuzilmasi \_\_\_\_\_.

6. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning raisi, rais o'rinbosari, mas'ul kotib va a'zo — tashkilotlarning huquqlari, majburiyatlari va funksiyalari \_\_\_\_\_.

7. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ish tartibi \_\_\_\_\_.

8. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita ishini moliyalashtirish \_\_\_\_\_.

Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga

2-ILOVA

Tasdiqlayman

Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita raisi

(imzo)

(imzoning yoyilmasi)

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

**Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ish**

**DASTURI**

STQ \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_\_»

(standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning belgilanishi va nomi)

Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ish dasturi maqsadlari:

Uning ishlash samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar:

1. Standartlashtirish bo'yicha ishlar:

T/r	Belgilanishi	Loyihaning nomi	Ijro etuvchi	Ishlarni bajarishning rejalashtirilgan muddatlari	
				dan	gacha
Standartlarni ishlab chiqish					
Standartlarni ko'rib chiqish					
Standartlarni tekshirish, tahlil qilish					

2. Boshqa ishlar: \_\_\_\_\_

Mas'ul kotib

(imzo)

(imzoning yoyilmasi)

Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga

3-ILOVA

Tasdiqlayman

Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita  
raisi

(imzo)

(imzoning yoyilmasi)

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ yil uchun standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ishi to'g'risida  
yillik hisobot

STQ \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_»  
(standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning belgilanishi va nomi)

1. Umumiy  
ma'lumotlar:

Kotibiyatni yurituvchi tashkilot	
Rais	
Rais o'rinbosar(lar)i	
Mas'ul kotib	
Hisobot yilida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita tarkibidagi o'zgarishlar	

2. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning tuzilmasi:

Kichik qo'mitalar	
Ishchi guruhlar	
Hisobot yilida tuzilmadagi o'zgarishlar	

3. Hisobot yilida standartlashtirish bo'yicha ishlarni bajarish natijalari:

Belgilanishi	Nomlanishi
	Standartlar ishlab chiqildi
	Standartlar ko'rib chiqildi
	Standartlar tekshirildi (tahlil qilindi)

4. Xalqaro va mintaqaviy standartlashtirish bo'yicha ishlar natijalari: \_\_\_\_\_

5. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning yig'ilishlari: \_\_\_\_\_

6. Boshqa ishlar: \_\_\_\_\_

Mas'ul kotib

(imzo)

(imzoning yoyilmasi)

Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga

4-ILOVA

**Ovoz berish byulleteni**

Ovoz berish byulleteni	
Ovoz berish sanasi	STQ (STQQ)
A'zo — tashkilotning nomi	

1. Standartning belgilanishi va nomi \_\_\_\_\_

2. Loyihani taklif etilgan tahrirda ma'qullash

3. Quyidagi fikr-mulohazalar bilan  
(takliflar)ga qarshi

Fikr-mulohazalar: \_\_\_\_\_

4. Quyidagi asoslarga ko'ra betaraf  
qolish

Asoslash: \_\_\_\_\_

Doimiy vakolatli vakil \_\_\_\_\_

(imzo)

(imzoning yoyilmasi)

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.03.2019 y., 09/19/220/2770-son)*

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1-Bob. “Sifatni boshqarish va mahsulot sifatining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar.....</b>	<b>5</b>
1.1. Sifatni boshqarish fani o‘quv kursi sifatida.....	5
1.2. Mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi omillar.....	9
1.3. Sifatni boshqarish rivojlantirish to‘g‘risidagi qonunlar.....	12
<b>2-Bob. Mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligi.....</b>	<b>20</b>
2.1. Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya sifatida.....	20
2.2. Mahsulot sifatini oshirishning obyektiv zarurati.....	22
2.3. Mahsulot sifati ko‘rsatkichlari tizimi.....	25
2.4. Firma faoliyati natijalariga sifatning ta’siri.....	29
<b>3-Bob. Sifatni boshqarishda chet davlatlar tajribasi.....</b>	<b>36</b>
3.1. MDH davlatlarida sifatni boshqarishga tizimli yondashuv.....	36
3.2. Umumjahon sifatni boshqarish tushunchasi.....	43
3.3. Sifatni boshqarishning AQSH tajribasi.....	46
3.4. Sifatni boshqarishning Yevropa tajribasi.....	52
3.5. Sifatni boshqarishning Yaponiya tajribasi.....	55
<b>4-Bob. Sifatni boshqarishda standartlashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....</b>	<b>63</b>
4.1. Standartlashtirishning nazariy asoslari.....	63
4.2. Standartlarni ishlab chiqish tamoyillari.....	75
4.3. Davlat standartlash tizimi.....	76
<b>5-Bob. Sifatni boshqarish va mahsulotlarni xalqaro standartlashtirish talablari.....</b>	<b>81</b>
5.1. Xalqaro standartlarni shakllanishi.....	81
5.2. Xalqaro standartlarning xalqaro savdo va hamkorlikka ta’siri....	83
5.3. ISO-9001 seriyasidagi standartlar.....	85
<b>6-Bob. Metrologik faoliyat va metrologiyaning tashkiliy-huquqiy asoslari.....</b>	<b>99</b>
6.1. Metrologiya sohasidagi asosiy tushunchalar.....	99
6.2. Metrologik nazorat va tekshiruv obyektlari.....	105
6.3. Metrologiya bo‘yicha xalqaro tashkilotlar.....	110
<b>7-Bob. Mahsulotni sertifikatlashning tashkiliy-huquqiy asoslari...</b>	<b>116</b>
7.1. Mahsulotni sertifikatlash sohasidagi asosiy tushunchalar.....	116
7.2. Sertifikatlash bo‘yicha davlat idoralari va ularning vazifalari...	120

7.3.	Sertifikatlash obyekti va subyekti.....	122
7.4.	Import va eksport mahsulotlarini sertifikatlash.....	126
<b>8-Bob.</b>	<b>Sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatlashni tashkil etish.....</b>	<b>130</b>
8.1.	Sifat tizimini sertifikatlashning mazmuni.....	130
8.2.	Mahsulotni sertifikatlashning axborot ta'minoti.....	134
8.3.	Sertifikatlash ishlarining qiymati va ularni to'lash tartibi.....	136
8.4.	Sifat tizimini sertifikatlashning xalqaro tajribasi.....	138
<b>9-Bob.</b>	<b>Mahsulot sifatini oshirishda EAN Shtrix kodlarni joriy etish.....</b>	<b>146</b>
9.1.	Mahsulot sifatini kontrafakt mahsulot bilan kurashishdagi roli.....	146
9.2.	Shtrix kodlarni yaratalishi va uni xalqaro savdogaga ta'siri.....	150
9.3.	“EAN International” tovarlarni raqamlash bo'yicha Xalqaro Uyushma faoliyati.....	152
<b>10-Bob.</b>	<b>Iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoyalanihi.....</b>	<b>155</b>
10.1.	Iste'molchilar huquqlari va ishlab chiqaruvchilar hamda tovar to'g'risidagi axborot.....	155
10.2.	Iste'molchi tomonidan talablarni qo'yish shartlari.....	161
10.3.	Mahsulot xavfsizligiga bo'lgan iste'molchilar huquqlari.....	164
10.4.	Iste'molchilar huquqini himoya qilishni davlat tomonidan ta'minlash.....	173
<b>XULOSA.....</b>		<b>175</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>		<b>176</b>
<b>ILOVA (Sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar).....</b>		<b>180</b>



**YADGAROV AKRAM AKBAROVICH**

# **SIFATNI BOSHQARISH**

**Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2022**

<b>Muharrir:</b>	<b>N. Abdullayeva</b>
<b>Texnik muharrir:</b>	<b>M. Tursunov</b>
<b>Musavvir:</b>	<b>A. Shushunov</b>
<b>Musahhih:</b>	<b>L. Ibragimov</b>
<b>Kompyuterda sahifalovchi:</b>	<b>M. Zoyirova</b>

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899.920-90-35**

**№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

**Bosishga ruxsat etildi 05.09.2022.**

**Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/16. «Timez Uz» garniturasini.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i: 14,5. Nashriyot bosma tabog'i 14,0.**

**Tiraji:50. Buyurtma №85**

**«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»**

**bosmaxonasida chop etildi.**

**100174, Toshkent sh, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy.**

